



UDK:39:903`14/15(575.1)

Sherzod ABDUSATOROV,
O'zMU Antropologiya va etnologiya kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: sherzodabdusattorov2@gmail.com
Turon BABARAXIMOV,
O'zMU Antropologiya va etnologiya kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: turonbabaraximov@gmail.com

O'zMU dotsenti t.f.d B.Ubaydullayeva taqrizi asosida

AHOLI XO'JALIK MASHG'ULOTLARINING TAOMLARDAGI O'RNI (FARG'ONA VODIYSI MISOLIDA)

Annotsatsiya

Ushbu maqolada turmush tarzi chorvachilik bo'lgan aholi va asosiy mashg'uloti dehqonchilik bo'lgan Farg'ona vodiysining o'troq aholisi orasida o'zaro madaniy aloqalar asrlar davomida jadal kechganligi ko'rsatilgan. Bu ikki komponent uzoq tarixiy davr mobaynida ma'lum ma'noda bir birini to'ldirib, boyitib borgan. Boshqa xalqlar bilan etnoslararo madaniy aloqalar natijasida yuzaga keladigan yangiliklar dastavval o'troq aholi tomonidan o'zlashtirilib, so'ngra turmush tarzi yarim o'troq va ko'chmanchi bo'lgan aholi bilan o'zaro madaniy almashinuv jarayoni natijasida, ular tomonidan ham qabul qilinganligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo gavhari, taom komponentlari, suyuq va quyuq taomlar, chevati, yupqa, chorvachilik mahsulotlari, dehqonchilik mahsulotlari.

THE ROLE OF ECONOMIC ACTIVITY IN FOOD (USING THE EXAMPLE OF THE FERGANA VALLEY)

Annotation

The article explores the intensity of cultural connections between the nomadic pastoral population and the settled agricultural population of the Fergana Valley. It examines the interaction between these two population groups and their contribution to enriching each other over a long historical period. The process of assimilating innovations resulting from cultural contacts with other ethnic groups by the settled population is illuminated, as well as their subsequent adoption through cultural exchange with semi-settled and nomadic populations.

Key words: Central Asian pearl, food components, first course, second course, chevats, yupqa, livestock products, agricultural produce.

РОЛЬ ХОЗЯЙСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ПИЩЕ (НА ПРИМЕРЕ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ)

Аннотация

В данной статье исследуется интенсивность культурных связей между кочевым скотоводческим населением и оседлым земледельческим населением Ферганской долины. Рассматривается взаимодействие этих двух групп населения и их вклад в обогащение друг друга в течение длительного исторического периода. Освещается процесс усвоения нововведений, происходящих в результате культурных контактов с другими этническими группами, со стороны оседлого населения, а также их последующее принятие в результате культурного обмена с полuosедлым и кочевым населением.

Ключевые слова: жемчужина Средней Азии, пищевые компоненты, первое блюдо, второе блюдо и густые, чеваты, юпка, продукты животноводства, сельскохозяйственная продукция.

Kirish. Vodiy – yer maydoni mamlakatimizning atigi 5%ni tashkil etib, (umumiy hisobda 22,2 ming km²), aholisining zichligi va etnik rang-barangligi jihatidan O'rta Osiyodagi o'ziga xos mintaqasi hisoblanadi. Uning hududi shimoli-g'arbda Qurama va Chatqol tizmalari, shimoli-sharqdan esa Farg'ona, Janubiy Oloy va qisman Turkiston tizmalari bilan o'ralgan. Farg'ona vodiysi nafaqat o'zining go'zal tabiati bilan balki xushfe'l insonlari bilan ham mashhurdir.

Darhaqiqat, vodiy azal-azaldan yerning hosildorligi, insonlarning mehnatkashligi, oliyanoblighi va go'zal takrorlanmas tabiati, iqlimi bilan "O'rta Osiyo gavhari" deya nom qozongan. Qolaversa, aynan mazkur zamin aholisi o'ziga xos "farg'onacha" madaniyatni yaratuvchi va dunyoga tarqatuvchilar hamdir. Aynan Farg'ona vodiysi aholisining kundalik turmush tarzi va madaniyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak vodiya yashovchi aholining milliy qadriyatlarini, madaniy an'analarini va o'ziga xos etnografik jihatlari bilan mashhur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Taomlar va taomlanish madaniyati masalasi turli ilmiy maktablar hamda nazariy yondashuvlar doirasida o'rganilgan va turli xil xulosa hamda talqinlar bilan ifoda etilgan.

O'rta Osiyo aholisining turmush tarzi, moddiy va ma'naviy madaniyati to'g'risida ma'lumotlar berilgan dastlabki manba – "Avesto"dir. "Avesto" kitobida insonlar iste'mol qilishi zarur bo'lgan taomlar ikki turga bo'linadi: iste'mol qilish mumkin bo'lgan (yaxshi) va mumkin bo'lmagan (yomon) taomlarga bo'linadi [1].

Yana manbalar sifatida Abu Ali Ibn Sino[2], Abu Rayhon Beruniy [3], Mahmud Koshg'ariy [4], Zahridin Muhammad Bobur [5] va boshqalarning asarlarini ko'rsatish mumkin.

Bundan tashqari Rossiya imperiyasi va sovetlar davrida yaratilgan ishlar bo'ldi. Ular sirasiga rus olimi P.Nebolsin[6], venger olimi G.Vamberi[7], A.D.Grebenkin[8], V.Nalivkin, M.Nalivkina[9], A.Middendorf[10], N.S.Likoshin[11], N.Xanikov[12], A.Ostroumov [13]larning asarlarida tadqiqot mavzusiga oid ma'lumotlar ko'proq

uchraydi.

O'zbekistonning turli mintaqalarida, jumladan, Farg'ona vodiysi o'zbeklarning taomlari to'g'risidagi ma'lumotlar O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari etnografiyasiga bag'ishlangan monografiya [14], K.L.Zadixina [15], B.X.Karmisheva[16], S.S.Gubayevlarning [17] ilmiy tadqiqotlaridan bevosita qiyosiy ma'lumot sifatida ish jarayonida foydalanish mumkin.

Sovet davri ilmiy adabiyotlarda garchi taom mavzusi alohida ishlamagan bo'lsa ham, taomlanishga doir ayrim etnografik ma'lumotlar berilgan. Bu guruhga o'zbek etnograf olimlari akademik K.SH.Shoniyozov[18], K.Mahmudovdir[19], I.M.Jabborov [20], U.S.Abdullayev [21]larning ishlari kiritilgan.

Mustaqillik yillarida taomlar maxsus tadqiqot obyekti sifatida ilk bora M.B.Qurbonova tomonidan o'rganildi[22]. An'anaviy o'zbek taomlari bo'yicha maxsus tadqiqot sifatida M.Fayzullayevaning dissertatsiyasini ham ko'rsatish mumkin[23]. Etnolog M.Fayzullayeva mazkur tadqiqotning natijasi sifatida monografiya ham nashr ettirgan[24].

Etnolog olim G.Sh.Zunnunovaning "Toshkent o'zbeklarining moddiy madaniyati: transformatsiya jarayonlari (XX-XXI asrlar)" monografiyasida ham taomlar masalasiga alohida paragraf bag'ishlangan. Ushbu tadqiqot o'zining nazariy metodologiyasi bilan ham ajralib turadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning yetakchi ilmiy konsepsiyasi muammoga sivilizatsion yondashuv ekanligini hisobga olgan holda, o'rganilayotgan muammoni to'g'ri hal etishda ilmiylik, bilishning xolis, tarixiy, qiyosiy va tanqidiy o'rganish, tizimlilik tamoyillari, kulturogenез prinsiplariga amal qilindi.

Tahlil va natijalar. O'zbek xalqining taomlari xilma-xil va boydir. U mamlakatning tabiati va xo'jaliga o'ziga xosliklari bilan bog'liqdir. Taomnomasining xilma-xilligi, boyligi bilan o'tmishda dehqonchilik vohalari va shaharlar ajralib turgan. Ularning taomlarida dehqonchilik mahsulotlari (donli, sabzavotlar, mevalar) katta o'rin tutgan. Yarim ko'chmanchi aholi guruhlarida taomlar asosini chorvachilik mahsulotlari (go'sht, yog', sut) tashkil etadi. Lekin o'troq aholi va yarim o'troq o'zbeklarning aralashuvi bu tafovutlarni yo'qolib borishiga, umum o'zbek milliy taomlarini shakllanishiga olib keladi.

Mintaqada yashovchi aholining oziq-ovqat mahsulotlari asosan ularning xo'jalik faoliyatiga bog'liq bo'lgan. Lekin shu bilan birga dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan aholi faqat dehqonchilik mahsulotlari, chorvachilik bilan shug'ullangan aholi faqat chorvachilik mahsulotlari iste'mol qilgan deyish noto'g'ri bo'lardi. Ular bozorlarda tovar ayirboshlash yo'li bilan o'zlarida mavjud bo'lmagan oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talablarini qondirishgan.

Akademik K.Shoniyozov o'zbek milliy pazandachiligining paydo bo'lishini quyidagicha ta'riflaydi: "XVIII asr oxiri- XIX asr o'rtalarida o'zbek xalqining oziq-ovqat mahsulotlari tarkibi xilma-xil bo'lgan. O'troq aholi taomnomasida qadimdan dehqonchilik mahsulotlari, yarim o'troq o'zbeklarda esa ko'proq chorvachilik mahsulotlari asosiy o'rinni egallagan. Biroq o'zbek xalqining o'troq va yarim o'troq aholisining o'zaro qo'shilishi natijasida XIX asr o'rtalarida taomlardagi farq asta-sekin yo'qolib borgan, bu esa o'zbek umummilliy taomlarining paydo bo'lishiga olib kelgan" [26].

Tadqiqotimiz ob'ekti bo'lgan Farg'ona vodiysida joylashgan turli xalqlarning madaniy-xo'jalik tipidan kelib chiqqan holda taom tayyorlashda o'ziga xos malakalarga ega bo'lgan, ya'ni o'troq aholi taomlari tarkibidagi komponentlar turmush tarzi ko'chmanchilik va yarim ko'chmanchilikdan iborat bo'lgan elatlarnikidan birmuncha farq qilgan. Buni, xususan, Farg'ona vodiysi xalqlarining an'anaviy taomlarida

kuzatishimiz mumkin. Agar vodiyning o'troq o'zbek, tojik, uyg'ur kabi xalqlarining an'anaviy taomlari, asosan, dehqonchilik mahsulotlaridan iborat bo'lgan bo'lsa, qirg'iz, qipchoq, qurama, turk, yuz kabi chorvador elatlar o'z oziq-ovqatlarini tayyorlashda ko'proq sut va go'sht mahsulotlaridan foydalanganlar[122].

Shuningdek, Farg'ona vodiysi aholisining milliy taomlarini shartli ravishda ikki qismga bo'lish mumkin: quyuq va suyuq taomlar. O'z navbatida, mazkur taomlar ham tayyorlanish usullari xilma-xilligiga qarab suyuq taomlarni suyuq taomlar va donli suyuq taomlarga; quyuq taomlarni: yarim quyuq va quyuq taomlar, donli quyuq taomlar, xamirdan tayyorlangan quyuq taomlar, sut va tuxumdan tayyorlangan quyuq taomlar va go'shtli quyuq taomlarga bo'lingan[28:4]. Milliy taomga ta'rif berishda vodiylklarning fikrali ham inobatga olindi. Xususan, olib borilgan etnosotsiologik so'rovnoma biz vodiylklardan "Milliy taom deganda siz nimani tushunasiz?" degan savol bilan murojaat etgan edik. Andijonliklarning 72%i har bir halqqa tegishli, millatga mansub taomlar, 18%i xalqimizning an'anaviy taomlari, 10%i odatiy taomlar deb javob bergan bo'lsa, namanganliklar 23%i ota-bobolardan saqlanib kelayotgan taomlar, 20%i har bir tegishli taomlar, 18%i o'zbek milliy taomlari (osh, manti, sho'rva, lag'mon taomlari), 16%i bu palov, 15%i o'zimiz iste'mol qiladigan taomlar, 2%i aholi doimiy iste'mol qiladigan taomlarni milliy taom deb ta'riflar bergan. Farg'onaliklar esa 30%i etnosga xos, 18%i doimiy uy sharoitida tayyorlanadigan taomlar, 14%i xalq suygan taomlar, 9% uydta tayyorlanadigan an'anaviy taomlar, 8%i avloddan avlodga o'tib kelayotgan taomlar, 2%i mahalliy tayyorlanadigan taomlar deb javob berdi[29].

Ushbu natijalardan Farg'ona vodiysi aholisi milliy taom deganda, avloddan avlodga o'tib kelayotgan, kundalik, doimiy, xalq suygan an'anaviy taomlar, shuningdek, palov, sho'rva, manti, lag'mon taomlarini va har bir xalqqa mansub tez-tez tayyorlanadigan taomlarni tushunishlari aniqlandi.

Kishilik jamiyatida xalqlarning xo'jalik turmush tarzi ularning kundalik va marosimiy taomlarda o'z aksini topadi. Jumladan, Farg'ona vodiysi aholisi an'anaviy dehqonchiligida ekin turlari juda ham xilma-xil bo'lgan[30]. Bu mintaqada aholisi taomnomasi uchun yetarli mahsulotlarni va milliy taomlarni tayyorlash hamda iste'mol qilish uchun zamin yaratgan. Bu yerda asosiy ekin turi nafaqat bug'doy, balki ko'plab boshqa donli mahsulotlarni jumladan, arpa, jo'xori, makkajo'xori, tariq sholi, mosh, loviya, kunjut, kanop, paxta; poliz ekinlaridan qovun, tarvuz, sabzi, piyoz, lavlagi, bodring va qovoq yetishtirilib kelinadi[31]. Jumladan, so'rovnoma natijalariga ko'ra, "Siz yashaydigan hududda asosan qaysi turdagi dehqonchilik mahsulotlari ko'proq yetishtiriladi?" degan savol bilan murojaat qilindi. Farg'onaliklarning 36% kartoshka, 19% sabzi, 16% bug'doy, 13% pomidor, 7% sholi, 5% makkajo'xori, 4% qovun tarvuz esa ni tashkil qilgan bo'lsa, andijonliklar 34% kartoshka, 24% sabzi, 16% makkajo'xori va 4% sholi yetishtirishlari ma'lum bo'ldi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, aholining milliy taomlari tarkibida so'nggi davrlarda kartoshka bo'lgan talabning ham yuqori ekanligi aniqlandi.

Vodiyning o'troq aholisi taomlarida un va un mahsulotlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bug'doy, arpa, makkajo'xori va jo'xori unlaridan tayyorlangan xamir ko'plab an'anaviy taomlar pishirishda asosiy mahsulot hisoblanib kelingan. Xamirdan, asosan, turli non va non mahsulotlari tayyorlangan[32].

Azaldan Farg'ona vodiysi aholisi bug'doyning turli navlarini yetishtirib keladi. Bunday dehqonlar tomonidan o'stirib kelayotgan bug'doy o'ziga xos sifati va hosildorligi bilan ajralib turgan[33].

Tadqiq etilayotgan davrda bug'doyning ba'zi navlari "chillaki bug'doy", "oq bug'doy", "qizil bug'doy" hamda "qoraqiltiriq" kabi turlari yetishtirilib, ularning unlari o'ziga xosligi va sifatligi bilan ajralib turadi. Ulardan tayyorlangan nonlar juda ham to'yimli hisoblangan. Shuningdek, vodiyning lalmikor yerlarida ekiladigan "luchchak" navidan asosan nonvoylar foydalangan. Sababi, ushbu bug'doy unidan yopilgan nonlar chiroyli, to'yimli va mazali bo'lgan [34]. Ayni shu o'rinda aytish mumkinki, bug'doyning turli navlari O'rta Osiyo xalqlari tomonidan azaldan yetishtirib kelinib, manbalarda ham tilga olinadi [35].

O'rganilayotgan davrda o'troq aholining noni tarkibidagi ba'zi qo'shimcha mahsulotlari (piyoz, go'sht, jizza, yog'), tuzilishi va sifati bilan ko'chmanchi aholi tomonidan tayyorlangan nonlardan farq qilgan. Jumladan, o'troq aholi bayram va oilaviy marosimlar uchun aksariyat hollarda maxsus patir nonlar tayyorlab kelishgan. Farg'ona vodiysi o'troq aholisi orasida patirning ikki xilini tayyorlash keng tarqalgan edi. Birinchisi, 30-40 sm diametrlilik, ikkinchisi esa 25-30 sm diametrdagi bo'lib, qatma-qat qilib yasalgan qatlama patirlar hisoblanadi. Bu patirlar xamiriga, odatda, qo'y yoki mol yog'i qo'shilgan [36]. Farg'ona vodiysi o'troq elatlarida rusum bo'lgan bolalar uchun kichkina o'lchamdagi kulcha nonlar tayyorlash o'zaro madaniy aloqalar natijasida respublikamizning turli hududlariga tarqalgan.

Vodiyning chorvachilik bilan shug'ullanadigan aholisi, xususan, turk, yuz, qurama, qipchoq va qirg'izlarda turli xildagi nonlarni qozonda pishirish keng tarqalgan bo'lib, bu ko'chmanchilikning belgilaridan biri hisoblanadi. Nonlarni tayyorlash usuli barcha yarim ko'chmanchi etnik jamoalarda deyarli bir xil bo'lib, ularning ayrimlari quruq qozonda qotirib olinsa, boshqalari esa qozonga yog' surtilib yoki quyilib unda pishirib olingan. Masalan, Farg'ona vodiysi turklari xamirdan katta va yupqa qilib aylana shaklda yasalgan nonni qozonda yog' solmasdan qotirib olganlar. Bu nonni ular chevatli deb ataganlar. Xuddi shu usulda tayyorlangan non farg'onalik quramalarda yuqma, qipchoqlarda esa yupqa deb atalgan [37]. Qozonga yog' solinib tayyorlangan non mahsulotlaridan qatlama, bo'g'irsoq, chalpak kabilarni keltirib o'tishimiz mumkin. Fikrimizcha, mazkur mahsulotlarni chorvachilik bilan shug'ullanadigan elatlar o'troq xalqlardan o'zlashtirgan.

O'zbek milliy taomlarini tayyorlashda azaldan turli xil go'sht va go'sht mahsulotlari ishlatilib kelingan. Janubiy viloyatlarning yarim o'troq aholisi orasida, asosan, qo'y go'shti keng iste'mol qilingan bo'lsa, Farg'ona vodiysida

qo'ydan tashqari echki, mol, ot va asosan, o'troq aholi orasida parranda go'shtlari ham iste'mol qilingan. O'troq aholi tomonidan tayyorlanadigan taomlarda go'shtning ulushi katta bo'lmagan. Farg'ona vodiysining o'troq aholisi taomlarida ko'plab ziravorlarning ishlatilishi, taomni go'shtsiz ham mazzali bo'lishini ta'minlagan. Ziravorlardan yalpiz, jambil, rayhon, zira, kashnich, qizil qalampir kabilardan foydalanilgan. Shu o'rinda, vodiyning o'troq aholisi taomlarida qizil qalampirning o'rni haqida to'xtalmoqchimiz. Bizga ma'lumki, vodiyning o'troq aholisi taomlarida qizil qalampirni deyarli barcha taomlarida ishlatib, ba'zan esa o'zini ham sevib iste'mol qilishadi. Bu holat janubiy viloyatlarda kuzatilmaydi. Mazkur komponent - qalampir keng iste'mol qilinadigan Xitoydan uyg'ur va dunganlar tomonidan olib kiritilganligini taxmin qilish mumkin. O'z navbatida qalampir Farg'ona vodiysining Qo'qon shahri va uning atrofiga keng yoyilishiga iqlimning xalqiligi ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Axborotchilarning ta'kidlashicha, qalampir zax tufayli kelib chiqadigan ba'zi kasalliklarni oldini olishga yordam beradi.

Ma'lumki, O'rta Osiyo xalqlarining eng buyuk fazilatlaridan biri mehmondostlikdir. Jumladan, vodiylar xonadonga tashrif buyurgan mehmonga katta hurmat-ehтиrom ko'rsatilib, imkon qadar eng yaxshi taom tayyorlab kelinadi. ayniqsa mehmon uchun imkon qadar palov tayyorlashga harakat qilinadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki, turmush tarzi chorvachilik bo'lgan aholi va asosiy mashg'uloti dehqonchilik bo'lgan Farg'ona vodiysining o'troq aholisi orasida o'zaro madaniy aloqalar asrlar davomida jadal kechganligiga amin bo'ldik. Bu ikki komponent uzoq tarixiy davr mobaynida ma'lum ma'noda bir birini to'ldirib, boyitib borgan. Boshqa xalqlar bilan etnoslararo madaniy aloqalar natijasida yuzaga keladigan yangiliklar davlat o'troq aholi tomonidan o'zlashtirilib, so'ngra turmush tarzi yarim o'troq va ko'chmanchi bo'lgan aholi bilan o'zaro madaniy almashinuv jarayoni natijasida, ular tomonidan ham qabul qilingan degan xulosaga keldik.

O'zbek milliy taomlarining shakllanishida asosiy komponentlar dehqonchilik bilan shug'ullangan o'troq aholi tomonidan kiritilgan bo'lsa, yarim ko'chmanchi va yarim o'troq turmush tarzini kechirgan aholi o'troqlashish jarayoni davomida mazkur taomlarni o'zlashtirib, o'z navbatida ularni tarkiban boyitishda va xilma-xilligini oshirishda o'zlarining munosib hissalarini qo'shishgan.

ADABIYOTLAR

1. Маковельский А.О. Авеста. – Баку, 1960. – С. 86.
2. Абу Али ибн Сино. Тиб конунлари. – Тошкент: Абдулла Кодирий номидаги халқ мероси, 1992. 1-жилд. – Б. 47.
3. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар 1-жилд. – Тошкент, 1957. – Б. 87-89.
4. Қошғарий М. Девону луғотит турк. 3-жилд. – Тошкент: Фан, 1963. – 463 б.
5. Бобур З.М. Бобурнома. – Тошкент: Ўқитувчи, 2012. – 286 б.
6. Небольсин П. Очерки торговли России со странами Средней Азии. – Санкт-Петербург, 1856. – С. 24.
7. Вамбери Г. Путешествие в Бухару. – Москва, 1886. – С. 112-174.
8. Гребенкин А.Д. Узбеки // Русский Туркестан. Вып. II. – Москва, 1872. – С. 82.
9. Наливкин В., Наливкина М. Очерки быта женщин туземного оседлого населения Ферганской долины. – Казань, 1886. – 244 с.
10. Миддендорф А. Очерки Ферганской долины. – Санкт-Петербург, 1882.
11. Лыкошин Н. С. Полжизни в Туркестане. Очерки быта туземного населения. – Пг, 1916.
12. Ханьков Н. Описание Бухарского ханства. – Санкт-Петербург, 1943. – С. 21-124, 129, 134, 137.
13. Остроумов А. Саргы. – Ташкент, 1896. – С. 67-80.
14. Народы Средней Азии и Казахстана. Т.1. – Москва, 1962. – С. 304-313.
15. Задыкина К.Л. Узбеки дельты Амударьи // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. – Москва, 1952. – С. 372-376.
16. Кармышева Б.Х. Этнографическая группа тюрки в составе узбеков (историко-этнографические данные) // Советская этнография. – Москва, 1960.

17. Губаева С.С. Население Ферганской долины в конце XIX – начале XX в. (этнокультурные процессы). – Ташкент, 1991.
18. Шаниязов К.Ш. О традиционной пище узбеков // Этнографическое изучение быта и культуры узбеков. – Ташкент, 1972. – С. 96-118; Шаниязов К.Ш., Исмаилов Х.М. Этнографические очерки материальной культуры узбеков конца XIX – начала XX века. – Ташкент, 1981. – С. 105-121; Шониёзов К.Ш. Узбеки – карлуки. – Ташкент, 1964. – С. 76; Жабборов И.М. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти. – Тошкент, 2003.
19. Маҳмудов К. Ўзбек тансиқ таомлари. – Тошкент: Меҳнат, 1989. – 344 б.
20. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 320 б.
21. Абдуллаев У.С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX-XX аср бошлари). – Тошкент, 2005. – Б. 214.
22. Курбонова М.Б. Бухоро воҳаси ўзбек ва тожикларнинг анъанавий таомлари (XIX аср охири – XX аср боши). Дис. ...тарих.фан.номзоди. – Тошкент, 1994. – 158 б.
23. Файзуллаева М. Сурхон воҳаси аҳолисининг таомлар билан боғлиқ анъана ва маросимлари (XX асрнинг биринчи ярми). Дис. ...тарих. фан. номзоди. – Тошкент, 2010. – 163 б.
24. Файзуллаева М. Ўзбек таомлари билан боғлиқ анъаналар. – Тошкент, 2010; Файзуллаева М. Ўзбек миллий таомлари ва тановул маданияти. – Тошкент: “Tafakkur avlodi”, 2021. – 360 б.
25. Зуннунова Г.Ш. Материальная культура узбеков Ташкента: трансформация традиций (XX-XXI в.). – Ташкент: EXTREMUM-PRESS, 2013. – 320 с.
26. Шаниязов К. Ш. Одежда и пища: История Узбекистана. Т.3. (XVI в.-I-я половина XIX века). — Ташкент: Фан, 1993. — С. 329.
27. Абдуллаев У.С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX — XX аср бошлари). — Т. 2005 й Б.122.
28. Худойшукуров Т ва бошқ. Ўзбек миллий таомлари. — Тошкент: Шарқ, 1995. — Б. 4,5,6.
29. Сўровнома натижаларидан.
30. Исоков И. Фарғона водийси анъанавий деҳқончилик маданияти. Тошкент., “Yangi nashr”. 2011. Б.42.
31. Қаранг: Арифхонова З.Х. Растительность Ферганской долины. Ташкент, 1967. — С. 252-288.
32. Батафил қаранг, Маҳкамов К. М, Потосян А. И, Свинин С. И. Узбекские лепешки. Ташкент, 1974.
33. ЎзМЭ. 2 т. 2001. 321-328 бетлар; Удачин Р.А., Шахмедов И. Ш. Пшеница в Средней Азии. Ташкент, 1984. С. 56-69.
34. Исоков И. Фарғона водийси анъанавий деҳқончилик маданияти. Тошкент., “Yangi nashr”. 2011. Б.42.
35. Маҳмуд Кошғарий. Девони луғатит турк. Тошкент. 1963. 3-жилд. Б.257.
36. Абдуллаев У.С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX — XX аср бошлари). — Т. 2005 й. Б.123.
37. Ўша асар. Б.124 .



Akbar ZAMONOV,

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti "Tarix" kafedrasini mudiri, PhD, professor

E-mail: a.zamonov@kiut.uz

TDPU universiteti dotsenti, t.f.d G.Taniyeva taqrizi asosida.

SHAYBANI ABDULLAKHAN IBN ISKANDARKHAN AND HIS GENEALOGY

Annotation

The article, based on sources, examines the birth, personality, genealogy, and dynastic chain before Genghis Khan of the major representative of the Shaybanid dynasty, Abdullakhan ibn Iskanderkhan, who ruled in Turan. Also, representatives of the dynasty from Abulkhairkhan to Abdullakhan are briefly described. An analysis of the material about his mother, wife and only son Abdulmuminkhan was made.

Key words: Sheybanids, dynasty, Abdullakhan ibn Iskanderkhan, Abulkhairkhan, pedigree, Chingizkhan, Jochi, Janibek Sultan, son, father, birth, Bukhara, Transoxiana, Sultan, Abdulmuminkhan.

ШАЙБАНИ АБДУЛЛАХАН ИБН ИСКАНДАРХАН И ЕГО ГЕНЕАЛОГИЯ

Аннотация

В статье, на основе источников рассмотрено рождение, личность, генеалогия, династическая цепочка до Чингизхана крупного представителя династии Шейбанидов Абдуллахана ибн Искандархана, правившего в Туране. Также, кратко охарактеризованы представители династии от Абулхайрхана до Абдуллахана. Сделан анализ материала о его маме, жене и единственного сына Абдулмуминхана.

Ключевые слова: Шейбаниды, династия, Абдуллахан ибн Искандархон, Абулхайрхан, родословная, Чингизхан, Джучи, Джанибек султан, сын, отец, рождение, Бухара, Мавераннахр, султан, Абдулмуминхан.

SHAYBONIY ABDULLAXON IBN ISKANDARXON VA UNING NASABNOMASI

Annotatsiya

Maqolada Turonda hukmronlik qilgan shayboniylar sulolasining eng yirik vakillaridan biri bo'lgan Abdullaxon ibn Iskandarxonning tug'ilishi, shaxsiyati, nasabnomasi, Chingizxonning bo'lgan sulolaviy zanjir manbalar asosida tasniflangan. Shuningdek, Abulxayrxondan Abdullaxonning bo'lgan sulola vakillari qisqacha sharhlangan. Uning onasi, xotini va yolg'iz o'g'li Abdulmo'minxon haqidagi ma'lumotlar ham tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: shayboniy, sulola, Abdullaxon ibn Iskandarxon, Abulxayrxon, shajara, Chingizxon, Jo'chi, Jonibek sulton, o'g'li, otasi, tug'ilish, Buxoro, Movarounnahr, sulton, Abdulmo'minxon.

Kirish. Bizning tariximizda yetarlicha o'rganilmagan, ommaga tanishtirilmagan va o'zining munosib bahosini olmagan shaxslar hali bisyor. Tarix fani tadqiqotining umumiy kontekstida esa nisbatan qoloq davrlar, salbiy obraz kasb etadigan tarixiy shaxslar ahamiyatli tarix sifatida avlodlar tomonidan deyarli o'rganilmaydi. Shayboniixon va uning Turon hududida hukmronlik qilgan avlodlari ham ko'p yillar mobaynida yuqoridagi mezonlar va'ji bilan kam tadqiq etildi. Shayboniixon, Ubaydullaxon va sulolaning eng yirik vakili bo'lgan Abdullaxonlar bir qarashdayoq katta ishlar qilgani, ulkan tarixiy o'zgarishlarga sabab bo'lgani ko'rinib turgan bo'lsada, o'zbek tarixchiligida ochiq qoralandi yoki hyech bo'lmasa uning faoliyatiga nisbatan befarqlik kuzatildi. Avvalo, sovet davrida shayboniylar davri hukmdorlari parda ortida qoldirildi. Shayboniylar sulolasining eng yirik vakili bo'lgan Abdullaxon shaxsini tarixiylik tamoyillari asosida o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mustaqillik yillarida shayboniylar davri nisbatan kamroq o'rganilgan davrlardan biridir. Shunday bo'lsada, o'zbek tarixchiligida Shayboniixon va Abdullaxonlarga nisbatan to'la befarqlik yoki bepisanlik hukm suryapti desak, xato bo'ladi. Sovet davrida va mustaqillik yillarida, shuningdek, xorijda ham Abdullaxon shaxsiga bag'ishlangan maxsus asar bo'lmasada, u yoki bu tadqiqotlar doirasida ma'lum faoliyati tadqiq etilgan. Jumladan, sovet davrida V.V.Bartold, P.P.Ivanov, A.A.Semyonov, M.A.Salaxetdinova, Ye.A.Davidovich;

mustaqillik yillarida R.G.Mukminova, B.Ahmedov, H.H.To'rayev, G.A.Agzamova, G.Sultonova, A.Jumanazar; xorijliklardan Mustafu Budak, Remzi Kilich, Gulay Karadag' Chinar, Abdukadir Majid, Hamza Kamol [1] kabi olimlar o'z ilmiy tadqiqotlarida Abdullaxon faoliyatining ba'zi jihatlari e'tibor qaratib o'tganlar.

Tahlil va natijalar. Abdullaxonning ismi talqini. Manbalarda aytilishicha, Iskandarxon ko'p yillar farzand ko'rmay, doimo Allohdan bir o'g'il tilab, toat ibodatda yurib, ulug' shayxlar, din ulamolaridan duo talabida bo'lgan. Hijriy 940-yili (1533-1534) uzoq kutilgan o'g'il farzand tug'ilgach, unga ism qo'yib berish uchun piri Mahdumi A'zam Kosoniy (1461-1544)ga murojaat qilgan. "Musaxxir al-bilod" asarida aytilishicha, "ul hazrat ... xos duo va ixlosli fotiha o'qidi va unga «Abdulloh» deb ism qo'ydi" [2].

Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asarida bu ism mazmuni quyidagicha sharhlanadi: "Ubaydullaxon va Abdullaxon o'rtasida faqat talaffuzdagina farq bor, ya'ni «ubayd» «abd» so'zidan faqat bir harf ortiq xolos. Mustafu alayhissalomning «ismlarning yaxshisi Abdulladir», degan hadisi bo'yicha, «Abdulla» so'zi «Ubaydulla»dan ortiq va ustundir. Boshqacha qilib aytganda, «ubayd» so'zi «bandalik» ma'nosini ifoda qilishda «abd» so'ziga qaraganda bir oz kamlik qiladi va nuqson hisoblanadi yoki «ubayd» «abd» so'zining kichiklashtirilganidir. Hazrat Iso payg'ambar go'dakligida, beshikda yotganda, Tangrining inoyati kalidi bilan uning gavhar yog'diruvchi va dur sochuvchi tili so'zga

kelib «Inni Ubaydulloh» (Albatta men Ubaydullohman, ya'ni Tangrining bandachasiman) demay, «Inni Abdulloh» (Albatta, men Abdullohman, ya'ni Tangrining bandasiman) degan" [3].

So'nggi yuz yillik tadqiqotlarda Abdullaxon ibn Iskandarxon ko'pincha Abdullaxon II nomi bilan tilga olinib kelindi. Odatda ko'pgina tadqiqotlarda bir sulolaga mansub, bir xil nomga ega bo'lgan bir nechta hukmdorlar (masalan, Abdullaxon I, Abdullaxon II yoki Pirmuhammad I, Pirmuhammad II va h.k.) nomlari o'zi va otasining ismi bilan, ya'ni shaxslarning Sharqqa xos an'anaviy va rasmiy nomlanishiga muvofiq (Abdullaxon ibn Iskandarxon yoki Ubaydullaxon ibn Sulton Mahmud va h.k.) keltirilmay, ularga birinchi, ikkinchi, uchinchi kabi nisbalar berilib, boshqasidan ajratiladi. Lekin ular o'z davrida rasman o'zining, otasining, bobosining ismlari ketma-ketligida (Abdullaxon ibn Iskandarxon ibn Jonibek sulton) nomlangan hamda ularning shaxsini aniqlashtiruvchi "birinchi", "ikkinchi", "uchinchi" tartib raqamlarini qo'shib aytish rasm bo'lmagan. Aslida G'arbga xos bo'lgan bunday an'ana (masalan, Genrix I, II, III va h.k.) yurtimiz ilm-fanida rus tarixshunosligi orqali ommalashgan bo'lib, Abdullaxonning ko'plab tadqiqotlarga "Abdullaxon Ikkinchi" bo'lib kirishiga shu sabab bo'lgan edi.

Abdullaxonning tug'ilishi. Abdullaxon (to'liq ismi Abdulla ibn Iskandarxon ibn Jonibek sulton ibn Xo'ja Muhammad ibn Abulxayrxon) 1534-yil Miyonkol yaqinidagi Ofarinkent qishlog'ida tug'ilgan [3]. O'zbek davlatchiligi tarixida o'chmas iz qoldirgan hukmdor hisoblanib, Buxoro xonligining shayboniylar sulolasidan chiqqan eng yetuk hukmdori, davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan, ma'rifat, madaniyat homiysi hisoblanadi. Abdullaxonning otasi Iskandarxon (vaf.1583) Abulxayrxon (1428-1468)ning ikkinchi o'g'li Xo'ja Muhammad sultonning o'g'li, Shayboniyxon va Ko'chkunchixonlar davrining yirik sarkardasi Jonibek sulton (vaf.1529)ning o'g'li edi (Abulxayrxon – Xo'ja Muhammad sulton – Jonibek sulton – Iskandarxon – Abdullaxon) [2].

Abdullaxonning nasabnomasi. O'zbek tarixshunosligida Jo'chining avlodi bo'lgan, Dashti Qipchoqda mavjud bo'lgan O'zbeklar davlatining yirik hukmdori Abulxayrxon tarixiga oid ma'lumotlar yetarlicha. Manbalarda keltirilishicha, uning o'n bir o'g'li bo'lgan: birinchisi – Shoh Budog' sulton; ikkinchisi – Xo'ja Muhammad sulton (Abdullaxonning katta bobosi). Ularning onalari burqut qavmidan bo'lgan (bu ikki aka-uka bir onaning farzandlari bo'lgani sabab, keyinchalik ularning farzandlari – Shayboniyxon va Jonibek sultonlar Movarounnahni egallashda, uni mustahkamlashda birdam bo'lgan edilar). Uchinchisi Ahmad sulton, to'rtinchisi Muhammad sulton. Ularning onalari mang'it qavmidan edi. Beshinchisi Shayx Haydarxon (Abulxayrxondan keyin taxtga chiqqan), oltinchisi Sanjar sulton, yettinchisi Ibrohim sulton. Ularning onalari qo'ng'iro't qavmidan edi. Sakkizinchisi Ko'chkinchixon, to'qqizinchisi Suyunchxo'jaxon. Ularning onalari temuriy hukmdor Mirzo Ulug'bek (1394-1449)ning qizi edi. O'ninchisi Oqburun sulton, o'n birinchisi Sa'id Bobo sulton bo'lib [2: 23], manbalarda ularning onasi kanizak bo'lganligi aytiladi [3].

Mavzuimizga doir shaxs bu – Abulxayrxonning ikkinchi o'g'li Xo'ja Muhammad sulton ba'zi manbalarda Xo'jag'um sulton shaklida ham uchraydi. Xorazm xonligining mashhur hukmdori Abulg'oz Bahodirxon (1603-1663) o'zining "Shajarai turk" asarida Xo'ja Muhammad sultonga ijobiy ta'rif bermaydi. Muarrix u bir oz parishonxotir va aqli kamroq kishi bo'lganligini, moyga olov yoqib fol ham ko'rish odati borligini yozadi [5]. Xo'ja Muhammad sultondan ikki o'g'il qolgan bo'lib, ularning kattasi Jonibek sulton, ikkinchisi Bubay sulton edi [3]. Bubay sultonning farzand va nabiralari

keyinchalik, Abdullaxon davlatida yirik amaldorlar sifatida xizmat qilgan.

Manbalarda keltirilishicha, Jonibek sultonning o'n ikki o'g'li bo'lgan. Do'stumhammad sulton(1), Kiston Qora sulton(2), Poyanda Muhammad sulton(3), Rustamxon(4), Iskandarxon(5), Isfandiyor sulton(6), Sulaymon sulton(7), Pirmuhammadxon(8), Shohmuhammad sulton(9), Yormuhammad sulton(10), Jonmuhammad sulton(11), Nurmuhhammad sulton(12) [3].

Jonibek sulton Shayboniyxon hukmronligining so'nggi o'n yilida u Ubaydullaxon (1487-1540) bilan yelkadosh sarkarda sifatida Movarounnahr va Xuroson shaharlarining egallanishida alohida jonbozlik ko'rsatgan. Hatto, shayboniylar hukmronligi ostidagi Movarounnahr boshqaruvida "qolg'a" udumi joriy etilgach, 1525-1529-yillar oralig'ida, o'limiga qadar "qolg'a" vazifasida bo'lgan. Ya'ni, 1512-yildan Movarounnahrd "xon" bilan bir paytda valiahd ham belgilanadigan bo'ldi. Shayboniylar davlatida valiahd "qolg'a" deb atalib, 1512-yil yosh jihatdan xondan keyin ikkinchi o'rinda turgan uning ukasi Suyunchxo'ja "qolg'a" sifatida belgilangan. 1525-yil Suyunchxo'ja vafot etgach, xondan keyingi yoshi ulug' sultonlardan biri Jonibek sulton valiahd etib belgilangan edi [2].

1529-yil Jonibek sulton vafot etgach, eng katta shahzodalar Ko'chkunchixonning o'g'illari Abu Said sulton va Abdullaxon (1540-1541, Ko'chkunchixonning ikkinchi o'g'li)lar birin-ketin "qolg'a", undan keyin esa oliy hukmdorlik martabalariga ko'tarilgan.

Endi Jonibek sultonning Abdullaxon bilan bog'liq o'g'liga to'xtalsak. Jonibekning beshinchi o'g'li Iskandarxon ota tomondan Jo'chi avlodi bo'lsa, ona tomondan Chig'atoy avlodi edi. Ya'ni, Iskandarxonning onasi Toshkent xoni, Mirzo Boburning tog'asi bo'lgan Sulton Mahmudxon (1487-1509)ning qizi Qutlug'xonim edi [3]. Shunga ko'ra Iskandarxon Bobur Mirzoga ham qarindosh bo'lgan.

Iskandarxon 15 yoshga to'lganida Jonibek sulton unga Samarqand Sug'dining eng so'lim diyori bo'lmish Ofarinkent viloyati boshqaruvini topshirgan [2]. Jonibek sulton 1529-yil Karmana shahrida o'z ajali bilan vafot etgach, Iskandar sulton Miyonkoldan chiqib Karmanaga keladi va bu yerdagi hokimiyatni ham o'z qo'liga olib, Miyonkol va Karmanani boshqara boshlaydi [6, 2].

Manbalarda yozilishicha, "Iskandar farishtasurat, yaxshi siyrat, taqvodor, gunohlardan parhiz qiluvchi, dinparvar, beozor, yumshoq tabiat va bosiq-og'ir, rahmdil, barcha xaloyiq bilan mushfiq va mehribon hukmdor bo'lib, hamisha marhamat qo'li bilan zaif va miskin, yetim-yesirlar boshini silar hamda dargohiga hojat tilab kelganlarning albatta ko'nglini topib, noumid qaytarmasdi. ...Yo'qlik olamidan borliq olamiga kelib, to jon berguniga qadar qudsiy soat vaqtini toat adosi va ibodat vazifasidan o'zga narsaga sarflamadi" [2].

Iskandarxon taqvodor va porso hukmdor bo'lib, 1561-1583-yillarda Buxoro xonligining rasmiy hukmdori bo'ldi. Lekin amalda esa davlatni uning nomidan o'g'li Abdullaxon boshqardi. Uning besh o'g'li bo'lib, shulardan kattasi Abdullaxon va ikkinchisi Ibodullo sultonlarning onasi Og'ojo begim edi. Uchinchisi Do'stum sulton laqabi bilan tanilgan (u amakisi Do'st Muhammad sultonga o'xshagani uchun shunday atalib ketilgan) Abdulquddus sulton, to'rtinchisi Abdulmutallib sulton va eng kichigi Abdullatif sulton edi. Abdulmutallib va Abdullatif sultonlar bolalik chog'ada vafot etishgan [2]. Ibodullo sulton otasi va akasi hukmronligi davrida Kesh, Samarqand viloyatlari, Do'stum sulton esa Toshkent va Miyonkol viloyatlari hokimi sifatida faoliyat ko'rsatgan [2].

Abdullaxon ibn Iskandarxon tug'ilganida (1534) otasi Iskandarxon hali Ofarinkent hokimi edi. Yosh Abdullaxon

tarbiyasi uchun dastlab Sayidbiy Jaloyirni otaliq qilib, keyin oddiy xalq tabaqasidan bo'lmish Amir Yormuhammadni shahzoda "atka"si (otaliq) etib tayinlaydi. Keyinchalik, u ham otasi bilan birga Karmanaga keladi va asta-sekin siyosat maydoniga kirib kela boshlaydi. Otasi Karmana hokimi paytida Abdullaxon Yangi Qo'rg'on, Qarchig'ay va Hazora qo'rg'onlari hokimi sifatida faoliyat ko'rsatgan.

Abdullaxonning harami. Manbalarda Abdullaxonning harami, xotinlari haqida ma'lumotlar deyarli uchramaydi. Shunday bo'lsa-da, bir malika haqida ma'lumot topish mumkin. Abdullaxon 25 yoshga to'lganda Marv hokimi bo'lib turgan, Xorazm xonlaridan arabshohiyar sulolasi vakili Poyanda Muhammad sulton ibn Din Muhammad sulton (Din Muhammad – Avanes – Aminak – Yodgor – Temur Shayx – Hoji To'li – Arabshoh)ning singlisi [5] Mahv Avliyo sultonxonimga uylangan [3]. Manbalarda aytilishicha, 1559-yilda Abdullaxon Poyanda Muhammad sulton huzuriga Jo'yboriy xojalardan bo'lgan Xoja Sa'dni sovchi qilib yuborgan va malikani katta tantana bilan Buxoroga olib kelganlar [5]. Mazkur malika 1567-yilda tug'ilgan Abdulmo'minxonning onasi bo'lib, buni "Abdullanoma" asarida keltirilgan bir voqea ham tasdiqlaydi. Ya'ni, 1578 yil bahorida Abdullaxon shahzodaning xatna to'yini qilish maqsadida joylarga mubashshirlar (hukmdor farmonini yetkazuvchilar)ni yuborib, ularni to'yga taklif qilgan. Shuningdek, "Niso va Bovard (Obivard)ga tomon baxtiyor xonzodaning tog'asi qutli hol, ... Abul Muhammadxon ibn Din Muhammadxonga kishi yuborib, yorug' ko'nglining siri bo'lgan istagi suratini unga ochib ko'rsatdi. Mazkur saodat asarli xabar boshqa mamlakatlar atrofiga (ham) tarqalib, bu to'y ovozasini falak avjidan oshgach, yer yuzidagi mamlakatlar (ning) boshliqlari, har shahar va davlatning iqtidorlilari, ayniqsa, Abul Muhammadxon to'xtovsiz umid yuzini jahonpanoh dargohga qo'ydi" [3]. Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajari turk" asarida keltirilgan arabshohiy sulolasi vakillarining tahlilidan ayon bo'ladiki, Abul Muhammad Din Muhammadning o'g'li, Abdullaxonga o'z singlisini xotinlikka bergan Poyanda Muhammad sultonning ukasi bo'lgan [5]. Demak, Abdullaxonning xotini, mamlakatning bosh malikasi (mahdi uliyo) Mahv Avliyo sultonxonim ham shayboniylar sulolasi vakili bo'lib, Xorazm arabshohiylaridan edi.

Abdullaxonning vafoti va Abdulmo'minxon. Abdulmo'min (1567-1598) Abdullaxonning yagona vorisi edi. Xon 1582-yil o'n besh yoshli o'g'li Abdulmo'minni Balx hokimi etib tayinladi. U hali yosh bo'lganligi uchun amir Jonkeldibiy unga otaliq etib belgilangan. Balxning to'la hukmdori bo'lib olgan Abdulmo'min qator obodonchilik ishlarini olib bordi. Vayron bo'lgan Balx qal'asini o'ta qattiqqo'llik bilan olti oy ichida qayta tikladi. Balx qal'asining old qismi, Xo'ja Anoshi maqbarasi, Bobo Jonboz chorsusi va

boshqa binolar Abdulmo'min buyrug'i bilan ta'mir etildi. Hirot olingan kunisi, ya'ni 1588-yil xalq uni «valiahd» emas, balki «Xoni xurd (kichkina xon)» deb atay boshlagan.

Abdullaxon hukmronligining so'nggi o'n yilligida o'g'li bilan munosabatlari yomonlashib borgan. Ota va o'g'li o'rtasidagi itiloflar 1597 yilga kelib keskin tus oldi. Abdulmo'min endi otasiga qarshi ochiq harbiy harakatlarni boshlab yubordi. Shu yilning kuzida Abdulmo'min o'z qo'shinlari bilan Amudaryo bo'yida chodir tikdi. Samarqandda turgan Abdullaxon esa o'z qo'shinlarini Nasaf (Qarshi) atrofiga to'play boshladi. Lekin Buxoro va Balx ulamolari aralashuvi bilan tomonlar o'rtasida sulh tuzildi. Shunday bo'lsa-da, qo'shinlar Abdullaxon vafotiga qadar o'z jangovar holatlarida turaverdilar. 1598-yilning boshida o'g'liga "tanbeh" berib qo'yish uchun Amudaryo janubiga safarga chiqishdan oldin Samarqand arkida qishni o'tkazmoqchi bo'lgan xon betob bo'lib qoladi va 1598-yilning 8-fevralida vafot etadi. Uning jasadini o'g'li yetib kelguncha yigirma kun atrofida shu yerda saqlanadi. Shundan so'ng xonning janozasi o'qilib, Buxoroda Bahovuddin Nadshband qabri ro'parasidagi sufaga dafn qilinadi. "Musaxxir al-bilod" asari muallifining yozishicha, "ul Iskandari Soniyning umri oltmish olti yil, saltanati davri esa qirq ikki yil bo'lgan" [2].

Taxtga o'tirgan Abdulmo'minxon otasining barcha yaqin amaldorlarini qirg'in qilishga kirishdi. Uning qattiqqo'llik bilan yurgizgan siyosati Abdullaxon tarafdorlarini befarq qoldirdi va hukmronligidan olti oy o'tgach, ya'ni 1598-yil yozida Abdulmo'min bir guruh fitnachilar tomonidan o'ldirildi. Uning norasida o'g'lining taqdiri haqida ma'lumotlar mavjud emas. Shu tariqa, Abdullaxonning o'g'li avlodi zanjiri ham uzilgan edi.

Xulosa va takliflar. Abdullaxon Turonda o'tgan shavkatli hukmdorlardan biridir. XVI asr ikkinchi yarmida Abdullaxon tomonidan Movarounnahr, Xorazm va Xurosonni o'z ichiga olgan markazlashgan davlatning barpo etilishi Buxoro xonligi siyosiy hayotida oz bo'lsa-da, barkarorlikni ta'minladi. Garchi u o'z maqsadiga tinimsiz urushlar natijasida erishib, xonlik aholisi ijtimoiy hayotida notinchliklarni yuzaga keltirgan bo'lsa ham, o'zaro ichki nizo va janglarga qisqa muddat barham berdi. Markazlashgan davlatning barpo qilinishini nafaqat Abdullaxonning harbiy qudrati va salohiyati, siyosiy taktikasining kuchliligi, balki aholining ko'pchilik qismining istagi bo'lganligi, qo'llab-quvvatlaganligi bilan izohlash mumkin. Ammo bu maqsad yo'lida Abdullaxon tomonidan o'ziga qarshi chiqqan va taxtga davogarlik qilgan shayboniyzodalarning ko'pchiligini yo'q qilinishi uning vafotidan so'ng shayboniylar hukmronligiga chek qo'yilishiga sabab bo'lgan, uning nasl zanjiri ham shu yerda tugagan.

ADABIYOTLAR

1. Бартольд. В.В. Туркестан в эпохи монгольского нашествия / Соч. в 9 томах. Т. I. – М.: Восточной литературы, 1963; Бартольд. В.В. История культурной жизни Туркестана / Соч. в 9 томах. – Т. II. Ч.1.– М.: Восточной литературы, 1963; Давидович Е.А. Корпус золотых и серебряных монет Шейбанидов. XVI век. — М.: Наука. Главная редакция восточной литературы, 1992; Иванов П. П. Хозяйство Джуйбарских шейхов. К истории феодального землевладения в Средней Азии в XVI—XVII в., М.—Л., Изд-во АН СССР, 1954; Семёнов А.А. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени // Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. – Вып. II. – Сталинабад, 1954; Салахетдинова М. А. Неизвестный документ, составленный в связи с походом шейбанида Абдулла-хана II на Герат в 1578 г. // Письменные памятники и проблемы истории культуры народов Востока. XXII годичная научная сессия ЛО ИВ АН СССР (доклады и сообщения). 1988 г. Часть 1. М.: Наука, ГРВЛ, 1989; Ahmedov V. Tarixdan saboqlar. – T.: O'qituvchi, 1994; H.To'rayev. Buxoro xonligining XVI-XVII asrlar ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy hayotida Jo'ybor xojalarining tutgan o'rni. Tarix fan. dokt., diss. avtoreferati. T., 2007; G.Sultonova XVI asr ikkinchi yarmida Buxoro xonligining Qozoq va Yorkent xonliklari bilan aloqalari: Tarix fan. nomzodi. dissertatsiyasi. – T., 2005; Jumanazar A. Buxoro ta'lim tizimi tarixi. – T.: Akademnashr, 2017; G.Agzamova. XVI-XIX asrning birinchi yarmida O'zbekiston shaharlari va shaharlar hayoti. Tarix fan. dokt., dissertatsiyasi. – T., 2000; Muqimov Z. Qilich va qalam sohiblari. (Davlat arboblari haqida tarixiy

- lavhalar.) – Samarqand, 1996, 2008; Budak M. Osmanli-Ozbek siyasi münasebetlerinin başlaması // Avrasya Etudleri. – Ankara, 1996. – № 4.; Abdulkadir Macit. Şeybâni hanlığı (1500-1599). İstanbul, 2015.
2. Muhammadyor ibn Qatag'an. Musaxxir al-bilod / Fors tilidan tarjima, izohlar va ko'rsatkichlar mualliflari I.Bekjonov, D.Sangirova. – T.: Sharq, 2009.
 3. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. 1-kitob. / Fors tilidan S.Mirzayev tarjimasi, so'z boshi va izohlar muallifi B.Ahmedov. T.: Sharq, 1999.
 4. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. / Fors tilidan S.Mirzayev va Yu.Hakimjonov tarjimasi. Nashrga tay. B.Ahmedov. 2-kitob. – T.: Sharq, 2000.
 5. Abulg'oziy Bahodirxon. Shajarayi turk. / Nashrga tayyorlovchilar: Q.Munirov, Q.Mahmudov. T.: Cho'lpon, 1992.
 6. Zamonov A.T. Buxoro xonligida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar. T.: Turon-Iqbol, 2018.



Safaxon YO'LDASHEV,
Namangan davlat universiteti talabasi
E-mail: safoxonyuldashev@gmail.com

NamDU dotsenti, A.To'xtaboyev taqrizi asosisda

TAX REFORMS IN THE PERIOD OF TEMURI

Annotation

In this article, the reform of taxes during the Timurid era, the ruler used the system of regions and uluses to collect taxes, the land and water property attached to mosques, madrasas, houses, mausoleums and graves, the foundation of the property, the chief ruler's payment to large property owners for any of their services. The prevalence of labeling.

Key words: Timurids, Yasovuls, Chapovuls, Kalachists, Tarkhan label, emirs, beks, palace officials, Sayyids.

НАЛОГОВЫЕ РЕФОРМЫ В ПЕРИОД ТЭМУРИ

Аннотация

В данной статье рассмотрена реформа налогов в эпоху Тимуридов, правитель использовал систему регионов и улусов для сбора налогов, земельное и водное имущество, закрепленное за мечетями, медресе, домами, мавзолеями и могилами, фундаментом собственности, плата главного правителя крупным собственникам за любую их услугу. Распространенность маркировки.

Ключевые слова: Тимуриды, Ясовулы, Чаповулы, Калачисты, Тарханский ярлык, эмиры, беки, дворцовые чиновники, Сайиды.

TEMURIYLAR DAVRIDA SOLIQ ISLOHOTLARI

Annotsiya

Mazkur maqolada Temuriylar davrida soliq islohotlari, davlat hukmdorlari soliq to'plashning viloyatlar va uluslar tizimidan foydalanganligi, yer-suv mulki, masjid, madrasa, xonaqoh, maqbara va mozorlarga birlashtirilgan mulki vaqfni tashkil etganligi, yirik mulk egalari ularning biron xizmati uchun tarxonlik yorlig'i berish keng tarqalganligi xaqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Temuriylar, yasovullar, chapovullar, qalaqchilar, tarxonlik yorlig'i, amirlar, beklar, saroy amaldorlari, sayyidlar.

Kirish. Temuriylar hukmronligi davrida (1370-1507) faqat hukmron sulola vakillari, yirik harbiy arboblarga iqtisodiy egalari hisoblanganlar. Iqta sohibi, garchand asosiy soliqlardan ozod bo'lsada, xirojning bir qismini, ya'ni yer-mulkdan tushadigan daromadning ma'lum qismini davlat xazinasiga topshirishi zarur bo'lgan. Hatto bunday toifadagi kishilar qo'shni mamlakatlarga uyushtirilgan harbiy yurishlar vaqtida, darhol o'z qo'shinlari bilan xonga yordamga borishlari yoki uning ixtiyoriga ma'lum miqdorda qo'shin yuborishlari shart bo'lgan. Shu ham diqqatga sazovorki, o'rta osiyolik hukmdorlar chet ellardan kelib, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi katta yer egalari va sultonlarga ham ularning xizmatlarini inobatga olib iqtisodiy in'om etganlar. Demak, o'rta asrlarda iqtisodiy tizimi soliqlar to'lashdan birmuncha himoyalangan, ammo davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy maqsadlarida va xalq manfaatlariga yo'lida o'z mol-mulkining yoki daromadining bir qismini sarflovchi tizimning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, uning davlat xazinasini shakllantirishdagi o'rni katta bo'lgan.


Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XIV asr o'rtalarida barlos begi o'g'li Temur Tarag'ay buyuk siyosiy arbob sifatida tarix sahnasida namoyon bo'ladi. Nufuzli turk amiri Qozonxon (1332 – 1347)ning nabirasi, Balx, Hiyor Shodmon va Badaxshon viloyatlari hukmdori Husayn bilan ittifoqchilikda Temur Movarounnahrni birlashtirish va uni mo'g'ul bosqinidan ozod qilish uchun kurash boshlaydi, biroq ko'p o'tmay ular o'rtasidagi munosabatlar keskinlashadi.

1370-yili Amir Temur Husayn qo'shinini tor-mor qilgach, Movarounnahr amiri deb e'lon qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Turkiylarning barlos qabilasidan chiqqan Amir Temur (1336 – 1405 –yillarda yashagan) o'lkani mo'g'ullar hukmronligidan butkul ozod etadi. Yarim asr davomida u Kashmirdan O'rta dengizga, Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar cho'zilgan ulkan saltanatni barpo etadi.

Tahlil va natijalar. Ulkan yurish va istilolar uchun Amir Temurga juda katta moliya resurslari kerak edi. G'alabalardan qo'lga kiritilgan boyliklar va soliqlar harbiy yurishlarning asosiy manbai bo'lgan. Muarrif Sharafiddin Ali Yazdiy ta'biri bilan aytganda, Temur davlati mamlakatning u boshidan bu boshigacha bir bolakayni oltin va javoxiroto to'la patnis bilan jo'natganida ham biron-bir kishi boylikni tortib olishga qasd etmas darajasida yuksalgan. Sohibqiron Amir Temur Xitoydan – G'arbiy Yevropaga qadar savdo yo'lini yanada kengaytiradi. Bundan ko'rinadiki, Amir Temur iqtisodiy siyosatining bosh omili globallashuv bo'lgan.

Hukmdor soliq to'plashning viloyatlar va uluslar tizimidan foydalangan. Bunda barcha tushumlar markaziy davlat xazinasiga to'planmasdan mahalliy ma'muriy tuzilmalar ixtiyorida qoldirilgan. Mahalliy hokimiyatlarga soliq va boshqa tushumlardan o'zlarining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda foydalanish, natura tarzidagi molmulklarni esa o'z hoxish-irodalariga bog'liq tarzda taqsimlash vakolati berilgan.



Amir Temur solixlar fondini birinchi o'ringa qo'ygan, chunki mamlakatni boshqarishda solixlarning ahamiyati va tutgan o'rnini chuqur mulohaza qilgan. Shu sababdan ham solix munosabatlarining demokratik tamoyillarini rivojlantirishga harakat qilgan.

Amaldagi suyuq'ol va tarxon tizimiga ko'ra, har bir tuman, viloyatda solixlar uchun javobgar vazirlar faoliyat ko'rsatgan. Ular amirning moliya devoniga bo'ysunib, maxsus solix yig'uvchilarning to'plagan yig'imlarini davlat xazinasiga tushishini nazorat qilganlar.

Hokimiyat tepasiga kelgan dastlabki kezlarida Amir Temur mamlakatdagi siyosiy parokandalikni bartaraf etish uchun o'z egaligidagi mulklardan keladigan daromadlar hisobidan davlatning siyosiy mavqeini bir qadar mustahkamlab turgan. Solixlardan tushgan mablag'larni esa asosan infratuzilmani yaxshilashga sarflagan.

Amir Temur davridan ilgari ma'lum yo'nalishlarda chinakam ehtiyoj to'liq o'rganilmasdan xarajatlar chamalab berilar edi. Oqibatda ortib qolgan mablag'lar xazinaga qaytarilmasdan ko'plab anglashilmovchiliklarga sabab bo'lib kelgan. Temur xazina xarajatlarini me'yorlashtirish borasida ham islohotlarni amalga oshiradi.

Me'yorlar, birinchi galda, sipohiylar, lashkarboshilar va vazirliklarning lavozimli xizmatchilariga beriladigan ulufalarda o'z ifodasini topgan. Bunda, pullik normalar bilan birga moddiy normalar ham qo'llanila boshlangan.


"Temur tuzuklar"ida aytilishicha, "Amr qildimki, amirul umaroning maoshi o'z qo'l ostidagidan o'n barobar ortiq bo'lsin. Shunga o'xshash, devonbegi va vazirlarning

maoshlari amirlar maoshidan o'n barobar ko'p bo'lsin. Yasovullar, chapovullar, qalaqchilarning maoshlari o'z xizmatlariga yarasha mingdan to o'n ming tangagacha bo'lsin; ahli majlis bo'lgan sayyidlar, olimlar, fozil kishilar: hakimlar, tabiblar, munajjimlar, qissaxonlar, xabarchilar, tarixdonlarga o'z hollariga qarab, suyuq'ol, vazifa va maosh belgilasinlar. Piyodalar, xizmatchilar, farroshlarga yuzdan ming tangagacha maosh bersinlar".

Amir Temur devonida maxsus vazirliklar faoliyat olib borgan, ulardan uchinchi "Mulkchilik va solix ishlari devoni" (vazirlik) deb atalgan. To'rtinchisi ham moliya hamda xarajatlar tizimi bilan shug'ullangan vazirlik bo'lib, "Kirim-chiqimlar va xazinadan sarf qilinayotgan barcha xarajatlar hisobini olib boruvchi moliya vazirligi" deb atalgan.

Solix ishlari devoni turli sabablarga ko'ra egasiz qolgan molmulklarni nazoratga olish, savdogarlardan zakot va boj undirish, mamlakat chorvalari, o'tloq-yaylovlarni boshqarish, ularning barchasidan tushadigan daromadlarni saqlash, mulkchilik va merosxo'rlik tartiblarini yuritish kabi vazifalarni amalga oshirgan.

"Tuzuklar"da moliya vazirlariga tegishli diqqatga sazovor quyidagi jumlar uchraydi: "Moliya vazirlari moliya ishlarida xiyonat qilib o'zlashtirib olgan bo'lsalar, agar o'zlashtirib olgan mablag'i o'ziga tegishli ulufa (maosh) miqdoriga teng bo'lsa, mazkur mablag' unga sovg'a – in'om o'rnida berilsin. Agar o'zlashtirib olgan mablag'i maoshidan ikki baravar ortiq bo'lsa, ortig'i oladigan maoshidan ushlab qolinsin. Agar maoshidan uch baravar ko'p mablag' olingan bo'lsa, hammasi saltanat xazinasiga tortiq sifatida olinsin".



Dehqonchilik yerlarining eng katta qismi davlat mulki hisoblangan. Bu yerlarga, avvalgidek, mamlakat hukmdorlari sulton yoki amirlar egalik qilgan. Dehqonchilik maydonlarining ikkinchi katta qismi xususiy yerlardan iborat bo'lgan. Yirik mulkdorlarning katta yer maydonlari ham, mehnatkash ziroatchilarning mayda paykallari ham xususiy mulklar qatoriga kirgan. Mulk yerlarining katta qismi ma'muriy, harbiy va diniy arboblarning tasarrufida bo'lgan.


Davlat hukmdori tomonidan yirik mulk egalari uchun biron xizmati uchun tarxonlik yorlig'i berish keng tarqalgan. Tarxonlik yorlig'ini olgan mulkdorlar barcha solix, to'lov va majburiyatlardan ozod qilingan. Tarxonlik yorlig'i, odatda, amirlar, beklar, saroy amaldorlari, sayyidlar va boshqa yuqori tabaqa vakillariga berilgan. Tarxonlik yorliqlarini faqat lashkarboshilar va harbiy mansabdorlargina emas savdogarlar ham olishlari mumkin bo'lgan. Bunday yorliqni olgan mulkdor ismiga "tarxon" so'zi qo'shib aytilgan.

Temuriylar hukmronligining so'nggi davrlarida Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va boshqa viloyatlar dehqonlaridan hamda shahar aholisidan yig'iladigan davlat daromadlarining anchagina qismi tarxonlar qo'lida to'planib, Movarounnaxrda ular g'oyat katta kuchga aylangan edi.

Mamlakatning siyosiy hayotida tarxonlarning nufuzi kuchli bo'lib, ular juda katta siyosiy huquqdan foydalanar edilar. Hatto o'zaro nizolar vaqtda tarxonning qo'llab-quvvatlashi birorta viloyat hokimining taqdirini belgilashda ba'zan hal qiluvchi ahamiyat kasb etar edi.


Muhoakama. Amir Temur va temuriylar davrida unumdor yerlarning katta qismi mulki masjid, madrasa, xonaqoh, maqbara va mozorlarga birlashtirilgan mulki vaqfni tashkil etgan. Movarounnaxr va Xurosonda katta-katta dehqonchilik yerlari vaqf qilingan. Bu jarayon keyingi davrlarda ham davom etgan. Odatda, yer va suvdan tashqari, ko'plab do'kon, korxonalar, tegirmon, objuvoz, bozor, karvonsaroylar ham vaqf qilinib, ulardan tushgan daromad masjid, madrasa, shifoxona va xonaqohlarning ta'miri va jixoziga uchun, shuningdek, mutavalli, mudarris, tabib va talabalarga beriladigan nafaqalar hamda langarxona (musofirxona) va shifoxonalarning kundalik ehtiyoji (oziq-ovqat, yoqilg'i va yoritkichlari) uchun sarf etilgan.

XV asrda Movarounnaxr va Xurosonda yer egalari dehqonlar, ekin maydonlariga ishlov beruvchilar esa muzoriy (ziroatchilar) deb yuritilgan.



Amir Temur turmush tajribalari asosida ishlab chiqqan va uning hukmi bilan qonun darajasiga ko'tarilgan qoidalardan iborat to'plam tarixiy asarlarda turli tildagi tarjimalarga mos holda "Temur tuzuklari", "Tuzuki Temuriy", "Temurning

aytganlari", "Voqeoti Temuriy", "Amir Temurning boshidan kechirganlari", "Уложение Темура" deb yuritilgan. "Tuzuk" so'zi asli eski o'zbek tilida "qonun-qoidalar to'plami" yoki "nizom" kabi huquqshunoslikka oid ma'noni anglatgan.



"Tuzuklar" Temur saltanati, uning davlat tuzumi, boshqarilishi, sud qurilishiga oid juda muhim qoidalar va ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan, XIV asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy-siyosiy voqealarni o'rganishga oid tarixiy hujjatdir. Yuridik tilda aytganda, bu hujjat ma'muriy-siyosiy va harbiy kodeksdir. U ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi tarjimai hol xarakteriga ega. Bunda 150 yil davom etgan mo'g'ul-chig'atoy sulolasining istibdodidan qutulish, O'rta Osiyodagi markazlashgan davlatni tuzish bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy voqealar bayon etiladi.

Xulosa va takliflar. Temur soliq siyosatining asosiy qoidasi "Tuzuklar"da sohibqironning o'z farzandlariga qoldirgan siyosiy vasiyatida keltirilgan: "Soliqlarni yig'ishda xalqni soliqlar bilan ezib qo'yishdan yoki viloyatlarni xonavayron qilishdan ehtiyot bo'lish zarur. Zero, xalqning

xonavayron bo'lishi davlat xazinasining qashshoqlashishiga olib keladi, xazinaning nochorligi oqibatida esa harbiy kuchlar parokanda bo'lib, bu esa o'z navbatida hokimiyatni zaiflashtiradi". Temurning fikriga ko'ra, qonunni ishlab chiqishda, avvalo, xalqning manfaatlarini hisobga olish, uning to'lov qobiliyatidan kelib chiqish zarur. Har bir alohida xo'jalikda boy-badavlatlik darajasi soliqqa tortishga asos qilib olinishi kerak.

"Temur tuzuklari"da har qanday jamiyat uchun iqtisodiyot ustuvorligi ifodalanib, quyidagi xulosa berilgan: "Davlatu-saltanat uch narsa bilan: mulk, xazina va lashkar bilan bardamdir. Oqil vazir bularning har uchalasini yaxshi ahvolda saranjom tutadil. Bu xulosa ko'proq xazinaga taaluqlidir.

ADABIYOTLAR

1. Oblomurodov N., Tolipov F. O'zbekistonda soliqlar tarixi. – T.: Iqtisodiyot-Moliya, 2009. – 47 bet.
2. Мадрахимов З. Ш. Кўқон хонлигида савдо муносабатлари тарихи. – Тошкент: "YANGI NASHR", 2014. – 173 б.
3. Маманазаров А. Soliq siyosati. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya. 2003. – 150 bet.
4. Маманазаров А. Soliq siyosati. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya. 2003. – 150 b.
5. Маманазаров А. Soliq siyosati. O'quv qo'llanma – T.: Moliya. 2003. – 150 bet.
6. Базаров В.Б., Ванчикова Ц.П. Экономическая система монгольской империи. // Журнал. ВЛАСТЬ. 2015 г. – № 6.



UDK: 94:332.8 (575.1)

Shahzod LUHMONOV,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

O'zbekiston Milliy universiteti tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) Ozodbek Radjabov taqrizi asosida

MECHANISM OF FINANCIAL REFORMS IN 1920-1924: CHARACTERISTICS OF COOPERATION OF RUSSIA AND TURKESTAN

Annotation

This article presents the analytical aspects of financial reforms carried out in the territory of Russia at the end of the XIX century and the beginning of the XX century. In addition, the conditions of change of the currency ratio during the first monetary reform in the USSR period are revealed. This article serves as an additional resource to the research done so far.

Key words: "NEP", "kerenki", denomination, "chervan", Witte, "Podsho" currency.

МЕХАНИЗМ ФИНАНСОВЫХ РЕФОРМ В 1920-1924 ГГ.: ОСОБЕННОСТИ СОТРУДНИЧЕСТВА РОССИИ И ТУРКЕСТАНА

Аннотация

В статье представлены аналитические аспекты финансовых реформ, проводившихся на территории России в конце XIX – начале XX века. Кроме того, выявлены условия изменения валютного соотношения в ходе первой денежной реформы в период СССР. Эта статья служит дополнительным ресурсом к уже проведенным исследованиям.

Ключевые слова: «НЭП», «керенки», номинал, «чervан», Витте, валюта «Царство».

1920-1924-YILLARDA MOLIVAVIY ISLOHOTLAR MEXANIZMI: ROSSIYA VA TURKISTON HAMKORLIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Rossiya hududida amalga oshirilgan moliyaviy islohotlarning Turkiston hududida amalga oshirishda qiyinchiliklari, davr kesimida farqli jihatlarini, yaratilgan loyihalar oqibatida pulning qadrsizlanish hamda mustahkam emasligining davomiyligi tahliliy jihatlarini keltirilgan. Bundan tashqari SSSR davrida birinchi pul islohotining valyuta nisbatining o'zgarish sharoitlari ochib berilgan. Ushbu maqola shu paytgacha qilingan tadqiqotlarga qo'shimcha manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: "NEP", "kerenki", denominatsiya, "chervon", Vitte, "Podsho" pul birligi.

Kirish. Rossiya tarixining XX asr birinchi choragi butun jamiyatni chuqur o'zgartirish holati bilan tavsiflanadi, bunda iqtisodiy rivojlanishning yangi modellarini izlash, tarixiy rivojlanishning o'tish bosqichlariga xos bo'lgan moliyaviy va iqtisodiy o'zgarishlar ro'y beradi. Shu munosabat bilan RSFSR tarkibida bo'lgan, jumladan, Turkistonda ham jahon moliya tizimida to'planib qolgan muammolar tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy-ijtimoiy inqiroz sharoitida og'ir siyosiy vaziyatdan chiqishga urinish bo'lgan yangi iqtisodiy siyosat tajribasi sinab ko'rilgan bir davr sifatida baholangan. Yangi iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismlaridan biri 1922-1924-yillardagi moliya islohoti bo'ldi, uni amalga oshirish natijasida uzoq davom etgan inflyatsiyadan so'ng, mamlakatda pul muomalasi va o'zaro almashinuvga asoslangan yangi pul tizimi yaratildi. bank chervonets, g'azna qog'ozlari, shuningdek kumush va mis tangalar. Shubhasiz yutuqlar budget taqchilligining qisqarishi va keyinchalik yo'q qilinishi va ma'lum moliyaviy barqarorlik edi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. NEPni amalga oshirish yillarida yaratilgan pul tizimining o'ziga xosligi shundaki, u global moliya tizimining an'anaviy xususiyatlarini (rubl konvertatsiyasi) birlashtirishga urinishlarni aks ettirdi. 1895-1897 yillarda Moliya vaziri S. Yu. Vitte (1849-1915) rublning oltin monometalizmini (rublning oltinga qattiq bog'lanishini) rublning oltin standartini o'rnatgan yangi pul islohotini o'tkazdi. Pul islohoti har tomonlama tayyorlanib, bosqichma-bosqich, uch yil davomida bir necha bosqichda amalga oshirildi. 1897 yilga kelib, Rossiyada pul islohoti boshlanganda, rubl rasman to'rt fransuz frankiga teng edi,

lekin o'sha paytdagi moliya vaziri S. Yu. Vitte guvohlik berganidek, u aslida ikki yarim frankga teng edi. Yangi rubl devalvatsiyaga uchradi va bir frankning 2/3 qismiga teng bo'ldi (2,666). Bu holatda ikki valyutaning oltin tarkibi va sotib olish qiymatiga mos keldi. Umuman rublning belgilangan kursi saqlanib qoldi. Islohotchilarning fikricha, rublning barqaror konvertatsiyasini ta'minlash uchun kredit qog'ozlarini erkin ayirboshlash yo'lga qo'yilib, ularning muomalaga chiqarilishi bir qog'oz rubl kursi bo'yicha oltin tangalar bilan cheklandi. Pul islohoti davrida Davlat banki ichki manbalar va xorijiy xaridlardan foydalangan holda 1095,5 million rubl miqdorida oltin fondini yaratdi. 1914-yilda Birinchi jahon urushi boshlanishi bilan pulni oltinga almashtirish to'xtatildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning uslubiy asosini obyektivlik va tarixiylik prinsipi tashkil etadi. Shuningdek, maqoladagi ma'lumotlarni tahlil etishda statistik usuldan ham foydalanildi.

Tahlil va natijalar. 1914 yil avgustda jahon urushi boshlandi. Chor Rossiyasining moliyaviy ahvoli darhol keskin yomonlashdi. Katta xarajatlar natijasida hukumatni qog'oz pullarni ko'paytirishi inflyatsiya olib keldi. Har doimgidek bunday hollarda aholi avvaliga oltin, keyin kumush pullarni yashira boshladi. 1915 yilda hatto mis tanga ham yo'q bo'lib ketdi. Muomalada faqat qog'oz pullar qoldi. Xuddi shu yili oxirgi "podsho" rubli zarb qilingan[1]. 1917 yil oktyabr to'ntarishi rublga kattaroq zarba berdi. Davlat banki 1917-yil 25-oktabr (7-noyabr) kuni bolsheviklar tomonidan bosib olingan birinchi muassasalardan biri edi. Rossiya pul tizimi,

Davlat banki rahbariyati hech qanday kafolatlarsiz bolsheviklarni moliyalashtirishdan bosh tortdi.

Ammo 1917 yil noyabr oyining oxirida, uning barcha rahbarlari o'z lavozimlaridan chetlashtirilib, ishdan bo'shatilgandan so'ng, bolsheviklar o'zlarining "inqilobiy ehtiyojlari" uchun 5 million rubl ajratdilar. 1917 yil o'rtalarida yangi pullar paydo bo'ldi - bu "Kerenki" [2] edi. Ular gazeta o'lchamidagi kesilmagan varaqlarda ishlab chiqarilgan. Buni qalbakilashtirish oson edi va mamlakatda juda ko'p qalbaki pullar paydo bo'ldi. Ular bilan birgalikda muomaladagi pullar miqdori 1914 yilga nisbatan 84 barobar oshdi[3].

Pul tanqisligi viloyat shaharlaridagi sovet hokimiyatini o'z pul belgilarini chiqarishga majbur qildi. Bu Arxangelsk, Armavir, Boku, Verniy, Vladikavkaz, Yekaterinburg, Irkutsk, Qozon, Kaluga, Kashin, Kiyev, Odessa, Orenburg, Rostov-Don, Tiflis, Chita va Xabarovskda amalga oshirildi. Boshqa o'lkalarda Gruzziya, Turkiston va Kavkazortida pul bosildi. Obligatsiyalar, kredit qog'ozlari, cheklar va tangalar chiqarildi[4]. Qog'oz pul muomalasining kuchayishi mamlakat iqtisodiyotini butunlay izdan chiqardi. Rublning sotib olish qobiliyati pasayib ketdi, narxlar aql bovar qilmaydigan darajada oshdi. Kichik xaridlar uchun ular katta varaqlarda, kattaroqlari uchun esa sumkalarda to'lashdi.

Fuqarolar urushi tugagandan so'ng, pul muomalasi sohasidagi vaziyat halokatga yaqin edi, harbiy harakatlar davrida hukumat to'g'ridan-to'g'ri davlatning buyurtmalari va kartalari bilan tartibga solinadigan mudofaa xarajatlarini qoplash uchun foydalandi markaziy ma'muriy, xo'jalik va rejalashtirish organlari Xalq banki orqali sanoat va transportni moliyalashtirishni keraksiz qilib qo'ydi, hukumatning 1920-yil 19-noyabrdagi qarori asosida o'z faoliyatini to'xtatdi. Pul inqirozi Sovznak veksellarining keskin qadrsizlanishi va korxonalar va aholi o'rtasida mablag'larning yetishmasligi sharoitida bir vaqtning o'zida turli xil muomaladagi banknotalar, shuningdek, oltin tangalar va chet el valyutalari muomalada bo'lganligi bilan izohlanadi[5]. Inflyatsiya tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan bir sharoitda barcha korxonalar va muassasalar o'z xodimlarining ish haqini, hech bo'lmaganda, yashash minimumiga yaqinlashtirishga intilib, davlatdagi pul massasi haddan tashqari katta bo'lganligi sababli yanada og'irlashdi. Pul yetishmasligi va hududiy ehtiyojlar markaz tomonidan yetarli darajada moliyalashtirilganligi sababli korxonalar tizimli ravishda "mahsulotni isrof qilish", ya'ni ularni tannarxidan arzon sotish yoki xomashyoning keskin tanqis zaxiralarini sotishga yo'l qo'ya boshladilar.

SSSRda birinchi pul islohoti 1922-1924-yillarda amalga oshirildi. Sovet hukumati maxsus banknotalar - "chervon"larni chiqardi. Ular rublda emas, balki chervonda hisoblangan. Chervon inqilobdan oldingi o'nta oltin rublga teng edi. Bu oltin va boshqa davlat aktivlari bilan ta'minlangan qattiq, barqaror valyuta edi. Chervon pul tizimini mustahkamlash maslasida o'z ishini ishonchli bajardi. Keyinchalik kattaroqlari bor edi - 3, 5, 10, 25 va 50 chervonlar chiqarildi. Katta chervonlarda noqulayliklar bor edi, kichik pul va tangalar yetarli emas edi. 1923 yilda pul tizimini mustahkamlash uchun yana bir qadam tashlandi: yangi tashkil etilgan Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqining banknotalari muomalaga chiqarildi. Ushbu belgilarda 1 rubl 1922 yilgacha chiqarilgan 1 million rublga, 1922 yildagi 100 rublga teng edi[6].

Ish bir qator moliyaviy chora-tadbirlar natijasida 1920-yillarning o'rtalariga kelib, mamlakatda umumiy iqtisodiy asosini yagona va barqaror valyuta - rubl tashkil etgan izchil pul tizimi yaratilganligini ko'rsatadi, pul islohotining mazmuni eski pullarni yangilar bilan ibtidoiy almashtirishga qisqartirilmadi, sovnaki chervonetsning o'zgarishi tabiiy-ma'muriy taqsimot doirasida harakat qilgan pul tizimini bosqichma-bosqich almashtirish jarayonining

faqat tashqi shakli bo'lib, bozor tipidagi tizim bilan, moliyaviy islohot tufayli mamlakatda qat'iy valyuta va muvozanatli byudjet paydo bo'ldi, giperinflyatsiya bartaraf etildi, bu narxlarning barqarorlashishiga, savdoning rivojlanishiga va tovar-pulning kengayishiga yordam berdi. Shahar va qishloq o'rtasidagi munosabatlar. Yangi narsa - pul muomalasi islohotining muvaffaqiyatini ta'minlagan omillarning har tomonlama tahlili bo'lib, ular orasida NEP tomonidan rag'batlantirilgan milliy iqtisodiyotning jadal rivojlanishini alohida ta'kidlab o'tish kerakki, harbiy-kommunistik tuzilmaning tabiiy shakllarining yemirilishi, pulga bo'lgan yuqori talabni ta'minladi, bu esa yangi valyutaning tan olinishi va muomalaga kiritilishiga hissa qo'shdi. Shu o'rinda banknotlarni muomalaga puxtalik bilan kiritilganligi Davlat bankini isloh qilishda alohida o'rin tutganini ta'kidlab o'tish kerak. birinchi marta moliya islohotining xalq xo'jaligini rivojlantirishdagi oqibatlarini tahlil qilingan, muallif 1920-yillarning birinchi yarmida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish, ayirboshlash bo'yicha bozor sharoitlarida sezilarli yaxshilanish kuzatilganini qayd etadi. Sovznakda kurs yo'qotishlari to'xtadi, sanoat va qishloq xo'jaligi tovarlari uchun Pul tizimining barqarorlashuvi tufayli dehqonlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini erkin valyutada sotishdan kafolatlangan daromad bilan ta'minlandi.

Ish bir qator moliyaviy chora-tadbirlar natijasida 1920-yillarning o'rtalariga kelib, mamlakatda umumiy iqtisodiy asosini yagona va barqaror valyuta - rubl tashkil etgan izchil pul tizimi yaratilganligini ko'rsatadi, pul islohotining mazmuni eski pullarni yangilar bilan ibtidoiy almashtirishga qisqartirilmadi, sovnaki chervonetsning o'zgarishi tabiiy-ma'muriy taqsimot doirasida harakat qilgan pul tizimini bosqichma-bosqich almashtirish jarayonining faqat tashqi shakli bo'lib, bozor tipidagi tizim bilan, moliyaviy islohot tufayli mamlakatda qat'iy valyuta va muvozanatli byudjet paydo bo'ldi, giperinflyatsiya bartaraf etildi, bu narxlarning barqarorlashishiga, savdoning rivojlanishiga va tovar-pulning kengayishiga yordam berdi.

Yangi narsa - pul muomalasi islohotining muvaffaqiyatini ta'minlagan omillarning har tomonlama tahlili bo'lib, ular orasida NEP tomonidan rag'batlantirilgan milliy iqtisodiyotning jadal rivojlanishini alohida ta'kidlab o'tish kerakki, harbiy-kommunistik tuzilmaning tabiiy shakllarining yemirilishi, pulga bo'lgan yuqori talabni ta'minladi, bu esa yangi valyutaning tan olinishi va muomalaga kiritilishiga hissa qo'shdi. Shu o'rinda banknotlarni muomalaga puxtalik bilan kiritilganligi Davlat bankini isloh qilishda alohida o'rin tutganini ta'kidlab o'tish kerak. birinchi marta moliya islohotining xalq xo'jaligini rivojlantirishdagi oqibatlarini tahlil qilingan, muallif 1920-yillarning birinchi yarmida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish, ayirboshlash bo'yicha bozor sharoitlarida sezilarli yaxshilanish kuzatilganini qayd etadi.

Sovznakda kurs yo'qotishlari to'xtadi, sanoat va qishloq xo'jaligi tovarlari uchun Pul tizimining barqarorlashuvi tufayli dehqonlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini erkin valyutada sotishdan kafolatlangan daromad bilan ta'minlandi. oltin va kumush tangalarni kiritish bilan bir qatorda Davlat bankiga asosan oltin evaziga sotib olinadigan banknotlarni chiqarish huquqi berildi. Xalq Komissarlari Kengashining 1921-yil 4-oktabrdagi "Xalq Moliya Komissarligi tarkibida Davlat bankini tashkil etish to'g'risida" 1921-yil noyabrda V. I. Leninga "RSFSR pul tizimini isloh qilish to'g'risida" loyihasi Davlat banki boshqaruvi raisi A. L. Sheinmanning ko'rsatmasi bilan taqdim etildi. 1921-yilda sovet hukumatining moliyaviy tizimini saqlab qolish bo'yicha radikal chorasi banknotlarning nominal qiymatini o'zgartirish edi. Biroq, amalga oshirilgan operatsiya, shuningdek, kredit tizimini qayta tiklash ko'zlangan maqsadlarga erisha olmadi va adekvat xo'jalik hisobi va hisob-

kitoblarni soddalashtirish o'rniga, pul muomalasini yanada chalkashtirib yubordi.

1924 yilda davlat g'azna qog'ozlari 1, 3 va 5 rubl nominallarida chiqarildi. Bu butun SSSR uchun umumiy pul edi. Lekin eng muhimi, rublni oltin bilan hisoblashadigan bo'ldi. U inqilobdan oldingi oltin kabi 0,774234 gramm sof oltinga teng edi. Uning xarid qobiliyati oshdi. Sovet hukumati oltinni saqlaganligi sababli oltin rubl tangalar chiqarilmadi. Agar ular oltindan tanga zarb qilishni boshlasha, bu isrof bo'lar edi. Hukumat to'liq kumush rubl chiqardi. Uning xarid qobiliyati oltinga teng edi. 50, 20, 15 va

10 tiyinlik kumush tangalar paydo bo'ldi. 5, 3, 2 va 1 tiyinlik tangalar misdan qilingan.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Bugungi kunda O'zbekiston jamiyati oldida turgan eng dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalardan biri bu ichki bozorni davlat tomonidan tartibga solishning samarali mexanizmini yaratishdir, bu odamlarning davlatga, uning valyutasiga va uzoq muddatli majburiyatlariga bo'lgan ishonchini barqarorlashtirishning asosiy omillari hisoblanadi. 1990-yillar davomida mamlakat moliya tizimining beqarorligi oqibatlarini har bir fuqaro tomonidan his qilingan, bu Tiurkiston moliya tarixiga murojaat qilishning dolzarbligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR

1. Юровский Л.Н. Современные проблемы денежной политики. М, 1926
2. 1917-1919-yillarda RSFSR Davlat banki tomonidan chiqarilgan banknota nomi
3. Очередные вопросы финансовой политики Сб статей Вып 1-2 М, 1922, Денежное обращение и кредит в России и за границей Т 1 1914-1921// Труды секции по вопросам денежного обращения и кредита/Под ред С В Воронина и К Ф Шмела М 1922, Вопросы банковской политики М, 1922.
4. Кацеленбаум С «Денежное Обращение России 1914-1924» М, 1924.
5. Никологов С.Н. Денежная реформа В СССР (1922-1924) М, 1958г



UDK: 903.45:378(584.4)

Karimjon NASRILLOYEV,
O‘zMU Tarix fakulteti tayanch doktoranti.

Professor A.Zamonov taqrizi asosida

SCIENTIFIC AND CREATIVE ACTIVITIES OF ASHTARKHANI RULERS

Annotation

This article analyzes the scientific and creative activities of the Ashtar Khan rulers who ruled in the Bukhara Khanate. In this article, it is mainly emphasized that the Ashtarkhan rulers were directly engaged in Turkic fields: literature, art and medicine. Taking into account the political situation of the XVII-XVIII centuries, the development and progress of the scientific and creative environment was directly dependent on the scientific and creative activities of the rulers.

Key words: Ashtarkhanis, Subhanquli Khan, Abdulaziz Khan, Baqi Muhammad, Turdi Faroghi, Nishani, Dor us-shifa, Tibbi Subhani, Azizi, Maleho.

НАУЧНО-ТВОРЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПРАВИТЕЛЕЙ АШТАРХАНИДОВ

Аннотация

В данной статье анализируется научная и творческая деятельность правителей Аштар-хана, правивших в Бухарском ханстве. В данной статье главным образом подчеркивается, что правители Аштархана непосредственно занимались тюркскими сферами: литературой, искусством и медициной. Учитывая политическую ситуацию XVII-XVIII веков, развитие и прогресс научной и творческой среды находились в прямой зависимости от научной и творческой деятельности правителей.

Ключевые слова: Аштарханис, Субхангули-хан, Абдулазиз-хан, Баки Мухаммад, Турди Фароги, Нишани, Дор ус-шифа, Тибби Субхани, Азизи, Малехо.

ASHTARXONIY HUKMDORLARNING ILMIIY-IJODIY FAOLIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Buxoro xonligida hukmronlik qilgan ashtarxoniy hukmdorlarning ilmiy-ijodiy faoliyati tahliliy bayon etilgan. Ushbu maqolada asosan, ashtarxoniy hukmdorlarning turki sohalar: adabiyot, san'at va tibbiyot bilan bevosita shug'ullanganliklariga urg'u berilgan. XVII-XVIII asrlardagi siyosiy vaziyatni hisobga olganda, ilmiy-ijodiy muhitning rivojlanishi va qisman bo'lsa-da taraqqiy etishi bevosita hukmdorlarning ilmiy va ijodiy faoliyatiga ham bog'liq bo'ldi.

Kalit so'zlar: ashtarxoniyalar, Subhonqulixon, Abdulazizxon, Boqi Muhammad, Turdi Farog'iy, Nishoniy, Dor ush-shifo, Tibbi Subhoniy, Aziziy, Maleho.

Kirish. Bugungi kunda o'zbek xalqining ko'p ming yillik tarixi, madaniyati, milliy qadriyatlarini va urf odatlarini tiklash hamda o'zlikni anglash, xalqimizning boy ma'naviy merosini, ajdodlarimiz xotirasini tiklash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Tariximizdagi ko'plab shaxslarning faoliyati, ularning ilm-fan sohasidagi meroslari qayta o'rganilib, tahlil qilinib, nomlari tiklanmoqda. XVII asr boshlarida Buxoro xonligida hokimiyatga kelgan ashtarxoniyalar sulolasi davrida o'zaro ichki ziddiyatlar, tinimsiz urushlar va siyosiy parokandalik avj oladi. Bunday jarayonlar esa albatta, mana'viy-ma'rifiy va madaniy hayotga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi.

Shuningdek, bu davrda diniy mutaassiblik va ommaning diniy aqidalariga so'zsiz itoat etish talablarining kuchayishi ham ilm-fan rivojiga salbiy ta'sir o'tkazgan. Shunday bo'lishiga qaramasdan, murakkab diniy va siyosiy vaziyat ashtarxoniyalar davrida maorif, ilm-fan va madaniyat rivojini to'xtatib qola olmagan. Bu davr ilm-faniga Mahmud ibn Vali, Muhammad Sharif Buxoriy, Muhammad Yusuf Munshiy, Muhammad Amin Buxoriy, Muhammad Zamon Buxoriy Abdurahmon Tole kabi ilm fan namoyondalari bilan bir qatorda ashtarxoniy hukmdorlari ham ulkan hissa qo'shganlar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bu davr haqida yozilgan ilmiy tadqiqotlarni nisbiy ravishda ikki guruhga bo'lishimiz mumkin. Birinchisi, sovet davri tarixchilari

tadqiqotlari, ikkinchisi, mustaqillik davri tarixchilarining tadqiqotlari, uchinchi xoriy tadqiqotlari.

Ashtarxoniy hukmdorlari va ularning ilmiy-ijodiy haqida Sovet davrida amalga oshirilgan tadqiqotlarga A.A.Semyonov "Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени", В.А.Ахмедовning "Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв.", G.P.Matvievskaya, В.А.Rozenfeldlarning "Математики и астрономы мусульманского средневековья и их труды (VIII - XVII вв.)."

Mustaqillik davriga kelib ashtarxoniyalar davri tarixini o'rganish va tadqiq qilish yangi bosqichga ko'tarildi. Bular H.To'raevning "Buxoro xonligining XVI-XVII asrlar ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy hayotida Joybor xo'jalarining tutgan o'rni", Q.Rajabov va S.Inoyatovning "Buxoro tarixi", A. Jumanazarning "Buxoro ta'lim tizimi tarixi", D.Sangirovaning "Suhayl: Imomqulnoma", A.Zamonov va F.Subhonovlarning "Buxoro xonligining Ashtarxoniy hukmdorlari" kabi tadqiqotlar kiradi.

Chet davlatlarda olib borilgan ilmiy ish va tadqiqotlarga quyidagilarni misol qilish mumkin. Xususan, A.K.Alekseyevning "Политическая история Тукай-Тимуридов" asari, Tomas Welsfordning "The Tuqay-Temurid Takeover of Greater Ma Wara al-Nahr" asari, Zaytsevning "Астраханское ханство" asari, bundan tashqari J.M.Tulibayeva, Mehmet Saray, Selim Serkan Ukten,

T.I.Sultonovlarning ilmiy tadqiqotlari Buxoro xonligidagi ashtarxoniyalar haqida muhim ma'lumotlar beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini tarixiylik prinsipi tashkil etadi. Ushbu metodning o'ziga xos tomoni shundan iboratki, u faktik jihatdan materialga qat'iy bog'lanadi, tahlil qilinayotgan mavzu xronologik jihatdan ketma ketlikda bo'ladi, jarayonlar va hodisalar tizimli o'rganiladi. Shuningdek, tadqiqot ishida tarixiy-genetik metod, empirik tadqiqot metodlari, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tavsif, tushuntirish, umumlashtirish, tarixiy tizimli, qiyosiy tarixiy va retrospektiv tahlillar qo'llanildi.

Tahlil va natijalar. Dastlabki ashtarxoniy hukmdorlar Boqi Muhammad va Vali Muhammad davrlari o'zari urushlar, tashqi dushman tahdidlari va ularni bartaraf etish bilan o'tgan bo'lsa, Imomqulixon, Abdulazizxon va Subxonqulon davrlarida ilm ahliga e'tibor va homiylik yuqori darajaga chiqqan. Ushbu hukmdorlarning o'zlari ham ilmiy va ijodiy faoliyat bilan shug'ullanganlar.

Vali Muhammad vafot etgach 1611-yili taxtga Imomqulixon chiqadi. Uning davrida mamlakatdagi ijtimoiy, iqtisodiy barqarorlik haqida o'sha zamon muarrixlari ham yozib qoldirishgan. Masalan, Arminiy Vamberi o'zining "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi" asarida Imomqulixon hukmronligi davrida malakat aholisining ijtimoiy hayoti va turmush tarzi yaxshilanganligini, ilm ahliga xususan, ulamo va shoirlarga e'tibor kuchayganligini, shuning uchun ham bu davrda mamlakatda biror marta ham isyon ko'tarilmaganligini ta'kidlaydi [2].

1645-yili taxtga Abdulazizxon chiqadi. Manbalarda aytilishicha, uning davrida ma'naviy madaniy hayotda katta o'zgarishlar yuz bergan [3]. U har doim shoirlarga iltifotli, olimlarga hurmatli va tasavvuf kishilariga muruvvatli bo'lgan. U o'z davrining mashhur fiqhshunos olimlaridan biri mavlono Nasriddin Buxoriydan islom huquqshunosligi bo'yicha ta'lim olgan. Abdulazizxon ilm-fanni rivojlantirish maqsadida bir qator ijodiy ishlarni amalga oshirdi. Xususan, 1652-1654-yillarda Buxoroda 84 hujrali madrasa barpo ettiradi [4]. Bu madrasa 1417-yilda qurilgan Ulug'bek madrasasining qarshisida joylashgan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha Abdulazizxon ushbu madrasada zamonasining mashhur allomasi mavlono Muhammad Sharif al-Buxoriy al-A'laviydan tahsil olgan. Bundan tashqari, Abdulazizxon Registonning shimoliy qismida katta madrasa ham bunyod ettirgan. Bu madrasa hududi eski bozor o'rniga qurilganligi uchun "Madarasayi bozori gusfand" deb atalgan (mazkur madrasa 1930-1940-yillarda vayron qilingan) [5].

Abdulazizxon ilm-fan bilan shug'ullangan mashhur ashtarxoniy hukmdor hisoblanadi. Manbalarda ta'kidlanishicha u matematika sohasining yetuk bilimdoni bo'lgan. Polyak elchisi N.Vitsin bu haqida quyidagicha yozadi: "Abdulazizxon turli fan sohalarida, ayniqsa, matematika sohasida olim bo'lgan. Xon hatto adabiy ijod bilan ham shug'ullanib turgan" [6].

XVII asrda naqshbandiya tariqatining Hindistonda mujaddiya-naqshbandiya to'liqini paydo bo'ladi. Vaholangki, Abdulazizxon bu jarayonlardan xabardor edi va u hind mashoyixlari bilan aloqa bog'laydi. Abdulazizxon Buxoro xonligida ilm-fan va e'tiqodni rivojlantirish uchun So'fi Olloyorning ustozlari bo'lgan Hoji Muhammad Habibulloh al-Buxoriyni taklif qilgan va shu tariqa xonlikda mujaddidiya-naqshbandiya tariqati vujudga keladi [4]. Vengriyalik sayyoh va sharqshunos A.Vamberining yozishicha, Imom al-Buxoriyning asarlarini Abdulazizxon doimo yonida olib yurgan va ularni mutolaa qilishni yaxshi ko'rgan [1].

Abdulazizxon davrida xattolik san'ati ma'lum darajada ravnaq topgan bo'lib, mashhur xattotlar Buxoroda

faoliyat yuritgan. Saroy kutubxonasida ko'plab kitoblarni qayta ko'chirgan va turli qit'alar yozgan xattot Mavlono Hoji Yodgor Abdulazizxon topshirig'i bilan Hofiz Sheroziy devonini yetti yil mobaynida qunt bilan qayta ko'chiradi.

O'z davrining yetuk ma'lumotli kishisi bo'lgan Abdulazizxon nazm sohasida ham qobiliyatli bo'lgan. U "Aziziy" taxallusi bilan ijod qilgan va bir nechta go'zal masnaviy va she'rler muallifi hamdir [1]. Shoirlarga esa hurmati baland bo'lgan. Hattoki, bu davr haqida yozilgan manbalardan birida Abdulazizxonning shariat ahliga bo'lgan hurmati haqida shunday voqea uchraydi. Abdulazizxon zamonidagi bir shoir xonin semizligi haqida masxarali she'r yozgan. Bundan xabar topgan Abdulazizxon shoirni o'z huzuriga olib kelishni buyuradi. Bundan qo'rqib ketgan shoir xon meni o'ldirsa kerak degan hayolga boradi. Lekin Abdulazizxon shoirga: "Mening haqimda haqoratimuz she'r yozganingni eshitdim. Boshqalar haqida unday dema, yoqsa sening uchun og'ir bo'lur" [5] degan va shoirga 10 ming dinor hamda to'n berishga amr qilgan. Bundan ko'rinib turiptiki, Abdulazizxon ilm ahlini, xususan shoirlarni juda qattiq hurmat qilgan, ehtiromi baland bo'lgan.

U zamonasining eng sara allomalari nash va nastaliq xatlarida yozishni o'rgangan. U hukmdor bo'lganidan keyin boshqa davlat hukmdorlariga ba'zan turkiyda, ba'zan forsiyda nomalar bitib, ularni o'zi taxrir qilgan. Agar nomalar unga yoqmasa shaxsan o'zi qaytadan yozish holatlari ham bo'lgan. Bu esa uning maktubot va insho ishlaridan yaxshigina xabardor bo'lganligini ko'rsatadi [2].

Subhonqulixon (1681-1702) ashtarxoniy hukmdorlar orasida o'zining ma'rifatliligi, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanganligi va ilm bilan shug'ullanuvchilarga homiylik qilganligi bilan ajralib turadi. Ma'lumotlarga qaraganda, Subhonqulixon davriga kelib ilm-fan taraqqiyotida katta o'zgarishlar ro'y bergan. Subhonqulixon qobiliyatli hukmdor bo'lib, u tibbiyotdan, astronomiya va she'riyatdan xabari bor shaxs edi. Subhonqulixon tibbiyot ilmini haqiqatdan ham yaxshi bilgan, tibbiyot ilmiga oid asarlar ham yaratgan. Xususan, uning tibbiyotga oid ikkita asari mavzud. Birinchisi asari turkiy (o'zbek tili) da yozilgan bo'lib, "Tibbi Subhoni" deb ataladi [8]. Bu asarda turli xil kasalliklarni aniqlash va davolash usullari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Subhonqulixonning bu asari shu darajada ahamiyatli ediki, hatto bu asar o'sha davr hakimlari uchun yirik qo'llama bo'lib xizmat qilgan. Uning ikkinchi asari 8 qismdan iborat bo'lib, "Subhonning hayotbaxsh tibbiyoti" deb nomlangan. Bu asar ham tabobat sohasidagi muhim asarlardan biri hisoblanadi. Jumladan, uning har bir qismida dorilarning sifatli tayyorlanishi va ishlatilishiga oid masalalar yoritilgan. Shuningdek, asarda insonning sog'ligi uchun foydali bo'lgan o'simliklar haqida ham to'xtalib o'tilgan [9].

Bu ikkala asar chindan ham o'z davrining mukammal yozilgan asarlari hisoblanadi. Sababi bu asarlar bir-biri bilan uzviy bog'liq. Birinchisida kasalliklarning kelib chiqish sabablari va ularni davolash usullari haqida ma'lumot berilsa, ikkinchisida davolashda qo'llaniladigan dorivor o'simliklar va ulardan tayyorlanadigan dorilar haqida yozilgan. Subhonqulixon bu asarlarni yozishda faqatgina asarning mukammalligiga emas, balki uning yozilish tiliga ham alohida e'tibor qaratgan. Xususan, u o'z asarlari haqida shunday degan edi: "O'tmishdagi tabiblar bizgacha arab va fors tillarda yozilgan asarlarni qoldirishgan, men turk (o'zbek) tilida yozilgan tibbiy kitob uchratmadim. Mahalliy aholi arab va fors tilida yozilgan kitoblardan foydalana olmaydi. Shuning uchun men o'z kitoblarimni turk (o'zbek) tilida yozdimki undan o'zimizning odamlar foydalansinlar" [9].

Bundan ko'rinib turibdiki, Subhonqulixonning tibbiyot sohasidagi bu asarlari nafaqat ilmiyligi jihatdan, balki

o'sha davr ishonlari uchun tushunarli bo'lgan va dastlabki turkiy tilda yozilgan tibbiy asar sifatida ham ahamiyatlidir.

Subhonqulixon asarlarining ahamiyatli tomonini yana ochib berish uchun ba'zi tadqiqotchilarning asarlariga murojaat qilamiz. Masalan, Akbar Zamonov o'zining "Buxoro xonligining ashtarxoniy hukmdorlari" nomli kitobida Subhonqulixon amaliyotda insonlarni davolash chora tadbirlari to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Xususan, unda aytilishicha, "Yozgi ich ketishini oldini olish bo'yicha Subhonqulixon shunday farmon chiqardiki, xonlikka qarashli hamma hududlarda yoz faslida barcha novvoylarga yopiladigan non yuziga kunjut urug'ini sepishni buyurgan. Bu chora chindan ham yozgi ich ketishni kamaytirgan, chunki kunjut ichni to'xtatish hususiyatiga ega, o'zi esa xushbo'ydir. Xon farmoni bilan boshlangan bu tadbir keyinchalik odat tusiga aylangan va hozir ham mahalliy novvoylar nonlar yuziga kunjut sepib yopadilar" [5].

Subhonqulixon davrida Buxoro xonligida chindan ham tibbiy ilmlarni oldinga siljiganini ko'rishimiz mumkin. Uning davrida mamlakatda tibbiy bilimning rivojlanishi va chuqur bilimli hakimlarning yetishib chiqishiga alohida e'tibor berilgan. U xalqni sog'lomlashtirish, kasalliklarni kamaytirish, yuqumli kasalliklarni tarqalib ketishining oldini olish kabilarni shaxsan o'zi nazorat qilgani haqida malumotlar uchraydi. Shuningdek, Subhonqulixon davrida aholini davolashni yo'lga qo'yish maqsadida maxsus shifoxonalar ham qurilgan. Usmon Qoraboev va G'ayrat Soatovlarning "O'zbekiston madaniyati tarixi" nomli kitobida Subhonqulixon turli xil kasalliklarni davolash maqsadida 1697-yilda Buxorada 2 qavatli 18 hujradan iborat "Dor ush-shifo" nomli madrasa-kasalxona qurdirganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Kasalxona qoshida tashxisxona, dorixona, kutubxona va boshqa yordamchi binolar bo'lgan. Dor ush-shifo harajatlariga vaqf mulklaridan keladigan 40 ming tanga miqdorda pul ham ajratilgan.

Ma'lumotlarga qaraganda, madrasada o'qiydigan talabalarga vaqf mulkidan keladigan daromad evaziga stipendiya ham berilgan. Ashtarxoniy davrida qurilgan bu madrasa boshqalaridan farq qilgan. Sababi unda faqat tibbiyot ilmi o'qitilgan. Lekin u yerda ta'lim oluvchi talabalarga ularni qanoatlantiradigan darajada ma'lumot berilgan deyish qiyin. Chunki, XVI-XVIII asrlarga oid Buxoro xonligidagi tibbiyot sohasining rivojlanish darajasi batafsil yoritilgan ilmiy tadqiqotlarda ham bu haqida batafsil ma'lumot berilmagan [10].

Shuningdek, Subhonqulixon o'z saroyida tabiblarni yig'ib tabobat borasida ilmiy anjumanlar tashkil etib turgan, bu anjumanlarda o'sha davrda keng tarqalgan kasalliklar va ularni bartaraf etish yo'llari, tabobatga oid yangiliklar bo'yicha fikrlar almashilgan [9]. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Subhonqulixon nafaqat o'z davrining kuchli hukmdori, balki yetuk hakimi bo'lganligini ham ko'rishimiz mumkin.

Subhonqulixon faqatgina tibbiyot ilmi bilan shug'ullanibgina qolmasdan, balki boshqa fanlarga ham e'tiborini qaratgan. Masalan, u ilmi nujum (astronomiya) bilan ham shug'illangan. Uning astronomiyaga oid "Lub-lavoih al-qamar fil-ixtiyorat" (Oy nurining ixtiyorat uchun mohiyati) asari mavjud [13]. Subhonqulixon bu asarini o'zidan oldin o'tgan astronom olimlarni malumotlariga asoslangan holda

yo'zgan. Shu bilan bir qatorda u adabiy soha bilan ham shug'ullangan. Masalan, Subhonqulixon "Nishoniy" taxallusi bilan bir qancha asarlar yozgan [13]. "Ayn at-tavorix" (Tarixlar chashmasi) asarining muallifi Xoji Abdulazim Sharif (1889-1890) Subhonqulixonning adabiy ilmiy faoliyatiga yuqori baho berib shunday yozgan edi: "Tib ilmida tengi yo'q edilar. Chunonchi, Tibbi Suboniy buning qat'iy dalilidir. She'rga tabi baland edi. "Nishoniy" ni taxallus qilgan edilar".

Yuqoridagi jumladan ko'rinib turibdiki, Subhonqulixon saroy adabiy muhitini shakllantirgan va unda ham o'z o'rniga ega hukmdor bo'lgan. Quyidagi ma'lumotlar ham yuqoridagi fikrimizni isboti hisoblanadi. Manbalarning guvohlik berishicha, Subhonqulixon saroyda adabiy kechalar o'tkazib turgan. Masalan, "Maleho" taxallusi bilan mashhur bo'lgan Samarqandlik shoir Muhammad Bade ibn Muhammad Sharifning yozishicha, shu vaqtlarda saroyda 150 ga yaqin shoir bo'lgan [7].

Subhonqulixon ilm-fan va ilmiy ijod bilan shug'ullanuvchi olimlarning homiysi bo'lgan. Shuning uchun ham saroy shoirlari Subhonqulixon hukmdorligini yuqori baholab unga atab g'azallar va asarlar yozishgan. Shu bilan birga Subhonqulixon faoliyatini salbiy baholagan shoirlar ham bo'lgan. Shulardan biri Buxoroning yuz urug'idan bo'lgan Turdi edi. U o'zining hajviy she'rlari orqali Buxoroning XVII asr 80-yillaridagi hayotini bayon qilgan. Shoir saroydagi Qirg, Yuz, Ming, Jaloyir, Qipchoq, Nayman va Kenagas kabi urug' boshliqlari mansab va martaba uchun urush janjal qo'zg'atib, xalq boshiga turli-tuman uqubatlar solganini yozadi. Turdi Farog'iy Subhonqulixon va uning amaldorlarining kirdikorlarini, ularning ma'naviy qiyofasini fosh etish maqsadida 1691-yilda 165 misradan iborat satira yozgan [12]. Unda shoir Subhonqulixon hukmdorligi davrida zulmzo'ravonlikning yanada avj olganini, uning saroyida nizo-advat, amaldorlarning o'zboshimchaligi, poraxo'rlik, munofqlik kuchayganligini tasvirlaydi. Turdi Farog'iy Subhonqulixon va uning amaldorlarini tanqid qilgan ekan, shaxsiy g'arazi doirasida qolib ketmaydi, balki Subhonqulixon hukmdorligining dahshatli manzara va oqibatlarini obektivroq tasvirlashga harakat qilgan.

Shuningdek, Subhonqulixon folga oid "Ramali Subhoniy" nomli asar ham yozgan. Uning farmoniga binoan "Fatovoiy Subxoniy" nomli fatvolar to'plami ham ishlab chiqilgan [13].

Xulosa va takliflar. XVII asr boshlarida Buxoro xonligida hokimiyatga kelgan ashtarxoniy sulolasi davrida o'zaro ichki ziddiyatlar, tinimsiz urushlar va siyosiy parokandalik avj oladi. Bunday jarayonlar esa albatta, manaviy-ma'rifiy va madaniy hayotga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, ashtarxoniy hukmdorlar ilm-fan va madaniyat sohalarining rivoji uchun homiylik qilganlar. Nafaqat homiylik, balki o'zlari ham ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug'ullanganlar. Buni Subhonqulixon, Abdulazizxon, Imomqulixon va boshqa ashtarxoniy misolida ko'rib chiqdik. Xulosa qilib aytganda, XVII-XVIII asrlardagi siyosiy vaziyatni hisobga olganda, ilmiy-ijodiy muhitning rivojlanishi va qisman bo'lsa-da taraqqiy etishi bevosita hukmdorlar siyosatiga bog'liq. Ayniqsa, adabiyot va tibbiyot sohalarining rivojida ashtarxoniy hukmdorlarning roli va hissi beqiyos.

ADABIYOTLAR

1. Armiy Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. Ikkinchi jild / Rus tilidan tarjima va izohlar muallifi Sirojiddin Ahmad. - T.: Info capital group, 2019. - 117 b.
2. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchilig tarixi. - T.: Sharq, 2001. - 272 b.
3. To'rayev H. Buxoro xonligining XVI-XVII asrlar ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy hayotida Jo'ybor Xojalarining tutgan o'rni. - T., 2007. - 143-144 b.
4. Jumanazar A. Buxoro ta'lim tizimi tarixi. - T.: Akademnashr, 2017. - 147 b.

5. Zamonov A., Subxonov F. Buxoro xonligining Ashtarxoniy hukmdorlari. –Toshkent: BAYOZ, 2021. – 73 b.
6. Витсен Н. Северная и Восточная Тартария, включающая области, расположенные в северной и восточной частях Европы и Азии. / Николаас Витсен; пер. с гол. яз. В.Г.Трисман; ред. и науч. рук. Н.П.Копанева, Б.Наарден – Амстердам: Pegasus, 2010. – 186 с.
7. Muhammad Amin Buxoriy. Muhit at-tavorix. Tarjima, kirish va izohlar muallifi D.Y. Yusupova va U. Hamroyev. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. Fan nashriyoti davlat korxonasi. – Toshkent: 2020. – 8 b.
8. Qodirov A.A. Tibbiyot tarixi. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti – Toshkent: 2005. – 145 b.
9. Usmon Qoraboyev, G'ayrat Soatov. O'zbekiston madaniyati tarixi. O'quv qo'llanma. Tafakkur bo'stoni. –Toshkent: 2011. – 103 b.
10. Абдусаттор Жуманазар. Бухоро хонлиги таълим тизими тарихи. – Т.: Академнашр, 2017. – 221 б.
11. Muhammad Amin Buxoriy. Muhit at-tavorix. Tarjima, kirish va izohlar muallifi D.Y. Yusupova va U. Hamroyev. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. Fan nashriyoti davlat korxonasi. – Toshkent: 2020. – 8 b.
12. Abdullayev V. A. O'zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob. (XVII asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha). Ikkinchi nashr. "O'qituvchi" nashriyoti Toshkent-1967. – 50 b.
13. Ирисова А., Носиров А., Низомиллинов И. Ўрта Осиёлик кирк олим. – Т.: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси нашрети, 1961. – 93 б.



UDK: 391.928

Nodira RADJABOVA,
BuxDU tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD
E-mail: nodira545@gmail.com

T.f.d, professor Sh.Hayitov taqrizi asosida

BXSRDA MUSIQA TA'LIMI VA QO'SHIQCHILIK SAN'ATI

Аннотация

Ushbu maqolada Buxoroda musiqa ta'limi va qo'shiqchilik san'ati rivojini, milliy musiqa durdonalarini asrab avaylab, kelajak avlodga yetkazishda o'z hissasini qo'shgan adib va san'atkorlar xizmati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Teatr, musiqa, rejissyor, "Yetimxon", Ovro'pa, Sharq, milliy, ohang, talant, p'esa, teatr truppasi, artist.

МУЗЫКАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ИСКУССТВО ПЕНИЯ В БССР

Аннотация

В этой статье рассматривается заслуга писателей и деятелей искусства, которые внесли свой вклад в развитие музыкального образования и певческого искусства в Бухаре, сохраняя шедевры национальной музыки и передавая их будущим поколениям.

Ключевые слова. Театр, музыка, режиссер, "Yetimxon", Европа, Восток, национальный, мелодия, талант, пьеса, театральная группа, артист.

MUSICAL EDUCATION AND THE ART OF SINGING IN THE BSSR

Annotation

This article reflects on the service of writers and artists who contributed to the development of music education and singing art in Bukhara, preserved national musical masterpieces and passed them on to the next generation.

Key words. Theatre, music, director, "Yetimkhan", Europe, East, national, melody, talent, play, theatrical troupe, artist.

Kirish. Ma'lumki, BXSR hukumati davrida Turkiston o'lkasida madaniyat, maorif, fan hamda san'at rivojida muhim siljishlar ro'y berdi. Yurtimizning ilg'or ziyolilari o'lkani zamonaviylashtirish, dunyoning taraqqiy qilgan mamlakatlari darajasiga olib chiqish maqsadida o'zlaridagi kuch-quvvatni, bilim va tajribani imkon qadar ishga soldilar. Xalqimizning ota-bobolaridan meros bo'lib qolgan milliy his-tuyg'u va qadriyatlar bilan yo'g'rilgan dostonchilik, qo'shiqchilik san'atini yangi ruh bilan boyitish, yangidan-yangi qo'shiq va kuylar ijod qilish yo'lida ham xayrli ishlar amalga oshirildi. Umuman Sharq musiqasi va unda salmoqli mavqega ega bo'lgan o'zbek milliy musiqa san'ati ozodlik va istiqloлга chorlovchi milliy jihatlari bilan sayqal topdi.

Buxoro shahrida 1922-yilda muallimlar tayyorlov kurslari (uch oylik, olti oylik) tashkil etilib, ularda sobiq amirlik zamonida mudarrislik qilganlardan ham foydalanildi. O'sha yili muallimlar tayyorlash kursida 52 nafar talaba imtihondan o'tib, Buxorodan tashqariga shulardan 4 nafari Karkiga, 2 nafari Qorako'lga, 3 nafari Qarshiga yuborilgan. Qarshiga yuborilgan 3 nafar muallimdan 2 nafari musiqa muallimi bo'lgan [1].

1922-1923-o'quv yilida Respublikada 60 ta boshlang'ich, ixtisoslangan, o'rta maktablar bo'lsa, 1923-1924-o'quv yilida 90 ta o'quv yurti bo'lgan. Shulardan 7 ta musiqa maktabi ham faoliyat yuritgan[2].

1923-yilda Buxoro shahrida Farobiy nomida musiqa konservatoriyasi ochilgan. 1923-1924-o'quv yilida ushbu konservatoriyada 75 ta o'quvchi tahsil oldi. O'quvchilarning 55 foizi o'zbek, 25 foizi tojik, 12 foizi tatar, 6 foizi Buxoro yahudiylari, 2 foizi yevropalik aholi vakillarining farzandlari edi. Konservatoriyada Respublika maktablari uchun musiqachilar va musiqa o'qituvchilari tayyorlangan[3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Buxoroda teatr va musiqa san'atini yuqori darajada yo'lga qo'yish uchun

mashhur rejissyor Abdumannon Uyg'ur (1897-1957) ham Buxoroga taklif etilib, 1921-1922- yillarda bir muddat teatrlarning bosh rejissyori sifatida faoliyat olib borgandi.

"Buxoronoma" gazetasining o'tmishdoshi bo'lgan "Buxoro axbori" (1920-1923) va "Ozod Buxoro" (1923-1925) gazetalarini varaqlar ekanmiz, ularda 1920 - yillar davomida turkistonlik mashhur artistlar, qo'shiqchilar Buxoroga gastrolga kelib, bir qator konsertlar berganliklaridan voqif bo'lamiz. "Ozod Buxoro" ning 1924- yil aprel oyidagi uchta sonida "Ashulachi Qori Yoqubov keldi"(Ozod Buxoro, 73-son, 1924- yil 9-aprel); "Ashulachi Qori Yoqubov konserti"(77-son, 1924-yil 16-aprel) xabarlar va "Buyuk konsert" (82-son; 1924- yil 27-aprel) nomli salmoqli maqola mavjud. Ushbu xabarlar va maqola matni bilan tanishar ekanmiz, o'z davrining mashhur xalq hofizi bo'lgan Muhiddin Qori Yoqubov Buxoroda konsert tomoshalari qo'rganligi haqida ma'lumotga ega bo'lamiz. Ma'lumki, Muhiddin Qori Yoqubov 1916- yildayoq Farg'onada milliy musiqa sozlari orkestrini tuzgandi. 1920-yillarga qadar u qo'shiqchilik san'atida tajriba orttirgan, ayni paytda xalq orasida yuqori obro'-e'tiborga ega edi.

Shuning uchun "Ozod Buxoro": "Mashhur o'zbek ashulachilaridan o'rtoq Qori Yoqubov shahrimizda musofirdur. O'rtoq Yoqubov o'tgan yili (1923-yilda) Buxoroga kelib xalq ashularini o'zgacha maxsus mahorat bilan ijro qilishi orqasida shuhrat qozonib ketgan edi. Hozirgi kelishida ham bir necha konsert qo'yishga o'ylanadur" – tarzidagi xabarni bosgan. Yuqoridagi xabardan ayon bo'ladiki, Muhiddin Qori Yoqubov 1924-yilda konsert qo'yish uchun Buxoroga ikkinchi bor kelgan.

Gazetadagi ikkinchi xabarda esa san'atkorning konsert tomoshasi Buxoro shahridagi "Fayzulla Xo'ja" nomli klubda bir necha kun davom etishi qayd qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. “Buyuk Konsert” maqolasini “Ozod Buxoro” ning faol muxbirlaridan biri, oldinroq “Buxoro axbori”da bir muddat muharrirlik ham qilgan Ziyo Usmoniy yozgan. Aftidan Ziyo Usmoniy Muhiddin Qori Yoqubov shaxsiyati, uning hayot yo‘li va sermahsul ijodidan yaxshigina xabardor bo‘lgan. U M.Q.Yoqubovning 1920-1922-yillarda Turkiston o‘lkasi bo‘ylab uyushtirgan konsert gastrollarida bir necha bor ishtirok etgan. Qo‘shiqchining Moskva konservatoriyasi tahsilidan keyin mahorat va talanti yanada yuksaklikka ko‘tarilganligi haqida muallif: “Maskovga borib konservatoriyada o‘qig‘ondan so‘ng, ovozlari faqat tomoq va burundan tashqari ko‘krakdan chiqara boshlag‘on. Uning shu tovushi, shu kuy, shu mung, shu ohang bilan ashula aytishi tabiiy holatda juda yaxshidir” – deb yozgan.

Muhiddin Qori Yoqubovning 1924- yil 25- apreldagi konsertida Buxorodagi yevropalik aholi hamda mahalliy xalq vakillari tomoshabin va tinglovchi edilar. Biroq, konsert muborak ramazon oyi kunlariga to‘g‘ri kelganligi, dehqonchilik ishlari dalalarda avj olgan bir paytda bo‘lganligi tufayli mahalliy xalq vakillari oz bo‘lgan. Shunga qaramay M.Q.Yoqubov qo‘shiqlari diqqat va e‘tibor bilan tinglanib, uzoq davom etadigan qarsaklar bilan olqishlangan. Ziyo Usmoniy Muhiddin Qori Yoqubovdagi sharqona ohang, qo‘shiqlarga tanlangan muzikalardagi milliy ruh, mung, ohanrabonlikni obrazli tasvirlagan.

Ayon bo‘lishicha, 1920- yillarda Muhiddin Qori Yoqubovni Angliya va Italiya singari mamlakatlardagi konservatoriyalarga borib, Sharq va Evropa uslublaridagi qo‘shiqlar o‘rganib qaytishi haqida gap-so‘zlar tarqalganda, buxorolik jurnalist bu holat amalga ohsa Muhiddin Qori Yoqubovga shuhrat olib kelmaydi, deb hisoblaydi.

“Kuy, musiqa professorlari o‘rtiq Muhiddin Qorining faqat tomoqdangina chiqqan shuncha buyuk va go‘zal tovushiga hayron qoladur edilar va u professorlar Qori o‘rtiqning Angliya va Italiyaga borib, Sharq xalqlariga xos kuy, mung, ohanglarni yo‘qotilishini xohlamaydurlar”- kabi fikrlar bildirilgan.

Muhiddin Qori Yoqubovdagi beqiyos va takrorlanmas talant konsertda hozir bo‘lgan Ziyo Usmoniy shu qadar ta‘sirlantirganki, u maqola so‘ngida: “Sening tovushingni isloh qilish kerak emas. Shu tovush o‘zi ham bo‘ladur. Agarda sen Italiya konservatoriyasida o‘qib chiqsang u vaqtda sen Sharq ashulachisi, Sharq bulbuli bo‘lmasan, balki Italiya va Ovropa bulbuli bo‘lursan!!!” – kabi o‘ta ehtirosli fikrlarni yozadi. Tariximiz haqida fikr yuritir ekanmiz, bugungi istiqlolning farahbaxsh kunlarida Respublikamizda qo‘shiqchilik san‘ati yuksaklikka ko‘tarilayotganligi, Muhiddin Qori Yoqubovga munosib talantlar ona yurtimiz Buxoroda ham yetishib chiqayotganligi, o‘zbek musiqasi va qo‘shiqchilik san‘ati esa dunyoni lol qoldirayotganligi qalblarimizni g‘ururga to‘ldiradi.

Tahlil va natijalar. Tarixiy ma‘lumotlarda keltirilishicha, 1910-yilda ya‘ni amirlik davridayoq Buxoroda Sharq dunyosida mashhur bo‘lgan qo‘shiqchi va maqom ijrochilarining konsert tomoshalari uyushtirib turilgan.

Yangi Buxoro (Kogon)da 1911-1912-yillarda fors-tojik tilida bosilgan Buxoroi Sharif gazetasining 26-sonidagi o‘zbek tilida berilgan e‘londa Moskva, Qozon, Orenburg, Toshkent, Qo‘qon, Andijon shaharlarida konsert gostrollari o‘tkazgan, xushovoz maqomlarni baland pardada ijro eta olgan xonanda Kamol afandi Al-Murishiy haqida ma‘lumot berilgan. Al-Murishiy 1912- yilning aprel oyi boshlarida Buxoroga gostrolga kelib, uning konserti shahardagi Turkiston kinomotografiya zalida o‘tkazilgan. Konsertda ishtirok, etuvchilar uchun chipta bahosi 60 tiyindan 90 tiyingacha, lojalarda oilaviy o‘tirib tomosha qiluvchilarga esa 4 so‘m qilib belgilangan. Hatto, chiptalar sotiladigan joylar haqida ham

e‘lon berilgan [5] Kamol Afandi al-Murishiyning konsertida musiqa orkestri va kartinalar namoyishi ham o‘tkazilgan. Konsert tomoshasi tushdan keyin soat 16⁰⁰ da boshlanib: “Mashhur musulmoniya maqomlariga tomoshabinlar xushxonlik qilishlari, xushmaqom va xushovoz hofiz tomoshasiga kelib kishilarimiz lazzatlansalar kerak[6]” degan fikrlar gazeta sahifasidan o‘rin olgan.

Biroq “Buxoroi Sharif” (1912-1913 - yillarda gazetaning 153 ta soni bosilgan) va “Turon” (ushbu gazetaning 49 ta soni o‘zbek tilida bosilgan) bilan tanishilganda konsertlar va musiqa madaniyati tarixiga tegishli ma‘lumotlar ahyon-ahyonda berilganiga guvoh bo‘lindi.

BXSR hukumati yillarida Buxoroda taniqli adib, teatr va san‘at ustasi Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929-yillar), Yusufjon Qiziq Shakarjonov, boshqird qo‘shiqchisi Aziz Alhamid (Almahmud), tatar musiqachisi Saydashev, taniqli teatr rejissyori Abdumannon Uyg‘ur kabilar ham faoliyat yuritdilar. Yosh Respublikada teatr truppalari va konsert guruhlari tashkil etish uchun adib va dramaturg Hamza Hakimzoda Niyoziy tavsiya etgan loyihadan foydalanilgan. Hamza Hakimzoda Niyoziy bu borada katta tajribaga ega bo‘lib, 1921- yil 20- iyuldayoq Qo‘qon shahrida “Qo‘qon artistlar to‘garagi”ga asos solgandi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy 1921-yil mart oyida Buxoroga tashrif buyurib, maorif va harbiy targ‘ibot-tashviqot sho‘balari qoshida teatr truppasini tashkil etdi, 1921-yil dekabriga qadar Buxoroda bo‘ldi. U Buxoro teatr truppalari bilan bir necha bor konsert kechalari tashkil etdi. Yoshlar orasidan qo‘shiqchilarni tanlab olib, ularga o‘zi yozgan “Halima” p‘esasidagi o‘zi yozgan musiqani ularga o‘rgatdi. Yosh san‘atkorlar Hamza Hakimzoda Niyoziydan ijrochilik mahoratini o‘rgandilar[7]

1921-yil 5-aprel Buxoro shahridagi teatr va konsert tomoshasida Sa‘di Maxsum (1809-1989- yy) qiziqchilik maktabidan yetishib chiqqan Yusufjon qiziq Shakarjonov ishtirok etib, konsertga mazmun va ko‘tarinki ruh bag‘ishladi [8].

Biroq, aynan, BXSR hukumati yillaridan musiqa va qo‘shiqchilik san‘atida, milliy qo‘shiqlarni kuylashda an‘anaviylik o‘rniga kommunistik mafkura ta‘siri yuzaga keldi. Qo‘shiqlarni kuylashda sof o‘zbek va tojikcha so‘zlar o‘rniga rus, tatar, o‘zbek, tojik so‘zlaridan qorishgan misralar kirib kelish holatlari kuzatildi.

Xalqda milliy tuyg‘u va ruhni uyg‘otishga qaratilgan kuy va qo‘shiqlarda g‘ayritabiiy, inson ta‘bini tushiradigan ohanglar paydo bo‘ldi. Ushbu salbiy tendensiyalar o‘z vaqtida Ziyo Usmoniy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat singari millat fidoyilari tomonidan keskin tanqid ostiga olindi.

Biroq, ta‘kidlash joizki, BXSR hukumati yillarida xalqning asrlar davomida shakllangan va ma‘naviy milligiga aylangan Buxoro san‘at durdonalarini asrab-avaylash, to‘plab kelajak avlodga yetkazish, zamonaviy qo‘shiqchilikni yo‘lga qo‘yishda dadil qadamlar qo‘yilgan va amaliy ishlar bajarilgan edi.

Xulosa va takliflar. Xullas, 1920-1924 -yillarda Buxoro xalq Sovet Respublikasi (BXSR) hukumati davrida musiqa san‘ati sohasida qisqa muddatda samarali ishlar amalga oshirildi. Buxoro xalq maorifi nozirligining 4 ta sho‘basidan biri “musiqa” sho‘basi deb nomlanib, ushbu sho‘ba ishlari, ayniqsa, Abdurauf Fitrat (1886-1938), Muso Saidjonov (1893-1938), Qori Yo‘ldash Po‘latov (1890-1965) lar maorif noziri bo‘lib faoliyat yuritgan davrda samarali va ibratli ishlarni amalga oshirdi. Teatr truppalarni san‘atkor qo‘shiqchilar bilan ta‘minlashga alohida e‘tibor berildi. Konsert truppalari tashkil etilib, ular BXSR viloyatlari bo‘ylab gastrollar uyushtirdilar. 1921- yilda Abdurauf Fitratning uyida musiqa maktabi ochilishi, ushbu maktabda ta‘lim berishligi va o‘quvchilarga har oyda 15 oltin so‘m (50 rubl) stipendiya

berilishi Buxoroda o'nlab "Shashmaqom", "Mavrigixonlik", "Buxorcha" turkum ijrochilarining yetishib chiqishida muhim bo'ldi. Buxoro shahrida duxovoy orkestr maktabi, 1923-yilda 7 ta musiqiy maktab faoliyat yuritgani ham muhimdir. BXSР maorif nozirliги huzurida dorilmusiqа kursi ochilgani ham tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Buxoroda musiqа asboblari dan qashqar rubob, g'ijjak, dutor, tanbur, doira, do'mbira kabilarni yasaydigan usta hunarmandlar safi kengaydi. O'sha davrda Buxoroda milliy musiqа asboblari ning o'ndan ortiq turi yasalgan. Musiqа maktablarini tegishli musiqа asboblari bilan ta'minlanishi, ushbu maktablarda ta'lim oluvchi iqtidorli o'quvchilar tomonidan bir nechta musiqа asbobini birdek chala biladiganlar guruhi shakllanishida asos bo'ldi.

BXSРda musiqа san'atini rivojlanishida Abdurauf Fitrat va Fayzulla Xo'jayev singari hukumat a'zolari, XX asr 20-yillarida qo'shiqchilik san'atida yuksaklikka ko'tarilgan o'nlab o'zbek, tojik, yahudiy millati vakillari muhim rol o'ynadilar. Ayniqsa, Abdurauf Fitratning bu yo'nalishdagi xizmatlari beqiyos ekanligini e'tirof etmoq kerak.

Musiqа va qo'shiqchilik san'ati rivojida Buxoroga 1921-1924- yillarda tashrif buyurgan Hamza Hakimzoda Niyoziy, Mannon Uyg'ur, V.A. Uspenskiy, mashhur xonanda Muhiddin Qori Yoqubov (2 bor tashrif buyurdi) boshqird qo'shiqchisi Aziz Alhamid (Almahmud), boshqird musiqachisi Saydashev, qiziqchi o'zbek Yusufjon qiziq Shakarjonovlar tashrifi, ularning konsert gastrollari ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

ADABIYOTLAR

1. Bu yil qanchа o'quv yurti bor? // مجلذ ية (جریدة) ب خاری (Ozod Buxoro gazetasi), 9(222)-son. 1923 -yil 8- noyabr.
2. Tomosha// شریف ب خاری (جریدة) (Buxoro sharif gazetasi), 26-son, 1912 - yil 10- aprel.
3. O'MA, 47-fond, 1-ro'yxat, 293 yig'ma jild, 123-varaq.
4. Матѣқубов О. Бухоро Шашмақоми. Тошкент.:2018.-300 б.
5. Xonqulov Sh.X. Farg'ona vodiysidagi ijtimoiy, madaniy jarayonlarda Hamza Hakimzoda Niyoziyning roli. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Farg'ona. 2022.-54 bet.
6. Xonqulov Sh.X. Hamza Hakimzoda Niyoziyning ma'rifat yo'li// "Vodiynoma" Andijon.-2019.-№4.(15). - B.101.
7. Hayitov Sh, Badriddinov S. Buxoro tarixidan lavhalar (XIX-XX asrlar); -Buxoro 2007.-104 b.
8. Hayitov Sh, Badriddinov S. Buxoro xalq sovet Respublikasi: iqtisodiyot, ijtimoiy siyosat, madaniy hayot. Buxoro.: "Buxoro" nashriyoti, 2005.-154 b.



UDK:929.53(09)(091)

Matluba RAXMANKULOVA,
O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ilmiy xodimi, PhD
E-mail: rahmankulova.matluba@mail.ru

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) A.Nazarov tahriri ostida

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИСТОЧНИКИ О МАСТЕРАХ КНИЖНОГО ИСКУССТВА

Аннотация

В данной статье комментируются исторические источники, содержащие сведения о мастерах книжного искусства, как манкибы, тазкиры, исторические документы, трактаты, предисловия альбомов муракка.

Ключевые слова: «Арзашт», Дост Мухаммад, Казим Ахмад Куми, Мустафа Али.

HISTORICAL SOURCES ABOUT THE MASTERS OF THE ART OF BOOK

Annotation

This article comments on historical sources containing information about the masters of book art, such as manakibs, tazkira, historical documents, treatises, prefaces of murakka albums.

Key words: "Arzadosht", Dost Muhammad, Kazi Ahmad Qumi, Mustafa Ali

KITOBAT SAN'ATI USTALARI HAQIDAGI MANBALAR XUSUSIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada kitobat san'ati ustalari haqida ma'lumot beruvchi manobalar, tazkiralari, tarixiy hujjatlar risolalar, muraqqa albomlari debochalarini haqida mulohaza bildirilgan.

Kalit so'zlar: "Arzadosht", Do'st Muhammad, Qozi Ahmad Qumiy, Mustafoli Ali.

Kirish. Islom kitobati tarixini tadqiq etishda tarixning turli davrlarida yaratilib, bugungi vaqtgacha yetib kelgan va ayni paytda turli kitob xazinalarida saqlanayotgan qo'lyozma kitoblar asosiy manbani tashkil etadi. Ular kitobatning tarixiy, texnik va uslubiy qirralarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qo'lyozma kitoblar jamoaviy mehnat mahsuloti, ularni yaratish turli madaniy markazlar orasidagi ijodiy tajriba almashishlarga hamda ancha oldin qo'llanilgan an'analarga asoslangan holda amalga oshirilgan yagona jarayon hisoblanadi. Kitobat ustalari o'z kasbining sir-asrorlarini shogirdlariga o'rgatib borgan. Qo'lyozmalarining tayyorlanish texnologiyasi haqidagi qo'llanmalarga bo'lgan ehtiyoj, kitobat jarayonini batafsil yoritishga harakat qilgan yoki uning muayyan bir sohasiga oid ma'lumotlar bilangina cheklanib qolgan asarlarning yozilishiga sabab bo'lgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Islom kitobatiga oid tarixiy manbalarning bir guruhini kitobat san'ati ustalari haqida ma'lumot beruvchi manobalar, tazkiralari, tarixiy hujjatlar risolalar, muraqqa albomlari debochalarini tashkil qiladi. Bunday asarlarning mualliflari ana shu muhit bilan chambarchas bog'liq tarzda faoliyat olib borgan, ular xattot, musavvir yoki munshiy bo'lgan. Odatda, kitob shaklida tayyorlangan yirik muraqqalar maxsus yozilgan debochalarga ega bo'lib, ularda kitobat san'ati haqida, kitobat ustalari haqida ma'lumot berilgan. Tabiiyki, bunday debochalar kitobat san'ati ustalari haqida asosiy ma'lumot manbai hisoblanadi. Boshqa manbalar keltirilgan ma'lumotlar hajmi bo'yicha ular bilan taqqoslanmaydi, ammo ular kitobat san'ati ustalari haqida risolalarda keltirilgan ma'lumotlarni sezilarli darajada to'ldiradi va ba'zan ularga aniqlik kiritadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada tarixiylik, xronologik yondashuv, qiyosiy-tahlil kabi tarixiy metodlardan foydalanildi. Maqolada kitobat san'ati ustalari haqida ma'lumotlar berilgan tarixiy manbalar haqida mulohazalar bildirilgan.

Tahlil va natijalar. Islom kitobatining eng rivojlangan davri hisoblangan Temuriylar davri saroy kutubxonasida faoliyat yuritgan kitobat ustalari to'g'risidagi bir qancha tarixiy manbalarda ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, ulardan eng qimmatlisi, shubhasiz, "Arzadosht" sarlavhali noyob tarixiy hujjat hisoblanadi.

Birinchisi 1948-yilda professor Zaki Validiy To'g'on (1890–1670) tomonidan Istanbul shahridagi To'pqi saroy muzeyida saqlanadigan "Jungi Yaqubiy" al'bomi (Istanbul, Topkapi Saray Library. Hazine 2153) sahifalari orasidan (f.98a) 46x13,5 sm o'lchamdagi qog'ozga siyoh bilan yozilgan ushbu hujjat aniqlangan, 1976-yilda uning matni tarjima va izohlari bilan Turkiyada chop etilgan [12]. Shundan so'ng "Arzadosht" turli yillarda qator xorij olimlari tomonidan o'rganilgan [3, 5, 10, 4, 1, 11]. "Arzadosht" hujjati Boysung'ur Mirzo saroy kutubxonasi o'zida kitob ishlab chiqarish markazini ifodalagan muassasaga emas, san'atning turli yo'nalishlari bo'yicha yetuk mutaxassislar to'plangan saroy ustaxonasi ekanligini ko'rsatishi bilan ham qimmatlidir. Unda ustalar faqat bezakli qo'lyozma yaratish bilan shug'ullanib qolmasdan, turli-tuman badiiy hunarmandchilik mahsulotlarini yaratishga ham jalb etilgan. Kutubxonaning bosh xattoti Kamoliddin Ja'far Ali Boysung'uriy Tabriziy vaqti-vaqti bilan Boysung'ur Mirzoga ustalar faoliyati bo'yicha axborot berib turgan. Taxminan 1427–1431-yillar oralig'ida tayyorlangan rasmiy hisobot – Arzadoshtda (Istanbul, Topkapi Saray Library. Hazine 2153/f.98a) kutubxonada faoliyat yuritgan kitobat ustalaridan 25 tasing nomi keltirilgan: beshta xattot – Mavlono Shams, Mavlono Qutb, Mavlono Sa'diddin, Mavlono Muhammadiy Mutahhar va Ja'far Boysung'uriy; ikkita musavvir – Amir Xalil va Xoja G'iyosiddin Naqqosh; o'n uchta qo'lyozmaga bezak beruvchi ustalar – naqqosh, muzahhib, lavvoh – Mavlono Ali, Mavlono Shihob, Mahmud, Xoja Ota, Hoji, Xitoyi, Abdussalom, ustoz Sayfiddin, Xoja Mir Hasan, Mir Shamsiddin ibn Xoja Mir Hasan, Mavlono Shams, ustoz Davlatxoja, Xoja Atoy

jadvalkash; uchta sahfof – Mavlono Qavomiddin, Hoji Mahmud, Xoja Mahmud; ikkita tarroh – Xoja Abdulrahim, Mir Davlatyor [1].

Do'st Muhammad tomonidan 1544-yilda Safaviylardan (1502–1736) bo'lgan Bahrom mirzo uchun (1517–1549) 951/1544–45-yilda tayyorlangan muraqqa al'bomdan Kamoliddin Behzod, Ahmad Muso, Abdulhay, Ja'far Tabriziy, Sul-ton Ali Mashhadiy, Shoh Mahmud Nishopuriy va Anisiy kabi turli taniqli rassomlarning asarlari o'rin olgan, uning muqaddimasi kitobat ustalari hayoti va ijodi bo'yicha muhim manba hisoblanadi.

Do'st Muhammad XV asr oxirlarida Hirotda tug'ilgan. Hirot kutubxonasida ustoz Behzod rahbarligida ijod qilgan. 1520-yillarda shahzoda Bahrom Mirzoning taklifiga ko'ra, Hirotdan Tabrizga ketadi. Shoh Ismoil I (1501–1524) va Taxmasp I (1524–1576) saroyida xizmat qiladi. Ustoz Behzodning vafotidan so'ng 1530-yillarda Qobulga shahzoda Kamron Mirzo (1509–1557) saroyiga ketadi. Akbarshoh (1556–1605) hukmronligi davrida Qazvinga borib, umrining oxirigacha shu yerda yashaydi. Do'st Muhammad xattotlikni Sul-ton Ali Mashhadiyning shogirdi Qosim Shodishohdan o'rgangan. Uzoq vaqt davomida shahzoda Bahrom Mirzo kutubxonasiga boshchilik qilgan. 1544–1545-yillarda xattotlik va tasviriy san'at haqida risola yozadi. Bu risola bizgacha "Bahrom mirzo al'bomi" nomi bilan mashhur bo'lgan xattotlik va miniatyura san'ati namunalari iborat muraqqa tarkibida yetib kelgan. Bugungi kunda u Istanbulda saqlanadi (Istanbul, Topkapi Saray Library. Hazine 2154).

Risolada Boysung'ur Mirzo Tabrizga kelganligi va u yerdan o'zi bilan kitobat ustalari Sidi Ahmad Naqqosh, Xoja Ali musavvir bilan birga muqovasoz usta Qavomiddin Mujallid Tabriziyi Hirotda olib kelganligi keltirib o'tilgan. Safaviylar saroy kutubxonasida ishlaydigan kitobat san'ati ustalarini keltirilganda, xattotlar – Mavlono Shohmahmud Nishopuriy, Mavlono Kamoliddin Rustam Ali, Mavlono Nizomiddin Shoh Muhammad, Mavlono Hypiddin Abdulloh Sheroziy, Do'st Muhammad Xaraviy; rassomlar – Ustoz Kamoliddin Behzod, Ustoz Nizomiddin Sul-ton Muhammad, Aka Jaloliddin Mirak al-Hasaniy al-Isfahoni, Sayyid Mir Musavvir, Qadimiy nomi bilan mashhur Mavlono Muhammad, Ustoz Kamoliddin Husayniy, Ustoz Kamoliddin Abdulg'affor, Ustoz Hasan Ali; naqqoshlar – Mirak al-muzahhib, Qavomiddin Mas'ud, Ho'ja Kaka nomi bilan tanilgan Ustoz Kamoliddin Abdulvahob; muqovasoz – Mavlono Muhsin mudjallidlar sanab o'tiladi. Do'st Muhammad tomonidan tuzilgan muraqqa muqaddimasi rus [24], ingliz tillariga [7] tarjima qilingan va tadqiqotlarda o'rganilgan [15, 19].

XVI asrda yashab ijod etgan kitobat san'ati ustalari haqida ma'lumot beruvchi yana bir risola muallifi Qozi Ahmad Ibrohimiy ibn Mirmunshiy Sharafiddin al-Husayn al-Husayniy al-Qumiy (1539–1606) yoshlik yillarini Qum va Hirotda o'tkazgan. O'sha davrning mashhur xattotlari Shohmahmud Zarrinqalam, Mir Sayyid Ahmad Mashhadiydan xattotlik, Ali Asqar musavvir, Muhammad Amin jadvalkash, Alirizolardan naqqoshlikni ta'lim oladi. 1556-yilda Mashhadga ko'chib o'tadi va 10 yil davomida Safaviylardan bo'lgan Bahrom mirzoning o'g'li, san'at va ilm-fan homiysi Sul-ton Ibrohim mirzo (1540/1577) vaziri bo'ladi. Keyinchalik shoh Ismoil II (1576/1524), Hamza mirzo (vaf. 1586) saroyida xizmat qilgan. 1598-yilda lavozimidan olingandan so'ng, Hindistonga ketadi. U xattotlar va rassomlar haqidagi asaridan tashqari "Majma ush-shuaro ul-Abbosiyy", "Xolasat ul-tavorixi Abbosiyy" asarlari muallifidir.

"Gulistoni hunar"da tarjimai holi keltirilgan kitobat ustalari asosan XVI asrda Hirotda, Mashhad, Tabriz, Qazvin, Qum, Sheroz, Koshon, Najaf, Bag'dodda yashab ijod qilganlar. Muallif ularning ko'pchiligi bilan uchrashganligi,

ularni shaxsan taniganligi, hujjatlar va yozma manbalar asosida ma'lumotlar jamlaganligini ta'kidlab, san'at ustalarining ijod namunalari, o'z davrida yaratilgan musiqa, kuy va naqshlar haqida ma'lumot bergan. Asar nafaqat xattotlik tarixi, xat uslublari evolyusiyasi, naqqoshlik va tasviriy san'at tarixi uchun, balki XVI asr va undan oldingi davrlar san'ati va hunarmandchiligi tarixini o'rganish, kitobat san'ati ustalari haqida ma'lumot olish uchun ham muhim ahamiyatga ega. "Gulistoni hunar"da Abdulrahim Anisiy, Somei Nishopuriy, Sul-tonali Mashhadiy, Mirali Xiraviy, Majnun Chapnavis, Sunii Nishopuriy, Aishie Hiraviy, Mir Ibod, Shoh Tahmasp, Boysung'ur ibn Shohrux, Ma'rufiy Xatati Bag'dodiy va boshqalar haqida ma'lumotlar berilgan [2, 6, 8, 20, 21, 22, 25].

Yana bir asar – "Manoqibi hunarvaron" muallifi, usmoniy tarixchisi va shoiri Mustafa Ali 1541-yilda Dardanell bo'g'ozining Yevropa sohilida Gelibolu shahrida tug'ilgan. Tarixchi va shoir Gelibolul Mustafa Ali (1524–1574) Usmoniy hukmdorlar shahzoda Salim (1465–1520), shahzoda Murod (1546–1595) xizmatlarida turli lavozimlarda ishlagan. Mustafa Ali Sul-ton Sulaymonning (1520–1566) so'nggi yurishi, Sulaymonning o'limi va uning o'g'li Salimning taxtga o'tirishini batafsil bayon etishga bag'ishlagan tarixiy asarining; Usmoniy va Safaviylar yurishi (1578–1590) bosqichlaridan bo'lgan Lal Mustafa Poshoning (1500–1580) Shirvon yurishi va Ko'ja Sinan Poshoning (1520–1596) Gruziya yurishi yilnomalari; Sul-ton Sulaymonning o'g'illari (Salim va Boyazid) urushi bayoni; to'rt devon, jami ellikdan ortiq asar muallifi bo'lib, ular tarix, she'riyat va turli sohalarga bag'ishlangan. "Manoqibi hunarvaron" asari manoqib janrida yozilgan bo'lib, unda kitobat san'ati ustalarining hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar jamlangan. Muqaddima, besh fasl va xotimadan iborat "Manoqibi hunarvaron"ning 1926 yilda chop etilgan dastlabki bosma nashrida [12] Mustafa Alining hayoti va ijodiga oid 133 sahifali muqaddima mavjud.

Do'st Muhammad va Qozi Ahmadlarning muraqqa-al'bomga yozilgan so'zboshisi kabi "Manoqibi hunarvaron" ham kitobat texnologiyasiga oid nazariy asar emas, balki kitobat san'ati ixlosmandlari va homiylari uchun qo'llanma hisoblanadi. Asarning eng qadimgi nusxasi (Istanbul, Istanbul Universitesi Merkez Kutuphanesi, Turkce, T 9757) asar yozilgan yildan 1 yildan so'ng – 996/1587–1588-yilda ko'chirilgan. Asar muqaddima, debocha, besh fasl va xotimadan iborat, 290 nafar kitobat ustalari haqida ma'lumot keltirilgan. Muqaddima Allohga zikr bilan boshlanib, ilk yaratilgan narsa sifatida qalam e'tirof etiladi. Muallif qalam egalari ikki guruhga ajratadi: birinchi guruh go'zal husnixat bilan yoza olmaydigan, lekin fazilatli asarlar yaratadigan, ikkinchi guruhga go'zal husnixat egalari kiritiladi. Kitobning yozilish sabablarini keltirib, yaratilgan ko'plab bebaho asarlar kimning homiyligida yaratilgani, ijodkorlarini bilish san'atni qadrlashga tengligini ta'kidlaydi.

Arab tilining olti uslubini tashkil etuvchi yozuvlar – suls, nasx, ta'liq, rayhoni, muhaqqaq va riqo, to'rtta qo'shimcha arab yozuvi – nasta'liq, chap (muhrlar kabi teskari yoziladigan yozuv), devoniyy (rasmiy hujjatlarda ishlatilgan), dasti haqida ma'lumot beradi. "Dastlabki imtihon sarlavhali matnda qalamning ikki tomoni, insi – qalamning ichi, vahshi – tashqi tomonining texnik xususiyatlari, qalamni kesish haqida mulohaza bildiradi. "Batafsil tekshiruv" sarlavhali matnda qalam, siyoh va qog'oz turlarini sanab o'tadi, xat chiroyli va pishiq bo'lishi uchun tavsiyalar beradi. "Asosiy qoidalar" sarlavhali matnda qo'lyozmadan nusxa ko'chirish uchun standart bahoni keltirib, bu yozuv sifati va xattotning obro'siga qarab belgilanishini ta'kidlaydi. Debocha yozuv haqidagi qo'shimcha mulohazalar, yozuv ilm ekanligini ta'kidlash bilan yakunlanadi. Bugungi kunda asarning 18 ta

qo'lyozma nusxasi (Istanbul, Istanbul Universitesi Merkez Kutuphanesi, Turkce, T 9757; Vienna, Osterreichische Nationalbibliothek, Vn 1227; Istanbul, Arkeoloji Muzesi Kutuphanesi, Ark 1302; Istanbul, Topkapı Sarayı Muzesi Kutuphanesi, Emanet Hazinesi, EH 1231; Cairo, Egyptian National Library, Majami-i Turk-i Tal'at, TT 68; Istanbul, Istanbul Universitesi Kutuphanesi, Turkce, IU 4098/5-7; Istanbul, Hacı Selim A'ga Kutuphanesi, HS 757/1; Istanbul, Suleymaniye Kutuphanesi, Esad Efendi, E 2211; Istanbul, Topkapı Sarayı Muzesi Kutuphanesi, Hazine, H 1291; Paris, Bibliotheque nationale, Supplement Turc, BN 756; Istanbul, Topkapı Sarayı Muzesi Kutuphanesi, Emanet Hazinesi, EH 1232; Istanbul, Topkapı Sarayı Muzesi Kutuphanesi, Revan, R 1504; Paris, Bibliotheque nationale, Supplement Turc, BN 1162; Istanbul, Arkeoloji Muzesi Kutuphanesi, Ark 1305; Istanbul, Millet Kutuphanesi, Ali Emiri/Tarih, AE 801; Cairo, Egyptian National Library, Tarikh-i Turki Tal'at, TTT 114), bosma nashrlari [12, 9], fors [17] va ingliz tiliga [13] tarjimasini mavjud.

Xulosa. XV–XVII asrlarda jamiyatdagi badavlat kishilar badiiy bezatilgan qo'lyozma kitoblarga ega bo'lishga alohida e'tibor berishgan. Badiiy qo'lyozma kitobat san'atining rivojlanishi, o'z navbatida, mutaxassislarni moddiy rag'batlantirish bilan birga, ularni ish jarayonida zarur bo'lgan qimmatbaho ashyolar bilan ta'minlash imkoniyatining mavjud bo'lishini ham talab etardi. Badiiy qo'lyozmani yaratuvchilar – turli soha ustalaridan iborat bir guruh saroy

kutubxonalaridagi ustaxonalarga jalb etilgan holda faoliyat yuritgan bo'lsa, kitobat jarayonida ishtirok etuvchi ustalarning boshqa bir guruhlari alohida birlashib, ziyolilar va oddiy aholidan iborat kitobxonlar uchun shaxsiy tartibda ishlashgan. Chunki yuqori lavozimli shaxslar buyurtmasi bo'yicha tayyorlangan bezaklarga boy kitoblardan tashqari, adabiyot, ilm-fan namoyondalari va kitob ishqibozlari uchun mo'ljallangan oddiy kitoblarga ham talab yuqori bo'lgan.

Dastlabki davrlarda kitoblarning katta qismini tashkil etgan diniy mazmundagi asarlarning qo'lyozma nusxalari asosan xattot mehnati natijasida yaratilgan, keyinchalik XV–XVII asrlarda badiiy qo'lyozmalarni yaratishda turli mutaxassislar – qog'ozrez, xattot, lavvoh, muzahhib, musavvir, sahhoflarning mahorat va qunt bilan ishlashi talab etilgan. Bundan tashqari, hunarmandchilikning boshqa sohalarida mehnat qilgan oltin qazuvchilar, loklovchi pardozchilar, charmdan nafis bezak kesuvchilar, qog'oz, lok tayyorlovchilar va boshqa ustalar ham kitobat jarayoniga o'z hissalarini qo'shishgan. Kitobat san'ati ustalari haqidagi ma'lumotlar ustalarning kitob yaratishga qaratilgan jamoaviy faoliyati madaniy markazlar orasidagi ijodiy tajriba almashishlarga hamda ancha oldin qo'llanilgan an'analarga asoslangan holda amalga oshirilganligidan, ularning ijodiy mehnatida o'zaro izchillik va mutanosiblikning mavjudligi qo'lyozma kitob uslubidagi yagonalik, yaxlitlik, texnik jihatdan mukammallikni ta'minlaganligidan guvohlik beradi.

ADABIYOTLAR

1. Akimushkin O. The Library-Workshop (Kitabkhana) of Baysunghur Mirza in Herat // *Manuscripta Orientalia*. – Saint Petersburg, 1997. – № 3/1. – P. 34–38;
2. Akimushkin O. The sources of "the treatise on calligraphers and painters" by Qazi Ahmad Qumi // *Manuscripta Orientalia*. Vol. 1, No 1, July 1995. – P. 5–11.
3. Andrews P. The Tents of Timur: An examination of reports on the Qurultay at Samarkand, 1404 // *Colloquies on Art and Archaeology in Asia*, no. 7. – London: University of London, School of Oriental and African Studies, Percival David Foundation, 1978. – P. 167, 179;
4. Arzadasht / A Century of Princes: Sources on Timurid History and Art. Selected and translated by W.Thackston. – Cambridge. Massachusetts, 1989. – P. 323–328;
5. Aslanapa O. The arts of the bookbinding in Central Asia, 14th-16th centuries. – P. 59
6. Calligraphers and Painters. A Treatise by Qadi Ahmad, transl. by V. Minorsky, Washington, 1959;
7. Dost-Muhammad. Preface to the Bahram Mirza Album / A Century of Princes: Sources on Timurid History and Art. Selected and translated by W.Thackston. – Cambridge. – Massachusetts, 1989. – P. 335-350;
8. Edwards C. Calligraphers and Artist a Persian Work of the Late 16th Centure // *BSOS*. 1940. Vol. X, pt 1. – P. 199–212;
9. Gelibolulu Mustafa Âli. Hattatların ve Kitap Sanatçılarının Destanları (Menakıb-ı Hunerveran), ed., Müjgan Cunbur. – Ankara: Kültür ve Turizm Bakanlıđı Yayınları, 1982;
10. Lentz Thomas W., Lowry G. Timur and the Princely Vision. Persian Art and Culture in Fifteenth Century. – Washington, – Los Angeles, 1989. – P. 160 (– P. 364–365, Appendix 1);
11. Mihan Sh. On the Meaning of a Fifteenth Century Technical Term in a Timurid Document Associated with Prince Baysonghor's Library in Herat // *Iran*, 54, no. 2, 2016. – P. 129-134;
12. Mustafa Âli Efendi. Menaqib-ı Huner-veran. Ed., 'Ibnü'l-Emin Mahmud Kemal. Istanbul: Matba'a-i Amire, 1926. –P. 206;
13. Mustafa Ali's Epic Deeds of Artists: A Critical Edition of the Earliest Ottoman Text About the Calligraphers and Painters of the Islamic World. Edited, translated and commented by Esra Akin-Kivanc. – Leiden-Boston: Brill Academic Pub, 2011;
14. Ozergin M. Temurli sanatina ait eski bir belge: Tebrizli Ja'far'in bir Arzi // *Sanat Tarihi Yilligi*, 1976. – №VI. – P. 471-518;
15. Roxburgh J. David. Disorderly conduct: F.R.Martin and The Bahram mirza album // *Muqarnas*, 1998. – Vol. 15. – P. 32-57;
16. Sarwar Kh. History of the Shah Isma'il Safawi. Aligarh. 1939. – P. 11–12;
17. Tawfiq H. Subhanı. Manaqib-i hunarvaran. – Tehran: Soroush Press, 1369/1991;
18. Tourkin S. Another Look on the Petition ('arzadast) by Ja'far Baysunguri Addressed to his Patron Baysungur b. Sahrub b. Timur // *Manuscripta Orientalia*. – Saint Petersburg, 2003. – № 9/3 – P. 34–38;
19. Weis, Friederike. How the Persian Qalam Caused the Chinese Brush to Break: The Bahram Mirza Album Revisited // *Muqarnas Online*, 2020. – № 37 (1): 63–109;
20. Акимушкин О. Хайдарабадский "автограф" "Трактата о каллиграфиях" Казии Ахмада Куми // *Письменные памятники и проблемы истории культуры народов Востока. XX годичная научная сессия ЛО ИВ АН СССР (доклады и сообщения)*. 1985 г. Часть 1. – М.: Наука, ГРВЛ, 1986. – С. 98–102;
21. Дарский Э.Н. Устав цеха живописных дел мастеров // *Мастера искусства об искусстве*. – Москва., 1965. Т. I. – С. 148;

22. Кази Аҳмад б. Хусайн ал-Хусайни Қуми. Трактат о каллиграфрах и художниках / пер. с перс., прилож., комм. и примеч. О.Ф. Акимушкина; подгот. к публикации, предисл. и указ. Б.В. Норика. – 2-е изд., стереотип. – М.: «Садр», 2023. – 488 с.;
23. Кази-Ахмед. Трактат о каллиграфрах и художниках 1596–1597/1005. Введение, перевод и комментарии профессора Б. Н. Заходера, М.–Л., 1947;
24. Костыгова Г. Дуст Мухаммад: Трактат о каллиграфрах и художниках / Мастера искусства об искусстве. – Москва., 1965. Т. I. – С. 169–180;
25. Қози Аҳмад. Гулистони хунар. Таълифи Қози мир Аҳмад муншийи Қумий. Би тасхих ва Эҳтемами Аҳмад Сухайли Хонсарий. Техрон, 1332/1973;



UDK:327.82(560+584.4)(091)

Zumrad RAHMONQULOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti professori
E-mail: zumradrahmankulova@gmail.com

Tarix fanlari doktori, professor R.Xoliqova tahriri ostida

ЗАРУБЕЖНЫЕ ПУТЕШЕСТВЕННЫЕ ЗАПИСКИ КАК ИСТОЧНИК ПО ИСТОРИИ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ СРЕДНЕАЗИАТСКИМИ ХАНСТВАМИ И ОСМАНСКИМ ГОСУДАРСТВАМ

Аннотация

В данной статье освещаются общественно-политические, экономические и культурные связи среднеазиатских ханств и Османского государства в зарубежных путевых книгах.

Ключевые слова: исторический источник, травелог, Сейди Али Раис, «Миратуль Мамолик», Мехмед Амин Эфанди, «Путешествие из Стамбула в Среднюю Азию», Херман Вамбери.

FOREIGN TRAVELING NOTES AS A SOURCE ON THE HISTORY OF DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN THE CENTRAL ASIAN KHANATES AND THE OTTOMANS

Annotation

This article highlights the socio-political, economic and cultural connections of the Central Asian khanates and the Ottoman state in foreign travel books.

Key words: historical source, travelogue, Seydi Ali Rais, "Mir'atul Mamolik", Mehmed Amin Efandi, "Travel from Istanbul to Central Asia", Herman Vambery.

XORIJIIY SAYOHATNOMALAR O'RTA OSIYO XONLIKLARI VA USMONIYLAR DAVLATI O'RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR TARIXIGA OID MANBA SIFATIDA

Аннотация

Mazkur maqola xorijiy sayohatnomalarda O'rta Osiyo xonliklari va Usmoniylar davlati o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarga oid ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalitli so'zlar: tarixiy manba, sayohatnoma, safarnoma, Seydi Ali Rais, «Mir'otul mamolik», Mehmed Amin Afandi, «Istanbuldan O'rta Osiyoga sayohat», Xerman Vamberi.

Kirish. Tarixiy manbalar o'tmishni o'rganish va anglashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular insonlarga tarixiy davrlar haqida qimmatli tushunchalar beradi. Manbalarning turlari juda ko'p bo'lib, ularni turkumlashirish borasida tarixchilar o'rtasida turli bahs munozaralar mavjud. Tarixiy manbalar o'tmishga nazar tashlashga imkonini beruvchi vositalar bo'lib, ular o'tmishdagi jamiyatlarining hayoti, turmush tarzi va e'tiqodlariga oid tarixiy jarayonlarni aniqlashga imkon beradi.

Tarixiy manbalar inson tomonidan bunyod etilgan voqea hodisalarni o'zida aks ettiruvchi va kishilik jamiyati tarixini o'rganishga imkon beruvchi zamonamizgacha saqlanib qolgan moddiy va yozma yodgorliklar hisoblanadi. Tarixiy manbalar o'tmishdan qolgan va insoniyat o'tmishining turli davrlarini o'zida namoyon qilgan moddiy va ma'naviy manbalar, yodgorliklardir. Tarixiy manbalarning eng muhim turlaridan biri yozma manba hisoblanadi. Ularni tarixiy jarayonlarni aks ettiruvchi obyektlarning majmui deb ham atash mumkin.

Yozuv vujudga kelmagan ibtidoiy jamoa davrida insoniyat tarixiga oid faqatgina moddiy manbalar saqlanib qolgan. Tarixiy va boshqa ilmiy tadqiqotlarda moddiy manbalardan qadimgi va qisman o'rta asrlar va yangi davr tarixini yoritishda foydalaniladi. Xo'jaliklarning shakllanishi, savdo-sotiq munosabatlarining paydo bo'lishi, fan, texnikaning rivojlanishi, jamiyatning sivilizatsiya davri tarixini tadqiq etishda birlamchi ahamiyatga ega bo'lgan yozma manbalardan foydalaniladi. Bugungi kungacha saqlanib qolgan yozma manbalar tosh, sopol, qayin po'stlog'i, pergament va qog'ozga yozilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yozma manbalar insoniyatning ijtimoiy faoliyati natijasida yaratilgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hodisalarni o'zida aks ettiradi. Yozma manbalar masalasi xususida fikr yuritganda bevosita ilmiy adabiyotlarda berilgan qarashlar va ta'riflarning ba'zilarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bizgacha davlatlar o'rtasidagi karvon yo'llari orqali olib borilgan iqtisodiy aloqalar haqida ko'pgina qimmatli manbalar sayohatnomalar saqlanib qolingani. Abdurazzok Samarqandiyning «Matlais sadayn va majmaul baxrayn», Seydi Ali Raisning «Mir'otul mamolik» (Mamlakatlar ko'zgusi) asarlari shular jumlasidandir. Bu asarlarda Usmoniylar, Hindiston, O'rta Osiyo va Erondagi siyosiy vaziyat, diplomatik aloqalar, savdo va iqtisodiy munosabatlar haqida qimmatli ma'lumotlar beriladi.

Tadqiqot metodlari. Mazkur maqolada tarixiylik, narrativ, qiyosiy tahlil uslublari foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O'rta Osiyo xonliklari va Usmoniylar davlatlari o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar tarixiga oid ma'lumotlar bir qator memuar xarakterga ega asarlar-esdaliklar, sayohatnomalar, ilmiy tadqiqotlar orqali bizgacha yetib kelgan. Shulardan biri Seydi Ali Raisning «Mir'otul mamolik» (Mamlakatlar ko'zgusi) va Mehmed Amin Afandining «Istanbuldan O'rta Osiyoga sayohat» asarlaridir. Mazkur asarlarda mualliflar Buyuk Ipak yo'lida katta ahamiyatga ega bo'lgan Samarqand, Xiva shaharlari haqida qimmatli ma'lumotlarni berib o'tadi.

Seydi Ali Rais XVI asrda yashab ijod etgan turk muallifidir. U O'rta Osiyoga «Kotibi Rumi» nomi bilan tilgan. Seydi Ali Rais geografiyaga oid «Muhit» asarining

ham muallifidir. Shuningdek, u Ali Qushchining asarlarini ham turk tiliga tarjima qilgan.

Seydi Ali Rais Usmoniyar davlati harbiy dengiz flotining asoschisi, nazariyachisi va mashhur turk admiralidir. U 1548 yilda Usmoniyar sultoni Qonuniy Sulton Sulaymon (1520-1566) ning Eronga qilgan harbiy yurishlarida 1552 yilda Kipr janglarida ham qatnashadi. Seydi Ali Rais shu janglarda ko'rsatgan katta harbiy mahorati tufayli Qonuniy Sulton Sulaymonning cheksiz hurmatiga sazovar bo'lib, keyinchalik Xalab sultoni qilib ham tayinlanadi [1]

Seydi Ali Rais Misr komandiri qilib tayinlanib, Portugaliyaning Suvaysh kanalidagi flotiga qarshi kurashish uchun yuboriladi. Ammo jangda turk floti mag'lub bo'lib, qolgan kemalari bilan Shimoliy Hindistonga boradi. Seydi Ali Rais Hindistonda bo'lib, Zahiriddin Muhammad Boburning o'g'li Humoyun Mirzo bilan uchrashgan [2]. Seydi Ali Rais Sind, Panjob, Afg'oniston, O'rta Osiyo, Xuroson, Ozarbayjon va Eron orqali yo'l bosib, mashaqqatlar bilan to'rt yildan so'ng, 1556 yilda vataniga yetib keladi va «Mir'otul mamolik» asarini yozadi.

Seydi Ali Rais asarining «Turon zaminda, ya'ni Movaraunnahrda yuz bergan voqealar bayoni» bo'limida 1555 yilda Chog'aniyonga, Sangardak tog'idan oshib Shahrisabzga so'ngra esa Samarqandga kelganligi haqida yozadi. Muallif Sangardak tog'ida yomg'ir yoqqandek suv tomchilari to'xtovsiz tomib turishi va u katta soyni hosil qilishini ta'kidlab o'tadi.

U Navro'z Ahmadxon (Baroqxon) bilan ham uchrashadi va sovg'alarini topshiradi. Navro'z Ahmadxon esa unga ot sovg'a qiladi. Navro'z Ahmadxon Seydi Ali Raisga Usmoniyar sultoni Qonuniy Sulton Sulaymon bir qancha o'qchilar va qa'la to'plari yuborganligi haqida aytib o'tadi. Seydi Ali Rais mamlakatdagi siyosiy vaziyat Abdulatifxonning vafoti, Buxoro taxtini egallash uchun olib borilgan kurashlar, Navro'z Ahmadxon Samarqand, Shahrisabz, Buxoroni egallagani va Shahrisabzda bo'lib o'tgan jangda turk askarlarining bir-necha boshliqlari halok bo'lganligi haqida ham to'xtalib o'tadi. Navro'z Ahmadxon Samarqandga qaytib kelgach, turk askarlarining bir qismi Ahmad Chovush bilan Rumga qaytib ketadi. Qolgan bir qancha yanichar (turk askarlari) lar Buxoroda, Navro'z Ahmadxon yonida esa yuz ellikka yaqni qolgan. Dastlab, Navro'z Ahmadxon huzurida uch yuzta turk askari bo'lgan [3].

1551 yillarda Qonuniy Sulton Sulaymon Abdulatifxonga Ahmad Chovush orqali ma'lum bir miqdordagi o'qchi va otliq askar yuborgan edi [4]. Ular yetib kelganida mamlakatni Navro'z Ahmadxon boshqarmoqda edi. Navro'z Ahmadxon hokimiyatni qo'lga kiritgach Qonuniy Sulton Sulaymonga Abdulatifxon (1540-1551) ning vafot etganligini va Istanbuldan 300 ta o'qchi, to'pchi va otliq askarlarning yetib kelganligini ma'lum qilib elchi yuboradi.

Navro'z Ahmadxon Seydi Ali Raisga ketishiga ruxsat beradi va u bilan birga Ahmad Yassaviy avlodidan bo'lgan Sadri Olam Shayxni elchi qilib jo'natadi. Navro'z Ahmadxon keyinroq 1556 yilda elchisi Qutlug' Po'lat orqali jo'natgan maktubida Buxoroni egallagani haqida yozadi va Safaviylarga qarshi yurish uchun yordam so'raydi [5]. Lekin Usmoniyar davlati Safaviylar bilan 1551 yilda Amasiya shartnomasini imzolagani uchun yordam qila olmasligini bildiradi. Usmoniyar sultoni agarda Safaviylar O'rta Osiyoga hujum qilgudek bo'lsa bunga ham qarshi ekanligini ma'lum qiladi. Eron-Usmoniyar munosabatlari shoh Taxmasp (1525-1576) ning vafotiga qadar do'stona davom etadi. Seydi Ali Rais Samarqandda qur'oni-karimning eski nusxasini ko'rganligini yozadi. U Samarqandda Abu Mansur Motrudiy, Shohi Zinda, Xoja Ahror qabrlarini ziyorat qiladi. Karmanaga, Zarafshon daryosidan o'tib G'ijduvonga keladi va Abduxoliq

G'ijduvoniya qabrini ham ziyorat qilib Buxoro shahriga keladi. Buxoroda o'n besh kun bo'lib Bahovuddin Naqshbandiy, Chorbakr, Sayid Mirkulol, Ismoil Somoniy, Hazrati Ayyub, Xorazmda esa Pahlavon Mahmud, Najmiddin Kubro, Zamahshariy qabrlarini ziyorat qiladi.

O'rta Osiyo xonliklari va Usmoniyar davlati o'rtasidagi munosabatlar Mahmud Amin Afandining «Istanbuldan O'rta Osiyoga sayohat» asarida ham berib o'tilgan. Manba 1878 yilda Istanbulda nashr qilingan. Ikkinchi marta Riza Akdemir tomonidan Anqarada 1986 yilda nashr qilingan. Mahmud Amin Afandi asli kelib chiqishi O'rta Osiyolik bo'lib, asl vataniga sayohat qilish uchun hijriy 1295 (milodiy 1878) yilda Istanbuldan yo'lga chiqadi. Qora dengiz orqali kelgan sayyoh dastlab Kavkazga so'ngra O'rta Osiyoga keladi. Muallifning asaridagi ma'lumotlardan, uning Yevropaning ko'pgina davlatlarida ham bo'lganligini bilishimiz mumkin. Muallif Xiva xonligiga sayyohatlari davomida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldiradi.

Muallif Xorazmni tarixga go'zalligi va boyligi bilan tanilgan shahar deb ta'riflaydi. Sayyoh Ko'hna Urganchning yuksak va mashhur minoralari va avliyoy qabrlarini ko'rish bilan yangi kunini boshlaganligi yozadi. «Ko'hna Urganchga kelarkan yo'lda yo'lovchilardan biri menga otini berdi. Men 25 kundir yo'lda edim. Mening ahvolimni ko'rib rahmi keldi. Bu holatda men boy va hashamatli Xorazmda Sulton Mahmud Jaloliddin Xorazmshoh davrida yurganday his qildim» [6].

Mehmed Amin Afandi Xiva gilamlarining dunyoning har yerida go'zal sa'nat namunasi sifatida o'zini namoyon qiladi deb yozadi. XIX asrda Buxoro va Xivada tayyorlangan yo'l-yo'l oltin va kumush naqshli parcha, atlas, adraslar va ulardan tayyorlangan buyumlar, korako'l teri, gilamlarni Eron, Turkiya, Xitoy bozorlarida uchratish mumkin edi [7]. Muallif Xivadan keyingi eng katta, aholi gavjum, savdo-sotiq shahari Yangi Urganchdir ekanligini ta'kidlaydi. Hatto savdo-sotiqning rivojlanishi jihatidan Xivadan oldinda ekanligi, Orenburg va Buxoro shaharlaridan tinmay savdo karvonlari qatnab turishi haqida ma'lumotlar beradi. Har bir tujjor o'zining maxsus muhrlariga ega bo'lgan. Bu davrda Urganch tujjorlarining Orenburg va Moskva kabi mashhur shaharlarda, Eron Hindiston davlatlarida ham savdo sheriklari bo'lgan.

O'rta Osiyoning Eron bidan aloqalari Marv va Mashhad yoki Kaspiy dengizi bo'ylab o'tadigan Xiva-Mashhad yo'li bilan olib borilgan. Mashhad-Marv yo'lining xavfli bo'lganligi bois O'rta Osiyolik xojilar Makkaga borishda Orenburg-Astraxon-Turkiya orqali uzoq, biroq xavfsiz yo'lini afzal ko'rganlar. Astraxon qadimdan Xivaning tashqi iqtisodiy aloqarida qulay savdo markazi bo'lgan. Astraxonga cho'ldan o'tib Xivaga, u yerdan Manqishloqqa kelib, Kaspiyga qatnaydigan kemalarda borilar edi [8].

Yangi Urganchda uylar juda katta-katta qilib qurilgan. Har bir uyda do'kon va omborlar bor. Shuningdek, har bir uyda o'z tegirmonlari bor. Uni ot yoki eshak bilan vaqti-vaqti bilan yurgazib turishadi. Sayyoh Ko'hna Urganchdagi xonadonlarning birida mehmon bo'ladi. Bu haqida u «bu odamlar shu darajada qo'li ochiq odamlar ediki, ularning mehmonlarga ko'rsatadigan izzat va ikromni dunyoning hech bir yerida, hech bir xalq ko'rsata olmaydi» [9] deb yozadi. Uning sharafiga qo'y so'yilganligini, eng yaxshi qovunlarni tanlab dasturxonaga qo'yanligini, Xivada nafaqat qahvani, balki uning nomini ham bilmasligini, Hindistondan keltirilgan choy ichilishini ta'kidlab o'tadi. Bu davrda Hindistondan O'rta Osiyoga Palampur ko'k choyi, Bombay va Kalkutta qora choylari olib kelingan [10]. Xivada bu davrda bug'doy, javdar, kunjut juda ko'p ekilgan. Xalq asosan kunjut yog'ini ishlatgan. Ipak qurtining asosiy ozuqasi bo'lgan tut daraxti ham ko'p ekilgan. Xiva tarvuzi, sovuni sharq mamlakatlarida juda mashhur bo'lgan. Xiva tarvuzining bittasi Bog'dod bozorlarida 700 dirhamga sotilgan [11].

Mehmed Amin Afandi Xivada otlarga katta ahamiyat berilganligini, "Kitne Togas" laqabli bahosi yuz tilla[12] (ikki yuz ellik lira) bo'lgan otni ko'rganligini, otlarning shu qadar qimmat ekanligini ko'rib hayratlanganligi yozadi. Istanbulda bu davrda eng qimmatli otlar o'n besh, yigirma liraga sotilgan. Xivada qozoq, yabu oti deb nom olgan zotli otlar Istanbul otlariga o'xshamasligi, kichkina bo'lsa ham chidamli, chopqirligi haqida yozadi.

Mehmed Amin Afandi Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (1865-1910) bilan ham uchrashadi. U Xiva xoni haqida «Uzun bo'lyi, sog'lom, gavdali, kelishgan, viqorli ko'rinadi. Ilm sohiblariga ko'rsatgan hurmatiga qusur yo'q, qo'li ochiq bir podshohdir» deb yozadi. Muhammad Rahimxon II va Mehmed Amin Afandilar dunyodagi siyosiy vaziyat, texnika sohasiga oid ixtirolar haqida suhbatlashadi. Muallifning ta'kidlashicha, Xivada o'sha davrda o'n oltita masjid va ikkita madrasa bo'lgan[13]. Uylar g'ishtdan Bag'dodiy uslubda qurilgan, uning eshiklari va devorlari nafis uyma naqshlar bilan bezatilgan.

Mehmed Amin Afandi asarining so'ngida Xivadan tashqari Toshkent, Qo'qon va Qashg'arga ham borganligini, Afg'oniston orqali Hindistonga o'tganligini so'ngra Istanbulga qaytganligini yozadi. Muallif bu sayohatlari tafsilotlari haqida keyingi kitoblarda batafsil ma'lumotlar berib o'tishini ta'kidlaydi.

A.Vamberining "Puteshestviye po Sredney Azii" asari ham mavzuga doir muhim manbalardan biridir. Muallif

Xivada mahalliy xalk vakili bo'lgan Ismoil Xo'ja bilan ko'rishgani haqida yozadi. Ismoil Xo'ja Istanbulda 5 yil yashaganligi, uning Istanbulda tabib, sehrigar va xattot bo'lib ishlaganligi haqida yozadi. Ismoil Xo'ja Xivada juda mashhur shaxs bo'lgan. U Istanbuldan olib kelgan maxsus asbob yordamida mevalardan yog' tayyorlagan. Hatto u Xiva xonini ham podagradan davolashga harakat qilgan.

A.Vamberiga Buxoro amirligiga Rashid posho tomonidan yuborilgan bir harbiy o'qituvchi amir tomonidan qatl qilinganini bir xivalik hikoya qilib bergan. Buxoroda bozorlarida ikki xil rangdan to'qilgan alacha, turli ipak matolari, adras, yupqa ro'mollari va teri buyumlari mashhur bo'lgan. "Qirg'iz, qipchoq, qalmaq va tatarlar bu bozorlardan qiyim kechaklar sotib olish uchun kelardi. Buxoro ular uchun Parij yoki London edi". Bu davrda Buxoro amirligida xorijdan kelgan sayyohlarga ehtiyotkorlik bilan muomila qilingan. Ularning josus emasligi sinchkovlik bilan tekshirilgan. A.Vamberiga ham ularning ishonchini qozonish uchun ko'plab diniy amallar mavzusidagi savollariga javob berganligini ta'kidlagan[14].

Seydi Ali Raisning «Mir'otul mamolik» va Mehmed Amin Afandining «Istanbuldan O'rta Osiyoga sayohat», A.Vamberining "Puteshestviye po Sredney Azii" asarlari XVI-XIX asrlardagi O'rta Osiyo tarixiga oid siyosiy, iqtisodiy, elchilik aloqalari, geografik, etnografik ma'lumotlarni beruvchi muhim manbadir.

ADABIYOTLAR

1. Азимжоновна С. Сейди Али Раис ва унинг «Миръотул мамолик» асари ҳақида. –Т.: Фан. 1963. 8 б.
2. Абдуллаев Ф. Маърифат фидойиси. Шарқшунослик. 1999.№9. 185 б.
3. Азимжоновна С. Сейди Али Раис ва унинг «Миръотул мамолик» асари ҳақида. –Т.: Фан. 1963. 34 б: Suavi Ali. Hive hanligi ve Turkistanda Rus yayilmasi. Hazirlayan M.Abduhalik Cay. s.29.
4. Budak. M. Osmanli – Ozbek iliskilerinin baslanisi // Avrasya etyudlari. 1995. №4. s.82.
5. Kilic.R. Osmanli-Ozbek iliskileri (1530-1555). Turk Kulturu. sayi 437. 1999. XXXVII. 530 s.
6. Mehmet Emin Efendi. Istanbuldan Orta Asyaya seyahat. -Ankara. 1986. 113 s.
7. Валиева Д.Среднеазиатско-иранские отношения в первом половине XIX века. Взаимоотношение народов Средней Азии и сопредельных стран Востока. –Т., 1963. с. 51
8. Валиева Д. XIX асрнинг биринчи ярмида Бухоро ва Хиванинг ташқи иқтисодий алоқарига доир (Архив хужжатлари асосида) // Шарқшунослик. 1997. №8. 165-166 б.
9. Mehmet Emin Efendi. Istanbuldan Orta Asyaya seyahat. -Ankara. 1986. 123 s.
10. Байкова Н.Б. Из истории караванной торговли между Средней Азией и Северной Индией в XIX в. Взаимоотношение народов Средней Азии и сопредельных стран Востока. –Т., 1963. с. 191
11. Suavi Ali. Hive hanligi ve Turkistanda Rus yayilmasi. Hazirlayan M.Abduhalik Cay. s.91-92.
12. 1873 йилгача катта тилла -3 рубль 60 тийин, кичик тилла - 1 рубль 80 тийинга тенг бўлган.
13. Mehmet Emin Efendi. Istanbuldan Orta Asyaya seyahat. -Ankara. 1986. 121 s.
14. Rakhmankulova, Z. "The National library of Uzbekistan as a digital humanities Center In Uzbekistan." *The American Journal of Social Science and Education Innovations* 2.10 (2020): 25-33.



UDK: 94(575.121)39(575.121)

Dilshod TO'XTASINOV,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: dilshodtoxtasinov2202@gmail.com

NamDU dotsenti, PhD B.Xalmuratov taqrizi asosida

UCHTEPA-2 YODGORLIGI TOSH QURILMALARI BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR

Аннотация

Maqolada Farg'ona vodiysida joylashgan antik hamda ilk o'rta asrlarga oid Uchtepa-2 yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va tadqiqot davomida yodgorlikda uchratilgan turli shakllardagi tosh qurilmalari haqida so'z yuritiladi. Tadqiqotlar natijasida, yodgorlikda topilgan altarlari va boshqa tosh qurilmalari Farg'ona vodiysining diniy va madaniy tarixini yoritishda muhim ahamiyatga ega ekani alohida qayd etiladi.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, Uchtepa-2 yodgorligi, arxeologik tadqiqotlar, tosh qurilmalar, altar-o'choqlar, diniy marosimlar, "Dare-mehr". "Xaoma qurbonligi", "Ajdodlar ruhi uchun qurbonlik", "Gul qurbonligi".

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О КАМЕННЫХ СООРУЖЕНИЯХ ПАМЯТНИКА УЧТЕПА-2

Аннотация

В статье рассказывается об археологических исследованиях, проведенных на памятнике Уchtepa-2, расположенном в Ферганской долине и относящемся к античному и раннесредневековому периодам. В ходе исследований были обнаружены различные формы каменных сооружений на этом памятнике. Отмечается, что найденные алтари и другие каменные сооружения имеют важное значение для освещения религиозной и культурной истории Ферганской долины.

Ключевые слова: Ферганская долина, памятник Уchtepa-2, археологические исследования, каменные сооружения, алтари-печи, религиозные ритуалы, "Даре-мехр", "Жертвоприношение Хаома", "Жертвоприношение духам предков", "Жертвоприношение цветов".

SOME THOUGHTS ON THE STONE STRUCTURES OF THE UCHEPEA-2 SITE

Annotation

The article discusses archaeological research conducted at the Uchtepa-2 site, located in the Fergana Valley and dating back to the ancient and early medieval periods. Various forms of stone structures were discovered at the site during the research. It is noted that the altars and other stone structures found at the site are of great importance for shedding light on the religious and cultural history of the Fergana Valley.

Key words: Fergana Valley, Uchtepa-2 site, archaeological research, stone structures, altars-hearths, religious ceremonies, "Dare-mehr", "Haoma sacrifice", "Ancestor spirit sacrifice", "Flower sacrifice".

Kirish. Dunyoda zamonaviy tarix fanining dolzarb muammolaridan biri bu hozirgi xalqlarning tarixiy ildizlarini, kelib chiqishini aniqlashdir. Bu masalani echishda tarixiy arxeologik materiallarning o'rni katta. Shuning uchun insoniyat tomonidan yaratilgan madaniy me'ros obyektlarini asrab avaylash, arxeologik yodgorliklarni o'rganish, ularni saqlash va ta'mirlash, shu orqali tarixni obyektiv yoritish, har tomonlama chuqur o'rganish, aholi va yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev bu xususda shunday fikr bildirgan edi: "Eng avvalo, yoshlar va aholi o'rtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini etkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish haqida bormoqda [1.].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Farg'ona vodiysining antik va ilk o'rta asrlar davri madaniyatlarini, diniy e'tiqodlari va ma'rosimlari haqida N. G. Gorbonova, Y. F. Zadneprovskiy, T. G. Obolduyeva, A. A. Anarbayev, B. H. Matboboyev, S. S. Qudratov, M. G. Abdullayev, S. R. Baratov va boshqa mualliflarning ilmiy ishlarida kuzatish mumkin. Yuqoridagi mualliflar o'zlarining ilmiy ishlarida o'rganilayotgan mavzu uchun keng ko'lamli tadqiqotlar olib bormaganlar. Tadqiqotning maqsadi Farg'ona vodiysi uchun dastlabki bo'lgan, Uchtepa-2 arxeologik yodgorligida

uchratilgan tosh qurilmalarni keng ko'lamli batafsil o'rganishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiylik, ilmiy holislik va obyektivlik tamoyillariga to'la amal qilgan holda, ilmiy muammoni o'rganish va tahlil qilishda tarixiy-falsafiy, ya'ni analiz va sintez, tizimlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy solishtirish metodlardan foydalanildi. Ushbu usullar tadqiqot mavzusining ilmiy-metodologik asoslarini tashkil etdi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot olib borilgan Uchtepa-2 arxeologik yodgorligi Namangan viloyati Norin tumanidagi Uchtepa qishlog'ida, Namangan-Haqqulobod avtomagistral yo'lining chap tomonida, geografik jihatdan qulay tabiiy sharoitga ega bo'lgan hududda, dengiz sathidan 419 metr balandlikda joylashgan. Yodgorlik joylashgan hududning janubidan Sirdaryoning asosiy irmoqlaridan biri hisoblangan Qoradaryo, shimolidan esa Norin daryosi oqib o'tadi. Ushbu yodgorlikda 2019- yilda akademik A. Asqarov boshchiligidagi keng ko'lamli yuqori qatlamdan quyi qatlamiga qadar stratigrafik va planigrafik qazishma ishlari amalga oshirildi. Stratigrafik jihatdan yodgorlik 3 ta qatlamdan iborat ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari arxeologik qazishma jarayonlarida noyob topilmalar, jumladan, 50 dan ortiq olovga sig'inish altar o'choqlar, qurbonlik hayvonlarini so'yish uchun tayyorlangan 10 dan ortiq turli davrlarga oid muqaddas tosh pichoqlar, toshdan yasalgan bir necha xil turdagi sanam-ma'budalar,

ko'plab otashparastlik bilan bog'liq diniy-kult ashyoviy dalillar, don yoki boshqa turdagi o'simliklarni yanchish uchun tosh yorg'uchoqlar, kulolchilik charxida yuksak darajada yasalgan nafis sopol idishlar parchalari, qabrlar, shuningdek, qabr skeletlari bel qismidan temirdan yasalgan bel kamarining to'qalari, qurbonlik hayvonining suyak parchalari va ular yonidan temir pichoq va qabrga ovqat bilan qo'yilgan sopol idishlar aniqlandi.

Ularning orasida diniy xarakterga ega bo'lgan altar-o'choqlar va tosh qurilmalar (tosh altar)ning topilishi alohida diqqatga sazovordir. Ushbu topilmalar shartli ravishda 2 guruhga bo'lindi. Birinchi guruhga loydan yasalgan, atrofi past bo'rtli uchlar kiritilib, ushbu altar-o'choqlar yodgorlikning axtar qatlamida ham uchratildi. Ikkinchi guruhga esa mayda va o'rtacha kattalikdagi toshlardan yasalgan tosh qurilmalar kiritildi. Ushbu guruhga kiruvchi qurilmalar yodgorlikning yuqori va o'rta qatlamlarida uchratildi. Diniy harakterga ega ushbu tosh qurilmalarni 4 ta: to'g'ri to'rtburchak, ovalsimon, aylana va yarim oy shakllari mavjudligi aniqlandi. Tadqiqotda ularning ayrimlariga to'xtalib, tavsifini berish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Uchtepa 2 – yuqori qatlam tosh qurilmalari

1-tosh qurilma. Atrofiga toshlar terilgan 1-tosh qurilma yodgorlikning janubiy chegara qismida, shartli ravishda belgilangan 5-xonada joylashgan. Tosh qurilma janubi-sharqdan shimoli-g'arbga cho'zilgan uzunchoq tor oval shaklidagi toshlar qalashmasidan iborat bo'lib, 2-tosh altarga yonma yon joylashgan. 1- otashkadaning toshlaridan biri hajm jihatidan kattaroq, uning yonlariga kichik hajmli toshlar terilib, to'g'ri to'rtburchakli shakl hosil qilingan. Uning janubiy chegarasiga 1 dona yirik tosh yorg'uchoq o'rnatilgan. Tosh altar o'lchami 95×50 sm ni tashkil etadi.

2-tosh qurilma. Bu tosh qurilma yodgorlikning janubiy chegarasida, 1-tosh qurilmadan sharqqa tomon bir devor orqada, shartli belgilangan 5-xonada, janubdan shimolga qaratib terilgan, to'g'ri to'rtburchak shaklida, 18 ta tosh qalashmasidan tashkil topgan bo'lib, ularning 3 donasi singan. Toshlar orasida bir dona maxsus ishlangan qirrali moviy rangdagi hajm jihatidan kattaroq tosh mavjud bo'lib, uning yonlariga kichik hajmli toshlar terib chiqilgan. Tosh qurilmaning o'lchami 90×55 sm ni tashkil etadi.

3-tosh qurilma. Bu qurilma yodgorlikning sharqiy qismida, qalin yumshoq madaniy qatlam ustida joylashgan. U 27 ta tosh qalashmasidan iborat bo'lib, oval shaklida yotqizilgan. Qurilma 95×70 sm o'lchamga ega. Toshlar orasida tosh yorg'uchoq va kesib ishlov berilgan tosh parchalari ham uchratildi. Toshlarining hajmi ancha yirik. Toshlar maxsus terilgan bo'lib, moviy kesilgan tosh va kichik hajmli oq rangli toshlar markazda, qolgan toshlar esa aylana shaklda joylashtirilgan.

4-tosh qurilma. Ushbu qurilma yodgorlikning sharqiy tomonida, sharqiy altar-o'choqlar guruhi qatorida joylashgan bo'lib, oval shaklida. Bu tosh qurilma ham 24 ta toshlar qalashmasidan iborat bo'lib, uning 2 ta toshi qazish paytida o'z o'rnidan qo'zg'atilgan, ularning izlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu tosh qurilma sharq tomonida 20-altar-o'chog'i bilan, shimoli-sharqiy tomonidan 13-tosh qurilma bilan va janubiy tomonida esa ushbu qurilma bilan bir sathda bo'lgan 3-tosh qurilma bilan yonma-yon holatda joylashgan. Qurilma o'lchami 90×70 sm. Toshlar orasida yorg'uchoqlar va ishlov berilgan alohida toshlar ham mavjud.

5-tosh qurilma. Bu qurilma yuqoridagilardan farqli ravishda yodgorlikning shimoliy tomonida, shartli belgilangan 3-xonada, shimoliy sektor janubiy o'q devoridan 110 sm shimolda joylashgan. U oval shaklida bo'lib, o'lchami 110×80 sm. Ushbu tosh qurilma 63 ta katta va mayda toshlardan tashkil topgan. Toshlar orasida markazda joylashtirilgan qushning tavsiri tushirilgan oq rangdagi tosh

uchraydi. Yuqori qatlam tosh qurilmalari ustki qismi va yon atroflaridan sopol buyumlari uchratildi. Ushbu sopol buyumlar qiyosiy tahlil qilinganda ilk o'rta asrlar (V–VII asrlar)ga oid ekanligi aniqlandi.

Uchtepa 2 – o'rta qatlam tosh qurilmalari

10-tosh qurilma. Bu qurilma yodgorlikning sharqiy qismida, shartli belgilangan 4-xonada, markaziy nuqtadan 250 sm pastda, 12–13-altar-o'choqlar bilan bir qatlamda ochib o'rganilgan. Ushbu tosh qurilmaning shakli to'g'ri to'rtburchak bo'lib, uning o'lchamlari 100×40 sm ni tashkil qiladi. Ushbu qurilmaga 32 ta tosh ishlatilgan. Qazish vaqtida qurilma atrofida so'nggi antik davrga tegishli sopol bo'laklari aniqlangan.

11-tosh qurilma. Bu qurilma yodgorlikning sharqiy qismida, shartli belgilangan 4-xonada, markaziy nuqtadan 250 sm pastda, 14, 15, 16, 17 va 18-altar-o'choqlarning g'arbiy tomonida, 3-tosh qurilma sharqiy devoriga tutash holatda ochilgan. Bu tosh qurilma ham to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, o'lchami 85×90 sm. Undagi toshlar bir-birida yaqin holda joylashgan. Toshlarining soni 28 donani tashkil qilib, ular har xil hajmda. Davriy jihatdan esa so'ngi antik davrga tegishli bo'lishi kerak.

12-tosh qurilma yodgorlikning sharqiy qismida, shartli belgilangan 4-xonada, markaziy nuqtadan 240 sm pastda, 17–18-altar-o'choqlarning g'arbiy tomonida, 20-altar-o'choqning janubida aniqlangan. Bu tosh qurilma ovalsimon shaklda bo'lib, yuqoridagi toshlardan farq qiladi. Uning faqrlari tomoni shundaki, toshlar bir-biriga zich qilib terilmagan. Uning markaziy qismi bo'sh, aylana tomonlariga bir xillikda toshlar terilgan. Faqatgina, shimoli-sharqiy qismi ochiq holatda. Balki o'sha joydagi tosh ma'lum bir sabab bilan olinib ketgandur, lekin toshning izlari uchratilmadi. Tosh qurilma o'lchamlari 90×60 smni. Ushbu qurilmaning atroflaridan qizg'ish va qoramtil angobli sopol parchalari uchratildi. Shu asosda qurilma davri so'nggi anttik davr bo'lishi kerak.

13-tosh qurilma shimoliy sektor janubiy o'q devoridan 105 sm janubda, sharqiy qism sharqiy devoridan 170 sm g'arbda, markaziy nuqtadan 240 sm pastda, shartli belgilangan 4-xonada ochildi. Uning shakli bir qaraganda to'g'ri to'rtburchak bo'lsada, lekin u 2 ta yonma-yon tutashtirib qo'yilgan qo'sh aylasimon qurilmaga o'xshaydi. Birinchi qurilma toshlari to'liq saqlangan. Ikkinchi tosh qurilmaning shimoli-sharqiy qism toshlari saqlanamagan. Ularning umumiy o'lchami 75×60 sm tashkil qiladi. Qurilmaning saqlanib qolgan toshlari 23 dona.

15-tosh qurilma. Ushbu qurilma inshootning shimoliy qismida, 5 shartli belgilangan 3-xonada uchratildi. Ushbu qurilmaning shakli aylana bo'lib, o'lchami diametri 80 smni tashkil qiladi. Uni qazib ochilganda toshlar bir-biriga zich, hajm jihatidan katta-kichik toshlar terilganligi kuzatildi. Uni qurishda jami 79 dona toshlar ishlatilgan. Uning davri so'nggi antik davrga tegishli bo'lishi kerak, chunki tosh qurilma maydoni va tevarak-atrofiga uchratilgan (qoramtir angob berilgan) sopol parchalariga ko'ra ushbu qurilma milodiy III–IV asrlarga tegishli degan xulosani aytilish mumkin.

Uchtepa-2 yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar jarayonida 20 ta tosh qurilma aniqlangan bo'lsada, ularning ko'plari ko'rinish va shakl jihatdan bir-biriga juda o'xshashdir. Yuqorida aytganimizdek tadqiqotda ularning ayrimlarigagina to'xtaldik. Ushbu qurilmalar akademik A. Asqarov tomonidan “tosh altar”, deya ta'riflandi. Shu o'rinda aytish kerakki, Farg'ona vodiysi uchun ilk bor toshlar, mexroblar va ularning tarixi xususida ma'lumotlar jamlandi.

X. Oxunboboyevning ta'kidlashicha, pars qabilalarida “Dare-mehr” (qurbonlik marosimi) atamasi saqlanib qolgan bo'lib, ushbu diniy ma'rosimlarda uchta qurbonlik keltirilgan. Birinchisi “Xaoma qurbonligi”, ikkinchisi “Ajodlar ruhi

uchun qurbonlik", uchinchi qurbonlik esa "Gul qurbonligi" hisoblanadi. Rituallar ta'rifida "dare-mexr"da asosiy figura by tosh plitalari hisoblanadi. Tosh plitalardan biri suv solingan vaza uchun qo'yilgan bo'lsa, ikkinchisi olov yoqilgan vaza uchun taglik vazifasini o'tagan. X. Oxunboboyevning ma'lumot berishicha devor tagida qurilgan 2/3 qismi kattakichik tosh bilan to'ldirilgan o'ra olov solingan vaza vazifasini ham o'tagan bo'lishi mumkin [2]. Aytish mumkinki, ushbu atama va uning amallari qadimgi Mitraizm e'tiqodi bilan bog'liq bo'lib, shu kabi qurilmalar qadimgi quyosh xudosa atab qurilgan diniy-me'moriy majmualarda ham kuzatiladi. Jumladan qadimgi Jarqo'ton, Marv, Sangirtepa, Ko'ktepa, Jartepa, Shoshtepa, Tog'aloq 1 kabi yodgorliklarda ham shunga o'xshash unsurlarni uchratish mumkin. Shulardan Sangirtepa yodgorligida aniqlangan to'g'ri to'rtburchak shaklda, o'lchamlari 155x55 sm, 5-20 sm chuqurlikda yasalgan tosh qurilma qayd etilgan. Biroq, mualliflar tomonidan ushbu qurilmaga ta'rif berilmagan[3].

Uchtepa-2 yodgorligida aniqlangan tosh altarlari, altar-o'choqlar yuqorida tilga olingan qadimiy shakllarni takrorlagan holda, o'ziga xos mahalliy uslubda qurilgan. Jumladan to'rtburchak, aylana, ovalsimon hamda yarim oy shakllari mavjud. Aylana shakldagi tosh qurilma va mehroblar vazifasiga ko'ra xo'jalik egasi o'chog'i ramzi bo'lib, undagi ma'rosimlar odatda ayollar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu tosh altarlari ajdodlar ruhiga qurbonlik keltirish yoki xo'jalik qut barakasi farovonligini saqlash uchun maxsus qurilgan. Yodgorlikning ko'pchilik tosh qurilmalarining ustida kul yoki olov izlari kuzatilmaligiga sabab ushbu qurilmalar ustida to'g'ridan-to'g'ri olovning yoqilmasligi balki, maxsus idishda, sopoldan yasalgan otashgoh va tutatqidonlarda saqlanganligi bilan izohlash mumkin. Tosh qurilmalar va ularning asosiy xomashyosi hisoblangan galka (geologiyada 1-15 sm gacha bo'lgan tog'tosh jinslarining bosim ostida ishqalanib yumaloq shaklga kirgan turlari. Ular odatda daryo o'zanlarida, ko'l va dengiz qirg'oqlarida uchraydi) toshlarning diniy urf-odatlar amaliyotida qo'llanilishi haqida Sh. Shonazarovning tadqiqotlarida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan [4]. Galkalar nafaqat mehnat quroli sifatida foydalanilgan balki, diniy urf-odat amaliyotlarida ham keng qo'llanilgan [5]. Butun va bo'laklangan galkalar diniy xususiyatga ega bo'lgan yodgorliklarda ham ko'p uchraydi. Jumladan, ziyoratxohlarda, qurbonlik keltirish joylarida va dafn inshootlarida ham kuzatiladi [6]. Turli tadqiqotchilar galka va tosh plitalarni vazifasi va belgisiga ko'ra ikki guruhga bo'lishadi. Birinchisi, galkalar o'tganlar e'tiqodi bilan bog'liq ritualning predmeti bo'lsa, ikkinchisiga belgi qo'yilgan galkalar kirib, yangi hayotga ko'chish, qayta tirilish va o'lim timsoli sifatida qayd etiladi [7].

Endi yodgorlikdagi toshlarni tizimli, xona polidan baland qilib, atrofni bort devori bilan mustahkamlanganligi masalasiga kelsak, fikrimizcha, qurilma ajdodlar ruhi uchun maxsus tortiqlar qo'yiladigan kichik qurbonlik supasi bo'lgan ko'rinadi. Shu jihatlarni inobatga olgan holda qurilmalarni taxminiy chizmasini qayta tiklashga urinib ko'rildi.

Bunday qurilmalar, bir qator arxeologik yodgorliklarda ham aniqlangan bo'lib, jumladan, Sarazm yodgorligining so'nggi (yuqori) qatlamlarida 10 dan ortiq qayd qilingan. Shuningdek, bunday qurilma Namangan viloyati, Pop tumanidagi Qirxujra yodgorligi R-1 hududida bir guruh mehroblar joylashgan maydonda ham aniqlangan [8]. Mualliflar ularning qanday vazifa bajaranganligi masalasini ochiq qoldirishgan. Faqatgina toshlarning orasidan mayda suyak bo'laklari aniqlangani va ularning o'choq sifatida foydalanilmaganligini qayd qilingan [9].

Taxminimizcha ushbu qurilmalar animizm, jamoaviy va individual ajdodlar ruhi e'tiqodida alohida o'rin tutadi. Misol uchun, Ustrushona aholisi animistik e'tiqodida tosh kulti bilan bog'liq urf-odatlar zahirida inson ruhining mavjudligi va unga bo'lgan ishonchning mustahkamligi aks etadi. Ustrushona aholisi orasida yaqin vaqtlargacha inson vafot etganini uning qarindoshlariga aytish uchun "falonchi toshga aylanib qolibdi" degan iboralar ishlatilib kelingan [10]. O'zbek xalqi aytimlarida ham "boshing toshdan bo'lsin", "borgan joyingda toshdek qot" kabi bir qancha iboralarning saqlanib qolganligi yoki kasalmand tug'ilgan chaqaloqqa yashab qolishi uchun "tosh bilan boshlanuvchi" ism qo'yish odatlari bugungi kungacha keng foydalanib kelinayotgani ham bunga misol bo'ladi. Shunga o'xshash an'analar qardosh ozarbayjon xalqi an'analari ham uchraydi. Unga ko'ra marhum jasadi uydan olib chiqilayotgan vaqtda uning ortidan qora tosh irg'itishgan va "ardinja gara dash" (orqangda qora tosh), deb aytib qo'yishgan [10]. Shuningdek, ajdodlar ruhiga qurbonlik amali ijro etilayotganda jonliqning qoni toshdan yasalgan maxsus xovonchasimon moslamaga oqizilgan. Ushbu odat sehrarlik xarakteriga ega bo'lib, e'tiqodga ko'ra marhum izidan ushbu xonadonga o'lim qaytib kelmaydi, deb tushinilgan.

Xulosa va takliflar. Urf-odatlar, timsollar va ritualning tahliliga ko'ra tosh qurilmalar va mehroblar biz tadqiq qilayotgan yodgorlikda tizimlilik asosida qandaydur mahalliy urfga aylangan me'moriy qadriyat asosida qurilgan. Bularning isboti sifatida mahalliy aholining ajdodlar ruhi e'tiqodi, olov, kul bilan bog'liq urf odatlari, qurbonlik keltirish va shukronalik ma'rosimlari o'tkaziladigan maxsus qurilmalarni ko'rsatish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shahsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T., 2017. – B. 49.
2. Ахунбабаев Х. Г. Дворец ихшидов Согда на Афрасиябе. – Самарканд, 1999. – С. 48.
3. Хасанов М., Рапен К., Даепен М., Болиев Б., Кубаев С., Раджабов А. О работах на городище Сангиртепа в 2012 году // Археологические исследования в Узбекистане 2012. – №9. – Самарканд, 2012. – С. 202–209.
4. Шоназаров Ш. Галька в обрядово-культурной практике: археологический контекст // ИМКУ. Вып. 41. – 2023. – С. 167–173.
5. Морозова О. В. Использование галек древним населением Урала // Геоархеология и археологическая минералогия. Научное издание. Институт минералогии УрО РАН: – Миасс, 2015. – С. 64.
6. Сериков Ю. Б. Гальки и их использование древним населением Урала // Вестник археологии, антропологии и этнографии. – 2006. – №6. – С. 57.
7. Корнева Т. К. Знаковые изображения на гальках и каменных плитках в палеолите Северной Евразии // Археологические вести. Институт истории материальной культуры РАН. Вып. 23. – СПб., 2017. – С. 65.
8. Анарбаев А., Баратов С., Саидов М., Кубаев С., Насриддинов Ш. Археологические исследования городища Чильхужра в 2013 году // Археологические исследования в Узбекистане 2013–2014 года. – Самарканд, 2016. Вып. 10. – С. 33.

9. Раззоков Ф. А. Строительные комплексы древнеземледельческого поселения Саразм в IV–III тыс. до н.э. – Санкт-Петербург, 2016. – С. 106.
10. Мамиров О. Ў. Қадимги Уструшона аҳолисининг аждодлар руҳи эътиқоди (археологик ва этнографик материаллар асосида) / Бронза ва илк темир асрида марказий осий халқларининг моддий маданияти. Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Самарқанд, 2023. – Б. 149–155.
11. Кулиева Р. Г. Культ камня в Азербайджане. Автореф дисс. канд. ист. наук. – Баку, 1993. – С. 11–12.



UDK:94(575.1)

Mahmud HAMRAYEV,
Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail: mahmudhamrayev18111991@gmail.com

O'zRFA Tarix instituti bosh ilmiy xodimi, t.f.d Q.Rajabov taqrizi asosida

THE INVADE OF BUKHARA IS OVER "THE LITTLE DAY OF RECKONING"

Annotation

In this article, The occupation of Bukhara Emirate was analytically described by Soviet Russia. The article is based on historical facts. The events are revealed based on the sources of that time in this article. The reasons for the defeat of the Emir's army are shown in the article.

Key words: Samarqand-Bukhara front, armored car, Tatar gunners, revolution, Old Chorjoy, New Bukhara, Farsal, Sovpovich, Forman, Minarayi Kalon.

ЗАВОЕВАНИЕ БУХАРЫ, ИЛИ "МАЛЕНЬКАЯ ПРЕВОСХОДСТВО"

Аннотация

В данной статье аналитически описана оккупация Бухарского эмирата Советской Россией. Статья основана на исторических фактах, а события в ней раскрываются на основе источников того времени. В статье показаны причины поражения армии эмира.

Ключевые слова: Самарканд-Бухарский фронт, бронемашинa, татарские артиллеристы, революция, Старый Чорджой, Новая Бухара, Форман, Фарсал, Совпвич, Минарайи Калон.

BUXORONING BOSIB OLINISHI YOXUD "KICHIK QIYOMAT"

Annotatsiya

Mazkur maqolada Buxoro amirligining sovet Rossiyasi tomonidan bosib olinishi tahliliy bayon etildi. Maqola tarixiy faktlarga asoslangan bo'lib, undagi voqealar o'sha davr manbalari asosida ochib berilgan. Maqolada amir qo'shinining yengilish sabablari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlari: Samarqand-Buxoro frontini, zirhli avtomobil, tatar o'qchilar, inqilob, Eski Chorjo'y, Yangi Buxoro, Farsal, Sovpovich, Forman, Minorayi Kalon, Tarixi nofeiy.

Kirish. Turkistonda mustabid sovet tuzumi o'rnatilgach, qizil armiya tomonidan Buxoro amirligiga qarshi harbiy harakatlar olib borishga tayyorgarlik ko'rildi. Oktabr to'ntarishidan so'ng sovet Rossiyasi bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi munosabatlar keskin yomonlashdi. Bu holat bolsheviklar tomonidan Buxoro davlatining ichki ishlariga aralashishda va qurolli tajovuz qilishida namoyon bo'ldi. Rossiya amirlikni bosib olish uchun tayyorgarlik ko'rar ekan, urush uchun siyosiy bahonalar qidirardi. Buxoro markazigacha bo'lgan harbiy operatsiyaning eng strategik nuqtasi taxminan Buxorodan 15 km uzoqda joylashgan Kogon shahri edi. Ruslar bu shahar orqali Buxoro ustidan o'z hukmronligini saqlab qolganlar. Darhaqiqat, bu shahar xonlik o'z mustaqilligini yo'qotib, temir yo'l bilan bemaol mustahkamlanadigan tayanch punktiga aylanganidan keyin tashkil topgan. Bu bazaning urushdagi ahamiyatini ruslar ham, Olimxon ham juda yaxshi bilishardi. Urushdan oldingi tayyorgarliklar ham shu markaz bilan bog'liq edi. Olimxon o'z xotiralarida ta'kidlaganidek, bolsheviklar bilan bo'lishi mumkin bo'lgan urushga tayyorgarlik ko'rish maqsadida Kogon temir yo'l vokzaliga askarlarni joylashtirgan. Bu strategik muhim nuqtaga askarlarni joylashtirish albatta bolsheviklarni bezovta qilgan. Ular Amir Olimxonni bu yerdan askarlarni olib ketishga ko'ndirishda diplomatik usuldan foydalanib ko'rishadi. Buxoro amirligi bilan sulh imzolash bahonasida Toshkentdan Baranov Pyotr Ivanovich ismli elchi kelib, Olimxon o'z askarlarini u yerdan olib chiqib ketishi evaziga o'zlari avval hibsga olgan buxorolik fuqarolarni ozod qilishlarini e'lon qiladi. Olimxon Rossiyada harbiy bilim yurtini tamomlaganiga qaramay, bu nuqtaning strategik

ahamiyatini to'liq anglamagan edi. Shuning uchun ozod qilingan bir necha asir evaziga o'z askarlarini temir yo'ldan taxminan 2 km uzoqroqqa olib chiqib ketgan. O'z so'zlari bilan aytganda, u har ehtimolga qarshi bu yerda istehkom qurdi va 40 kishidan iborat qorovullar postini qoldirdi. Albatta, 40 kishi hujumga dosh bera olmasdi va u xatosi uchun og'ir to'lovni to'ladi. Buxoro amirligini yo'q qiladigan urush 1920-yil 29-avgustda yarim tunda bosqin tarzida boshlandi. Buxorolik „mehnatkashlar“ taklifi bilan e'lon qilinmasdan boshlangan urush bu jihatdan urush qonuniga ziddir. „Yordam“ to'g'risidagi uydirma sovetlar tomonidan uzoq vaqt davomida targ'ibot manbasi sifatida qo'llanilib, xalqqa Buxoroning zo'rlik bilan bosib olinmagani, balki mehnatkashlarning zolim amirlikka qarshi ko'rsatgan yordamiga javob berilganligi aytilar edi. Imperialistik G'arbning o'zi ekspluatatsiya qilgan yerlarga „sivilizatsiya“ olib kelish davosiga javoban, go'yoki imperializmga qarshi bo'lgan bolsheviklar mehnatkashlarga „yordam berish“ uchun Buxoroni bosib olganliklarini davo qildilar. Ammo imperializmning mentalitetida hech qanday o'zgarish bo'lmadi[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Said Olimxon o'z ichki siyosatida katta miqdordagi zamonaviy qurollangan muntazam armiyani tuzishga intiladi. Afg'oniston va boshqa xorijiy mamlakatlar bilan yaqinlashishga harakat qiladi. Said Olimxon bilan Xiva xoni va Junaidxon o'rtasida sovet Rossiyasiga qarshi birgalikda kurash olib borish uchun harbiy bitim ham tuziladi. 1920-yil bahorida Buxoro amirligidagi siyosiy vaziyat keskinlashib, amirlikka tashqi xurujning tahdidi kuchaydi. 1920-yil may oyi boshlarida Moskvaga

kelgan butun Rossiya MIK va RSFSR XKSning Turkiston komissiyasi azolari Sh.Eliava va Ya. Rudzutaklar RSFSR tashqi ishlar xalq komissari G.V.Chechiringa „Turkiston komissiyasi ertagayoq Buxoro amirligining mustaqilligini bekor qilish to'g'risida qaror chiqaradi“, degan bayonotni topshirishadi. Turkiston komissiyasi Buxorodagi amirlik tuzumiga qarshi turuvchi muxolifatni birlashtirishga va mamlakatda to'ntarish qilish bilan bevosita shug'ullandi. Turkkomissiya rahbarligida 1920-yil 24-iyunida amirlikda qo'zg'olon tayyorlash bo'yicha inqilobiy byuro tuzilgan va uning tarkibiga Turkkomissiya a'zolari M.V.Frunze, V.V. Kuybishev, Turkiston Kompartiyasi MK kotibi Nazir To'raqulov, Najib Husainov Yosh buxoroliklar partiyasi Markaziy byurosining raisi Fayzulla Xo'jayev va boshqalar kirdi[2].

1920-yil 12-avgustda M. V. Frunze amirlikni tugatish maqsadida Samarqand-Buxoro fronti (4 ta zarbdor guruhdan iborat) tuzishga ko'rsatma berdi. Shu asnda poytaxt atrofiga 7000 piyoda, 2500 otlq askar, 46 ta to'p, 230 ta pulemyot, 10 ta zirhli avtomobil, 5 ta bronepoezd va 12 ta harbiy samalyot) shay holatga keltirildi. Turkfront jangchilaridan tashqari keyinchalik harbiy amaliyotlarda 5000 kishidan iborat buxoroliklar (amirga qarshi muxolifat kuchlar ham) qatnashdi[3].

Bu harbiy qismlarning ko'pchiligi Farg'ona vodiysida istiqloqlchilarga qarshi kurashayotgan qizil askarlar bo'lib, ular avgust oyi oxirida Buxoro chegaralariga tashlandi. Qizil askarlar orasida Volgabo'yi va Qozondan jo'natilgan tatar o'qchilar qismi ham ko'p bo'lgan[4].

Tukkomissiya Buxoro davlatiga qarshi harbiy jang amaliyotlari o'tkazilishining butun tafsilotlarini Turkiston fronti qo'mondoni M.V.Frunze bilan birgalikda ishlab chiqqan edi. 1920-yil yozda Buxoro amirligida siyosiy vaziyat juda keskinlashdi. 25-avgustda Frunze Turkiston fronti askarlariga „qo'zg'olon ko'targan Buxoro mehnatkashlariga yordam ko'rsatish to'g'risida“ buyruq berdi. Bosqinchilar guruhining ko'pchiligiga 29 avgustga o'tar kechasi faol harakatlarni boshlash buyrug'i berildi[5].

Bu davrda Buxoro amirligi ixtiyorida esa 8725 piyoda, 7850 otlq, 150 ga yaqin eski pilta to'plar, bir necha zamonaviy to'plar, 20 ta pulemyot bo'lgan. Bu davrda amirlikda muntazam qo'shindan tashqari o'ta qolqoq darajada qurollangan 20 ming nafar xalq lashkari ham bo'lib, bu askarlar jangga mutlaqo tayyor holatda emasdi. Buxoro amirligi qo'shbegisi Usmonbek va hukumat a'zosi Baqo Hoji To'qsabonning ma'lumotlariga ko'ra, 1920-yil avgust oyi oxirlarida Eski Buxoro va uning atroflarida amir qo'shinining umumiy soni 20 ming kishi atroflarida bo'lgan[6].

Yomon qurollangan va kerakli harbiy ta'limni olmagan amir armiyasi yaxshi qurollangan va zamonaviy harbiy texnika bilan taminlangan, buning ustiga harbiy ko'nikmaga ega qizil askarlarning hujumiga bardosh berolmasligi avvaldan ma'lum bo'ldi. Turkkomissiya Buxorodagi amirlik tuzumini ag'darishni xohlayotgan muxolif kuchlarni to'plashga va mamlakatda harbiy to'ntarish bilan shug'ullandi. Turkiston komissiyasi rahbarligida 1920-yil 24-iyundayoq amirlikda qurolli qo'zg'olon tayyorlash bo'yicha inqilobiy byuro tashkil etilgan bo'lib, uning a'zolari sifatida M.V. Frunze va V.V. Kuybishev, Turkiston Kompartiyasi MK kotibi Nazir To'raqulov, Buxoro byurosining raisi F. Xo'jayev va boshqalar faoliyat olib borishgan. 1920-yil 10-avgustda Turkiston komissiyasi, Buxoro Kompartiyasi Markaziy Komiteti va Yosh buxoroliklar partiyasi Markaziy byurosining qo'shma majlisida Fayzulla Xo'jayev rahbarligida Buxoro Xalq Nozirlar Sho'rosi hukumati va Ahmadjon Abdusaidov (Hamdiy) raisligida Buxoro muvaqqat Inqilobiy qo'mitasi tuzildi[7], ular amir hokimiyati qulatilgach, Buxoroni boshqarishlari lozim edi. 23 avgustda bo'lib o'tgan Turkiston

komissiyasining navbatdagi majlisida Buxoro „inqilobiy“ hukumatining dasturi muhokama etildi va qabul qilindi[8].

Shu tariqa Buxoroda hali „inqilob“ boshlanmasdan Toshkentda RKP (b) MK va RSFSR hukumatining vakolatli organlari rahbarligida „inqilob“ g'alaba qozongandan keyin o'rnatiladigan yangi tuzum va davlat shakli qanday bo'lishi xususida, yangi hukumat organlarining tartibi, ularning dasturi, dekret va boshqa ishlar belgilab qo'yilgan edi. Gap faqat amalga oshirilishi lozim bo'lgan „inqilob“ning o'zini amalga oshirishda edi[9].

Shunday qilib, Buxoro kommunistik partiyasi va inqilobchi Yosh buxoroliklar rahbarlari orasida jiddiy munozaralar bo'lgan bo'lsa ham, ular Rossiya bolsheviklaridan harbiy yordam so'rashadi. 1920-yil 21-avgustda Turkiston fronti qo'mondoni M.V.Frunze va Turkiston fronti Harbiy inqilobiy kengashi a'zosi Yu. Ibrohimov RSFSR Harbiy ishlar xalq komissari L.D.Trotskiy nomiga telegramma yo'llab, Buxoroni egallashga hamma narsa tayyor ekanligini ma'lum qilishganida, bolsheviklarning rahbarlaridan biri I.V.Stalin bu telegrammaga „o'rtoq Frunze rejasiga ko'ra zudlik bilan harakat qiling“, deb rezolyutsiya qo'ygan[10].

Bu jumlaning ostiga esa V.I.Lenin va N.I.Buxarin „roziman“ deb imzo chekishgan[11].

1920-yil 16–18-avgustda Chorjo'yda Buxoro kommunistlarining 4 syezdi bo'lib, unda amirga qarshi qo'zg'olon ko'tarish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bu payt bolsheviklarning ayyorona rejalarini esa amalga osha boshlagan edi. Tarixda „yalpi qo'zg'olon“ deb atalgan harakat 1920-yil 23-avgustda kommunist Beshim Sardor boshchiligidagi yollanma turkman otlqlarining Chorjo'y yaqinidagi Saqor Bozor qishlog'ini egallash bilan boshlandi. Beshim Sardor va yangi Chorjo'y kommunistlari darhol Eski Chorjo'yni ishg'ol qilib, 100 dan ortiq amaldorlar qamoqqa olindi. Chorjo'y bekligi xazinasi egallanib, boyliklar tezda Chorjo'y rebkomi va yangi hukumatga topshirildi[12].

Bolsheviklar bilan bo'lgan avvalgi kelishuvga ko'ra shu kuni Chorjo'y revkomi „Butunbuxoro xalqi nomidan“ Turkiston fronti qo'mondonligiga harbiy yordam so'rab murojaat qilgan. Vaholanki ular Buxoro xalq kommunistlar syezdi qaroridan ham, Beshim Sardor isyonidan ham bexabar edi. Shu tariqa Buxoro taqdiri qizil qo'shin ixtiyoriga topshirildi[2].

M.V. Frunze „yordam,“ to'g'risidagi xabarni olgach, Turkiston fronti qo'shinlarini 4 ta zarbdor guruh (Samarqand, Kattaqo'rg'on, Chorjo'y va Kogon)ga ajratdi. Samarqand guruhi 29–30-avgustda Shahrisab-Kitob yo'nalishida harakat qilib, Qarshi va G'uzorni egallashi, Kattaqo'rg'on guruhi esa shu kunlari Xatirchi, Ziyovuddin va Karmanani bosib olishi, Chorjo'y guruhi esa Eski Chorjo'yni egallab, Amudaryoning Afg'oniston bilan chegaralarini nazorat qilishi, Forob va Qorako'lni bosib olishi va qo'shimcha buyruqni kutib turishi lozim edi. Asosiy vazifa Kogon guruhi zimmasiga yuklandi. Bu guruh Eski Buxoro shahrini bosib olishi, amir Olimxonni asirga tushurishi va Arki Oliydagi xazinani egallashi kerak edi. 1920 yil 25 avgustda M.V.Frunze Turkfront qo'shinlariga „qo'zg'olon ko'targan Buxoro mehnatkashlariga yordam ko'rsatish to'g'risida“ buyruq berdi. Zarbdor guruhlarining ko'pchiligiga dastlabki marralarni egallash va 29-avgustga o'tar kechasi faol harakatlarni boshlashga buyruq berildi. Harbiy harakatlarga siyosiy jihatdan rahbarlik qilish uchun Yangi Buxoro (Kogon) shahriga Turkiston komissiyasi va Turkiston byurosining yangi a'zosi G. Safarov va Yosh buxoroliklar partiyasi rahbarlari jo'natildi. Buxoroning bosib olinishiga M.V.Frunze Samarqand shahridan turib telegraf orqali bevosita rahbarlik qildi. Qizil armiya tomonidan Buxoroga bosqin 29 avgustga o'tar kechasi boshlandi. Hal

qiluvchi janglar esa Buxoroyi sharif darvozalari yaqinida ro'y berdi[5].

Ushbu hodisalarning bevosita shohidi bu haqida quyidagicha yozadi: „shahar markazi yer bilan yakson qilindi. Jang davomida ko'plab samolyotlar va zambaraklar ishga solindi. Minglab snaryadlar va bombalar Eski Buxoro ustiga yog'dirildi. Shahar himoyachilaridan tashqari ko'plab begunoh keksalar, ayollar va bolalar halok bo'lishdi. Yuzlab aholi uy-joylari, me'morchilik va tarixiy obidalar yer bilan yakson bo'ldi. Registon yondirildi“[13].

Bosqinchi va talonchi qizillar tomonidan muqaddas Buxoro shu tarzda vayron qilindi. Amir Said Olimxon o'z xotiralarda bu fojialar xususida quyidagi fikrlarni bildiradi: „Bu urush asnosida dushman taxminan Buxoroning yarmini to'p va pulemyotlardan o'qqa tutib, ko'p talafot yetkazdi. Ular 11 ta tayyora bilan Buxoro shahri ustida havoda parvoz etib, bomba yog'dirdilar“[14].

Amir askarlari qizillarga qarshi faol qarshilik ko'rsatishdi. Amir Said Olimxon o'zining bosh vaziri Ostonaqul qo'shbegiga shunday farmon berdi: „Vatanimiz, yurtimiz farovonligi uchun sizga quyidagilarni buyuraman. Farmonimni olgach, birinchi navbatda Abdul Husaynbiy, Abdul Eshon Og'aboshi va Abdulzohir to'qsabolarni qo'mondon qilib tayinlashingiz kerak; Xatirchi va Ziyovuddin beklklarining barcha askariy qismlarini darhol qurollantiring. So'ngra viloyatlarning barcha aholisiga vatanda jangovar harakatlar boshlanganligi xususida xabardor qiling. Belgilangan hududlarda e'tiqodimiz dushmanlari bilan jangga kirishing. Viloyatimiz ichidagi telegraf va temiryo'l leniyalarini buzib, dushmanning kuchini qirqing“[15].

Amir o'zi yozganidek, „vayronagarchilik yanada zo'rayib, odamlarning yana halok bo'lishiga yo'l andishasi ila“ o'z qo'shinlari bilan poytaxtdan chiqib ketadi. Eski Buxoro shahri 29-avgustdan boshlab ham havodan, ham yerdan qattiq bombardimon qilindi. Shu o'rinda rus yozuvchisi Maksim Gorkiy tahriri ostida 1935-yilda chop etilgan „Qumdagi janglar“ (O'rta Osiyoda grajdanlar urushi tarixiga doir materiallar), kitobida takidlanishicha, Buxoroni bombalash uchun „Turkfrontga ilgari misli ko'rilmagan butun boshli havo kemalari armadasi tashlandi“[16].

1920-yil avgust oyining so'nggi kunlarida Buxoro yaqinidagi Kogon stansiyasida o'ndan ortiq samolyotlar shay holatga keltirib qo'yildi. Ular orasida samolyotlarning „Forman“, „Farsal“, „Sovpvich“, „Nyupor“, „Vuazen“ va „Albatros“ kabi turlari bor bo'lgan. Yuqoridagi asarda keltirilishicha Stepanov, Stolyarov, Fousek, Ilin, Zelenskiy kabi uchuvchilar bombardimon qilish uchun ikkinchi uchishga tayyor turishgandi. Ikkinchi uchishda har biri 64 kg keladigan bombalar amir arkiga tashlandi. Fousek degan uchuvchi boshqargan „Forman“ turidagi yengil bombardimonchi uchoq o'z yuklarini shaharga „muvaqqiyat“ bilan tashlab, hammadan keyin qaytib kelgan. Bu jarayonlarni sinovchi-uchuvchi Fousek shunday xotirlaydi: „Biz Buxoroni Bombaladik. Qadimiy amirlikni vayron etib tashladik. Xususan, mashhur „Ajal minorasi“ (Minorayi Kalon haqida gap ketmoqda)ga tushgan bomba, garchi bu minoraning nishonga olinishi biz uchun mutlaqo foydasiz bo'lsa-da, bizga alohida zavq-shavq bag'ishladi“[17].

1-2-sentyabr kunlari buxoroning Qarshi darvozasigacha kelgan zirhli poezd hamda Samarqand, Shayx Jalol, Namozgoh darvozalari yaqinida joylashtirilgan to'plardan shaharga 12 ming ta snaryad tashlangan, 12 ta harbiy samolyotlar esa shahar ustida 3 kun mobaynida bomba yog'dirgan. Bir necha yuz ming dona patron sarflangan. Shaharning Qarshi va Samarqand darvozalari ostiga 800 kg dan ortiq porox ko'milib portlatilgan. Qulagan darvozalardan

qizil askarlar shaharga bostirib kirgan. Shundan so'ng Buxoroyi sharifda qizg'in ko'cha janglari boshlanib ketadi[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Shafqatsiz o'q yomg'iri va bombardimon natijasida shahr obidalarining 1/5 qismi vayron etilib, minglab begunoh odamlar halok bo'ldi[18].

Ushbu voqealarning bevosita guvohi bo'lgan o'sha davr tarixchisi Muhammad Ali Baljuvoni o'zining „Tarixi nofeiy“ asarida ruslarning amirlikka bosqini oqibatlarini shunday tasvirlaydi: „Buxoroni bosib olish natijasida 34 ta guzar, 3 mingdan ortiq do'kon, 20 ta saroy, 29 ta masjid yonib xarob bo'ldi. Minorayi Kalonga ham zarar yetib, Olimxon va Mir Arab madrasalari yonib ketdi. Hazrati Imom darvozasidan Guzari Nazargacha, Kofirobod, O'g'lon darvozasi, Masjidi Kalon, Zindonband To'qo'mdo'ziy hammomigacha, minora ostidan to So'zangaron dahasi, Gul bozor, Lattafurushlar rastasi, Registondan to Puli oshiqonning boshigacha yonib ketdi. Qarshi darvozasi ham yonib ketdi... Shaharda 3 mingga yaqin hovli yonib kul bo'ldi. Buxoro shahri qariyb 20 kun yongandi. Buxoroning shu darajada xarob bo'lganligini hech bir tarix ko'rman edi“[19].

Buxoroliklar bu kunlarni „kichik qiyomat“ deb ataganlar. Shaharga kirgan qizillar Arkdagi amir xazinasini, Buxoro qozikalonini, qo'shbegi va boshqa amaldorlarning boyligini talashgan. Sovet askarlari va qo'shin rahbarlari katta boylik orttirganlar. Turkiston fronti inqilobiy harbiy byuro „uchligi“ning a'zosi A.Mashitskiyning 1920-yil sentyabrda Leninga yozgan ma'lumotnomasida shahar markazi yakson qilangani, Registon va Ark yondirilgani, Ark yerto'ralari va omborlaridagi oltin, kumush, olmoslar talangani, bunda qizil armiya bevosita qatnashgani haqida xabar bergan[20].

Tahlil va natijalar. Shu tariqa Buxoro shahrini bosib olgan qizil askarlar hukmdor qarorgohi-Arkdagi amir xazinasini, Buxoro qozikaloni, qo'shbegisi va boshqa saroy amaldorlarining butun boyliklarini talon-taroj qilganlar. Xususan, Turkiston fronti qo'shinlari qo'mondoni M.V.Frunze, Buxoro gruppasining boshlig'i I.P. Belov, ko'plab qizil armiya komandirlari va oddiy jangchilar katta boylikni o'zlashtirganlar. M.V.Frunze va Fayzulla Xo'jayev boshchiligidagi Yosh buxoroliklar vayron qilingan va talangan Buxoro sharifga qizil askarlar hamrohligida kirib kelishgan[21].

Sentyabr oyining boshida amirlik xazinasini va boshqa boyliklar ortilgan 2 eshelon (har birida 14 ta vagon)bo'lgan yuk Toshkent orqali Moskvaga jo'natildi. Katta boylikni o'margan qizil qo'mondon Frunze Moskvaga qaytib kelganda, maxsus xizmat vakillari tomonidan Qozon vokzalining o'zidayoq qamoqqa olindi[22].

Buxoroda 15-sentyabrgacha davom etgan talonchilikning shaxsan guvohi bo'lgan Turkkomissiya vakili G.Safarov o'z asarida: „Buxoroga kelgan qizil qo'shinlar eng avvalo talonchilik bilan shug'ullandilar. Umuman hammani va hamma narsani taladilar. Qizillar Buxoroni talash uchun kelgan edilar“[23], deb yozgandi.

Qizillar amirlik tarkibidagi 27 viloyatni ham egallashgach, amirlik tuzumiga barham berishdi. Shundan so'ng Buxoro amirligi hududida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzildi[24].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Rossiyaning O'rta Osiyoga, xususan, Buxoroga nisbatan olib borgan ayyorona siyosati, mamlakatda yetilayotgan norozilik kayfiyatini kuchaytirib yubordi. Natijada, ichki birlikka ega bo'lmagan xalq ruslar tomonidan mustamlakaga aylantirildi. Hattoki qo'rboshilar faoliyatida ham mana shu birlashib harakat qilmaslik, bir-biriga nisbatan ishonchsizlik holatlari ruslarga qo'l keldi. Buxoroda 1920-yil 2-sentyabrda amirlik tuzumi qurol kuchi bilan ag'darib tashlanadi. Ammo bolsheviklar va'da qilgan tinchlik va tenglikka erishilmadi.

ADABIYOTLAR

1. Nurettin Hatunoğlu. Türkistan'da son türk devleti Buhara emirliği ve Alim Han. – Istanbul: Ötüken, 2016. – S. 223.
2. Buhara cumhuriyeti 101 yaşında. Bildirilar. Uluslararası Sempozyumu Yazilari. Editorler: Juliboy Eltazarov-Timur Kosaog`lu-Istanbul: (Taskent: “Mumtoz” nashriyoti)2021. 140b.
3. RGVA, 268-fond, 1-ro`yxat, 129-ish,12-13-varoqlar.
4. Крушелнитский А.Бухарская революция. Диктатура по телеграфу // “Родина”, 1989. №11. –S.30-39.
5. Rajabov,Q. Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi qurolli kurash: tarix haqiqati (1920-1924 yillar). Toshkent ., “Ma`naviyat”, 2002, 11-12 b.
6. Turkistan v nachale XX veka: K istorii istokov natsionanoy nezavisimosti. –S. 323-324.
7. Fayzulla Xo`jaev. Buxoro inqilobining tarixiga materiallar// Fayzulla Xo`jaev. 100 – Toshkent: “Fan”, 1997. –B. 172-173.
8. Ishanov A. Buxarskaya Narodnaya Sovetskaya Respublika. –Tashkent: “Uzbekistan”, 1969. –S. 179-180, 186-187.
9. O`zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O`zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida.Toshkent, “O`zbekiston”.2019 -B. 126-127.
10. Persits M.A. Zastenchivaya interventsia. O sovetkom vtorjenii va Iran i Buxaru v 1920 – 1922 gg. 2-izd. –Moskva : “Muravey-gayd”, 1999. –S. 86.
11. Rajabov Q., Maqsudov R. Qiziltepa tarixi. – Toshkent: “Muharrir”, 2011. –B.128.
12. RGASP, 122 fond, 1 ro`yxat, 10 ish, 262 varoq.
13. Genis V. Razgrom Buxarskogo emirata v 1920 godu // “Voprosi istorii”, 1993. № 7. –S.49-50.
14. Amir Sayyid Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. Toshkent, “Fan”, 1991, 15 bet.
15. Gafurov B., Proxorov N. Padenie Buxarskogo emerata.(k 20-letiyu sovetkskoy revolyutsii v Buxare 1920-1940 g). Stalinabad, Gosizdat Tadjikistana otdel politicheskoy literatury, 1940. –S 54.
16. Toirov T. Buxoro bombardimon qilinganda // “Yoshlik”jurnali, 1989.№7.-B.54
17. M.Gorkogo, VS.Ivanova, I.Mintsa, F.Kolesova. Voyna v peskax (materialy po istorii grajdanskoy voyny k XII tom). OGIZ. 1935. –S 303.
18. Rajabov Q. Turkiston qo`rboshilari Toshkent ., “Fan”, 2022, 54 b.
19. Muhammad Ali Baljuvoni. Tarixi nofeiy (Foydali tarix). – Toshkent: Akademiya, 2001. 70-71 betlar .
20. RGASP, f. 122,op.3, d.21, l.195.
21. Rajabov Q. So`nggi mang`it hukumdori (sakkizinchi maqola) // “Buxoro mavjlari”, 2007.№3.-B.41-44
22. Rajabov Q. Buxoro oltinlari taqdiri yoxud “o`rtoq Frunze ishi” // “Buxoro mavjlari” jurnali. 2004. №4. 25-26 betlar.
23. Safarov G.I. Kolonialnaya revolyutsiya (Opyt Turkestana). –Moskva: Gosizdat.1921. S.94.
24. Rajabov Q., Inoyatov S. Buxoro tarixi. – Toshkent: Tafakkur, 2016.136-140 betlar.